

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

M.M. ABDULLAYEVA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
KONSTITUTSIYAVIY
SUD FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH:
NAZARIY VA AMALIY
MASALALAR**

Monografiya

Toshkent – 2025

UO'K: 347.9(035.3)(575.1)

KBK 67.400.1(5PO')

A 15

Mas'ul muharrir:

I.T. Tulteyev – yuridik fanlar doktori, dotsent

Taqrizchilar:

Sh.X. Zulfiqarov – yuridik fanlar doktori, professor;

A. Yo'ldashev – yuridik fanlar doktori, professor.

Abdullayeva, M.M.

A 15

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish: nazariy va amaliy masalalar

[Matn]: monografiya / Abdullayeva Maftuna Murot qizi. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 160 b.

Ushbu monografiyada davlat hokimiyati tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tutgan o'rne va funksiyalari, hokimiyatlar bo'linishi sharoitida Konstitutsiyaviy sudning huquqiy tabiatiga oid zamonaviy yondashuvlar tahlili, O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sud faoliyatining rivojlanish bosqichlari, Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish va mustaqilligini ta'minlash mezonlari, konstitutsiyaviy nazorat samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy muammolari, Konstitutsiyaviy sud qarorlarini ijro etishning dolzarb jihatlari, Konstitutsiyaviy sudning qonunchilik tashabbusi huquqi, xorijiy davlatlarda konstitutsiyaviy nazoratning modellari tahlili hamda milliy qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari masalalari tadqiq etilgan.

Mazkur monografiya oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, talabalari, Konstitutsiyaviy huquq, Konstitutsiyaviy nazorat va konstitutsiyaviy sudlov sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va ushbu masalalar bilan shug'ullanuvchi amaliyot xodimlari hamda keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Mazkur monografiya Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot etikasi kengashining 2025-yil 20-iyundagi 8-sonli majlis bayonnomasi asosida nashrga tavsifa etilgan.

ISBN 978-9910-554-92-6

© M.M. Abdullayeva, 2025.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMIDA KONSTITUTSIYAVIY SUDNING O'RNI, HUQUQIY TABIATI, RIVOJLANISHINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	9
1.1. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda konstitutsiyaviy sudlov tushunchalarining o'zaro nisbati	9
1.2. Konstitutsiyaviy sudning huquqiy tabiati hamda davlat hokimiyati tizimidagi roli va ahamiyati	16
1.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining rivojlanishi tendensiyalari	21
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMINING YURIDIK TAHLILI	32
2.1. Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish tartibi, tuzilishi va uning mustaqilligi	32
2.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining konstitutsiyaviy nazorat funksiyasi	39
2.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qonunchilik tashabbusi huquqi	48
2.4. Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaat qilish huquqi: konstitutsiyaviy shikoyat instituti	58
III BOB. KONSTITUTSIYAVIY SUD ISH YURITUVINING UMUMIY XARAKTERISTIKASI	68
3.1. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi tushunchasi va mazmuni, prinsiplari	68
3.2. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi bosqichlarining umumiy tavsifi	78
3.3. Konstitutsiyaviy sud hujjatlarining yuridik tabiati va ularni takomillashtirish masalalari	85

IV BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT MODELLARI VA MAMLAKATIMIZDA HUQUQIY DAVLATNI QURISH SHAROITIDA KONSTITUTSIYAVIY SUD FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	99
4.1. Konstitutsiyaviy nazoratning Amerika modelining o'ziga xos xususiyatlari (AQSH misolida)	99
4.2. Konstitutsiyaviy nazoratning Yevropa modelining o'ziga xos xususiyatlari (GFR misolida)	104
4.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tashkiliy va ilmiy-tahliliy jihatdan ta'minlash samaradorligini oshirish masalalari	122
XULOSA	129
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	134

***“Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadri
ulug’lashni eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etdik. Yangilangan
Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini
muhrlab qo‘ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun
ustuvorligini ta’minlash orqali xalqimizni rozi qilish”.***

Sh. Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

Konstitutsiyaviy odil sudlov demokratiyaning tamal toshidir. U konstitutsiyaviy nazoratning oliy shakli, zamonaviy demokratik davlatning alohida talabi, zaruriy instituti bo‘lib, Konstitutsiyaning ustunligini ta’minlash hamda mamlakatimizda qonuniylik muhitini, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yaratishning ishonchli garovi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati tizimidagi roli va funksiyalari masalalari dunyoning deyarli barcha mamlakatlari konstitutsiyaviy amaliyotida turli tadqiqotlarga sabab bo‘lmoqda.

BMTning 2030-yilgacha erishilishi lozim bo‘lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri sifatida odil sudlovga erishish va huquq ustuvorligini ta’minlash vazifasi belgilangan bo‘lib, mazkur maqsadlarni amalga oshirishda konstitutsiyaviy nazorat instituti dolzarb ahamiyatga ega¹.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan demokratik islohotlar natijasida konstitutsiyaviy sudlovning huquqiy asoslari takomillashtirildi. Xususan, Konstitutsiyaviy sudga muayyan ishda qo‘llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini fuqarolar hamda yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilganligi to‘g‘risidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish vakolati yuklatildi, Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining muayyan ishda qo‘llanishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy

¹ <http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs>

hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqishi belgilandi.

Bu o'zgarishlar mamlakatimizda konstitutsiyaviy sudlov institutini ahamiyatini kuchaytirib, inson huquqlarini himoya qilishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan qoidalarni ta'minlash, "qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash" maqsadida keng qamrovli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, inson huquqlari va erkinliklariga oid xalqaro standartlarni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning roli va o'rnini oshirish hamda Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish tartibini soddalashtirish, uning subyektlar doirasini kengaytirish ustuvor vazifalar etib belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarni hal qilish mazkur sohadagi qonunchilikni ilg'or xorijiy standartlarga moslashtirishni dolzarb etib belgilamoqda.

Shuni qayd etish lozimki, jahonda davlat hokimiyati tizimida konstitutsiyaviy sudlov instituti rolini oshirish, Konstitutsiyaviy sud vakolatlarini me'yorlashtirish, sud hokimiyatining umumiy yurisdiksiya sudlari va konstitutsiyaviy sudlar o'rtasida vakolatlarni aniq taqsimlash, konstitutsiyaviy sudlar faoliyatining samaradorligini aniq va ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlashga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu jihatdan davlat hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi hamda o'rni va rolini aniqlash, konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshirish tartibi hamda o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish, xorijiy mamlakatlarda konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshirishni qiyosiy-huquqiy tahlil etish asosida ijobiy tajribani milliy qonunchilikka tatbiq etish yuzasidan takliflar

ishlab chiqish, Konstitutsiyaviy sud huquqiy hujjatlarining yuridik tabiatini tahlil qilish va ularni takomillashtirish borasida tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, mamlakatimizda konstitutsiyaviy sudlov institutining huquqiy asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish va qonunchilikni takomillashtirish masalalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sud bilan bog'liq ayrim nazariy va amaliy masalalar huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda davlat hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sudning rolini belgilash mavzusining u yoki bu jihatlari A.A. Azizxo'jayev, M.A. Axmedshayeva, J. Abdurahmonxo'jayev, B.A. Eshonov, A. Ismatov, O.R. Karaxodjayeva, G.R. Malikova, B.Sh. Mirbabayev, M.M. Mirakulov, O.Z. Muxamedjanov, F.H. Otaxonov, H.T. Odilqoriyev, G.M. Tastanbekova I.T. Tulteyev, R.R. Xakimov, A.M. Hoshimxonov, O.T. Husanov, A.X. Saidov, M.M. Fayziyev, Sh.Z. O'razayev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyatining o'rne M.M. Mirakulovning doktorlik dissertatsiyasida (2016), sud hokimiyatining shakllanishi va rivojlanishi o'rganilgan. B. Qosimovning "O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlarida sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash masalalari: qiyosiy-huquqiy tahlil" doktorlik dissertatsiyada (2021) sud hokimiyati tizimi asosida Konstitutsiyaviy sud faoliyatining ayrim masalalari o'rganilgan.

Shuningdek, A.B. Gafurovning doktorlik dissertatsiyasida (2023) "O'zbekistonda konstitutsiyaviy sud nazoratining shakllanishi va rivojlanishi: nazariya va amaliyot masalalari" o'rganilgan, ammo davlat hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sudning roli, konstitutsiyaviy sud ishi yurituvchi masalalari, konstitutsiyaviy sudning funksional vazifalari, konstitutsiyaviy sud qarorlarini ijro etish masalalari shu vaqtgacha yaxlit, kompleks tadqiq etilmagan.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda konstitutsiyaviy sudlov institutining yanada samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga egadir. Shu ma'noda mazkur monografiya davlat hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sudning o'rni va funksiyalariga oid zamonaviy yondashuvlar va xorijiy davlatlar tajribasi tahlili asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish kabi masalalarga bag'ishlangan.

I BOB. DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMIDA KONSTITUTSIYAVIY SUDNING O'RNI, HUQUQIY TABIATI, RIVOJLANISHINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda konstitutsiyaviy sudlov tushunchalarining o'zaro nisbati

Konstitutsiyaviy sudlov instituti tushunchasi va uning mazmun-mohiyatini ochish, uning yuridik tabiati hamda belgilarining nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq qilish avvalambor hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi hamda bunda konstitutsiyaviy sudlovning rolini o'rganishni taqozo qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda J. Lokk zamonaviy hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining ilk muallifi sifatida e'tirof etiladi. U "Boshqaruv haqida ikki traktat" asarida "Shaxs hokimiyatga egalik qilar ekan, o'z qonunlarini yaratadi, ammo uning o'zi bu qonunlarga bo'ysunmasligi mumkin, chunki u ushbu qonunlarning bajarilishini nazorat qilish huquqini o'z qo'lga oladi"², – deb ta'kidlagan edi. J. Lokk davlat hokimiyati bo'linishi haqidagi qarashlarida qonun chiqaruvchi hokimiyatni ustuvor deb hisoblagan.

Sh. Monteskye davlat hokimiyati bo'linishi haqidagi g'oyalarni rivojlantirib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bilan bir qatorda sud hokimiyatini ham ajratadi va ularning o'zaro bir-birini tiyib turishi hamda muvozanat saqlashi bo'yicha fikrlarni ilgari suradi. Britaniyalik siyosatshunos M. Vila ta'kidlaganidek, "Monteskye hokimiyatning bo'linishi haqidagi doktrinaning avtonom boshqaruv nazariyasi sifatida qayta paydo bo'lishiga yo'l ochdi. Bu nazariya Angliya, Amerika va Yevropa qit'asida mutlaqo boshqacha tarzda rivojlandi, ammo o'sha vaqtdan boshlab hokimiyatlar bo'linishi haqidagi ta'limot ingliz nazariyasi bo'lishni to'xtatdi, u konstitutsiyaviy boshqaruvning universal mezoniga aylandi"³. Basharti qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bir shaxs yoki muassasa qo'lida to'plana, erkinlik bo'lmaydi, chunki

² Мирзаева Г. Қонун чиқарувчи ҳокимият (назарий-ҳуқуқий таҳлил). Юрид. фан. номз. дисс...– Тошкент: 2004. – Б. 30.

³ M.J.C.Vile, Constitutionalism and the Separation of Powers, supra note 3, p. 105.

monarx yoki senatning shafqatsiz ravishda qo'llash uchun shafqatsiz qonunlarni qabul qilishidan xavfsirash mumkin. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan ajratilmagan holatda ham erkinlik bo'lmaydi. Agar u qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan bir bo'lsa, fuqarolarning hayoti va erkinligi o'zboshimchalik hukmi ostida qoladi, chunki sudya qonun chiqaruvchi hisoblanadi. Basharti sud hokimiyati ijro etuvchi hokimiyat bilan bir bo'lsa, sudya zolimga aylanishi mumkin⁴.

Yuridik fanlar doktori R. Hakimov hokimiyatlar bo'linishi prinsipi mazmunan quyidagilardan iborat ekanini ta'kidlagan: "Davlat hokimiyati bo'linishi hokimiyat tarmoqlarining bir-biridan mutlaqo ajralishi va o'zaro qarama-qarshi turishini anglatmaydi, balki ularning yagona manba – xalq hokimiyatchiligiga asoslanishini, o'zaro hamjihatligini, konstitutsiya va qonunlar doirasida bir-birini tiyib turishi hamda hokimiyat tizimida mutanosiblik va muvozanat saqlashini ifodalaydi"⁵.

Mazkur fikrga qo'shilgan holda ta'kidlash joizki, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi orqali hokimiyatlarning mutlaq bo'linishi nazarda tutilmaydi. Shuning uchun ham davlatda o'z mohiyatiga ko'ra mustaqil hokimiyatlar bo'lishi mumkin emas: bu davlat suvereniteti tushunchasi bilan istisno qilinadi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi orqali vakolatlar taqsimlanishi va bunda hokimiyat tarmoqlari o'rtasida doimo o'zaro aloqa va hamkorlik bo'lishi nazarda tutiladi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi bu davlat hokimiyati tarmoqlari samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi siyosiy-huquqiy doktrina va amaliyotdir.

Hokimiyatlarning bo'linishi, shaxs huquqlarini sud orqali himoya qilish bilan birgalikda "konstitutsiyaviylik matritsasi"ni tashkil etadi. Ularning har ikkalasi ham ajralmas bo'lib, zamonaviy xalqaro huquq me'yorlariga javob beradi. Shaxs huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lmagan hokimiyatlar bo'linishi

⁴ Montesquieu De L'Esprit des Lois, 1746 quoted in Durga Das Basu. Administrative Law. 2nd edn. 1985; Prentice Hall, p. 23

⁵ Хакимов Р.Р. Давлат ҳокимияти тизимида парламент: назария ва амалиёт муаммолари: Монография. – Масъул муҳаррир: ю.ф.н. Ф.Э.Мухамедов. – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти нашриёти. – Тошкент, 2012. – 39 б.

yoki hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan mustaqil bo'lmagan sudlar oxir-oqibat qonun ustuvorligiga xizmat qilmaydi⁶.

Ilmiy adabiyotlarda olimlar tomonidan hokimiyatlar bo'linishi prinsipi asosida sud hokimiyatining roli turlicha tavsiflanadi: bir tomondan, bu juda kuchli hokimiyat bo'lib, u qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyatda mavjud bo'lmagan vakolatlarga ega⁷ deyilsa, ikkinchi tomondan, boshqa ikki tarmoqqa nisbatan sud hokimiyati zaif, chunki u qonun chiqaruvchi hokimiyat kabi elektorat qo'llab-quvvatloviga asoslanmagan; unda ijro hokimiyatiga xos bo'lgan kuch mexanizmlari mavjud emas deb ta'riflanadi.

Ko'rinib turibdiki, hokimiyatlar bo'linishi tizimida sud hokimiyati tushunchasi, maqsadi va vakolatlarini to'g'ri tushunish uchun bu davlat hokimiyatining sud tarmog'i va uning boshqa ikkita tarmog'i – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar, shuningdek, ushbu tarmoqlarning birortasiga kirmaydigan boshqa organlar bilan munosabatlarini tushunish muhimdir.

Sud hokimiyati tizimida konstitutsiyaviy sudlov organlari alohida o'rin hamda maqomga ega bo'lib, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiradi. Konstitutsiyaviy sud davlat hokimiyatining ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanishini kafolatlovchi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud ham davlat hokimiyati tizimida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni Konstitutsiyaga mos kelmaydigan normativ-huquqiy hujjatlar chiqarishdan tiyib turadi hamda barcha hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini belgilash orqali manfaatlar muvozanatini ta'minlaydi.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib qayd etish joizki, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi konstitutsiyaviy sudlov tizimining konseptual asosidir. Mazkur fundamental prinsip qoidalariga muvofiq,

⁶ Röder, Tilmann J. The Separation of Powers in Muslim Countries. Historical and Comparative Perspectives, in: Rainer Grote and Tilmann J. Röder. Constitutionalism in Islamic Countries: Between Upheaval and

Continuity, Oxford Scholarship Online, Oxford University Press, 2015, p. 2.

⁷ Г.Ж. Сулейменова. Судебная власть в конституционной системе разделения властей //Проблемы взаимодействия ветвей государственной власти в процессе их функционирования: Матер. научно-теоретич. конф. Алматы, 22 июня, 2004 г., КазГЮУ. Алматы: ТОО «Изд-во «Норма-К», 2005. С. 42-58. (1, 25 п.л.)

Konstitutsiyaviy sud nazorat qilish, muvozanat, hamkorlik vositalari orqali sud hokimiyatining oliy tuzilmasini o'zida namoyon qiladi. U hokimiyat tarmoqlarining oqilona taqsimlanishi hamda konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Konstitutsiyaviy sudlov bo'yicha butunjahon konferensiyasi tashkilotchilari hokimiyatlarning bo'linishi tushunchasini konstitutsiyaviy sudlarning mustaqilligi bilan birlashtirganda, ular ikki xil jihatni ko'rib chiqadilar. Konstitutsiyaviy sudlar mustaqilligi – hokimiyatlar bo'linishining maqsadi, mustaqillik uning natijasidir. Birinchi jihat, ehtimol, eng ahamiyatlisidir. Ikkinchi jihat o'zaro munosabatlarga bog'liq: konstitutsiyaviy sudlarning mustaqilligi hokimiyatlar bo'linishining dastlabki sharti bo'lib, mustaqillik konstitutsiyaviy sudlarga hokimiyatlar bo'linishiga rioya etilishini samarali nazorat qilish imkonini beradi⁸.

Mamlakatimiz qonunchiligida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida tan olingan⁹ bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'ruvchi doimiy faoliyat yurituvchi sud hokimiyati organidir.

Shu munosabat bilan konstitutsiyaviy sudlar nafaqat sud nazoratini amalga oshiradilar, balki ularga sud hukmronligi ham berilgan. U qat'iy konstitutsiyaviy nazorat faoliyatini amalga oshirish uchun davlat apparatining tarkibiy jihatdan mustaqil, alohida bo'g'ini bo'lib, o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida davlat majburloviga tayanadi. Ma'lumki, muayyan bosqichda turli davlat organlari konstitutsiyaviy nazorat faoliyatini amalga oshiradilar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi shular jumlasidandir. Mazkur organlardan farqli ravishda Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaga nomuvofiqlik to'g'risida yakuniy qaror qabul qilish va buni bartaraf etish choralari ko'rishni talab qilish vakolatiga ega.

⁸ Christoph Grabenwarter. Separation of Powers and the Independence of Constitutional Courts and Equivalent Bodies Keynote Speech 16 January 2011 2nd Congress of the World Conference on Constitutional Justice, Rio de Janeiro.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: «Ўзбекистон», 2018. – 80 б.

Konstitutsiyaviy sud jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimini muhofaza etishga xizmat qiladi, konstitutsiya normalarining amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi, konstitutsiyaga mos kelmaydigan normativ-huquqiy hujjatni aniqlagan taqdirda o'z qarori bilan ularni harakatdan to'xtatadi yoki tegishli idoraga bunday hujjatlarni konstitutsiyaga muvofiqlashtirish to'g'risida tavsiya beradi.

Qayd etish joizki, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, mamlakatda konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash dunyo mamlakatlari tomonidan konstitutsiyaviy nazoratning keng miqyosida qo'llanishiga sabab bo'lgan. Umuman, qay darajada bo'lishidan qat'i nazar, tan olingan davlatning rivojlanishi, uning milliy huquqiy tizimi, qonun chiqaruvchi hokimiyatning faoliyati sifati uchun konstitutsiyaning doimiy monitoringi zarur.

Yuridik adabiyotlar tahlili **“konstitutsiyaviy sudlov”** tushunchasiga turli ta'riflar mavjudligini ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, konstitutsiyaviy odil sudlov ikki xususiyatni o'zida aks ettiradi: konstitutsiyaviy nazoratning mohiyati; shuningdek, odil sudlovning alohida shakli. Odil sudlov shaklida amalga oshiriladigan konstitutsiyaviy nazoratda xolislik to'liq ta'minlanadi. Konstitutsiyaviy nazoratning oliy shakli konstitutsiyaviy odil sudlovdir.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat: konstitutsiyaviy sudlov bilan bog'liq bo'lganligi sababli konstitutsiyaviy nazorat va konstitutsiyaviy sudlov sinonim sifatida qo'llanadi.

Konstitutsiyaviy sudlov sohasida mutaxassis, italiyalik olim M. Kappelletting fikricha, “konstitutsiyaviy sudlov – “qadriyatlar” bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, konstitutsiyaviy xartiya me'yorlarida mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarida o'z ifodasini topadigan poydevor va eng yuqori qadriyatlarni amalga oshirishni maqsad qiluvchi vositadir¹⁰”.

Huquqshunos olim A. Gafurov: “Konstitutsiyaviy nazorat maxsus davlat organining qonunchilikning konstitutsiyaga muvofiq emasligini aniqlashga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. Bunday nazorat tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat organi tomonidan

¹⁰ Mauro Cappelletti, In Memoria di Piero Calamandrei [In Memory of Piero Calamandrei] 77 (1957). // The referral mechanism and the role of ordinary judges: Cappelletti and beyond S.Benvenuti International Journal of Constitutional Law, Volume 14, Issue 2, April 2016, Pages 474-479, <https://doi.org/10.1093/icon/mow027>

normativ-huquqiy hujjatning konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash, aniqlangan nomuvofiqliklarni bekor qilish bilan bog'liq faoliyatdir", – deb qayd etadi.

Yuqoridagi tahlillarda qonunchilik hujjatini yoki nomuvofiqlikni bekor qilish tushunchasi ham qo'llanmoqda. Odatda konstitutsiyaviy sudlar (Germaniya Konstitutsiyaviy sudida bekor qilish vakolati mavjud) rasmiy ravishda qonunni bekor qilmaydi – u qonun chiqaruvchi emas u faqat konstitutsiyaga mazmunan zid keluvchi qonunni o'z ishida qo'llashdan bosh tortadi.

Venetsiya komissiyasi ham o'z bayonotida konstitutsiyaviy nazorat deganda sudning konstitutsiyaga mosligi nuqtayi nazaridan nazorat qilish va muvofiq bo'lmagan hollarda tegishli hujjatni haqiqiy emas yoki qo'llab bo'lmaydi deb topish vakolati tushuniladi, degan fikr ilgari surilgan¹¹.

Yuqoridagi fikrlar bir-biri bilan bog'liq hamda mazmunan konstitutsiyaviy sudlovni maxsus sud tartib-taomilda amalga oshiriladigan hokimiyat tusidagi nazorat faoliyati sifatida ifodalaydi.

F.X. Odilqoriyeva konstitutsiyaviy sudlov sud hokimiyatining alohida vakolatli organi tomonidan maxsus o'rnatilgan sudlov protsedurasi (tartibi) asosida amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, u konstitutsiya-ning ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan yakuniy qat'iy majburiy tarzda hal qiluv qarorini qabul qilish vakolati¹² sifatida qayd etadi.

Konstitutsiyaviy sudlov – qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarini konstitutsiyaga muvofiqligi nuqtayi nazaridan amalga oshiriladigan konstitutsiyaviy nazoratning shakli.

Konstitutsiyaviy sudlovning quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

birinchidan, konstitutsiyaviy sudlov orqali jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimi ham muhofaza etiladi;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy normalarning amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi, konstitutsiyaga mos kelmaydigan

¹¹ Qarang: Исследование о прямом доступе к конституционному правосудию. [https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=cdl-ad\(2010\)039rev-rus](https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=cdl-ad(2010)039rev-rus)

¹² Одилқориёва Ф.Х. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг ҳуқуқий мақоми. Масъул муҳаррир юридик фанлар доктори, профессор; О.Т.Хусанов. – Т. ТДЮ, 2012. – 128 б.

normativ-huquqiy hujjatni aniqlagan taqdirda o'z qarori bilan ularni harakatdan to'xtatadi yoki tegishli idoraga bundan hujjatlarni konstitutsiyaga muvofiqlashtirish to'g'risida tavsiya beradi;

uchinchidan, konstitutsiyaviy sudlov hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, doimiy faoliyat yurituvchi maxsus (yoki maxsus bo'lmagan) davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir;

to'rtinchidan, bu davlat nazoratining professional shakli bo'lib, nazoratning maxsus oliy shaklidir;

beshinchidan, konstitutsiyaviy sudlov organlari tomonidan (yoki mazkur organlarning xulosasi asosida) konstitutsiyaviy tuzumni buzgan davlat organlariga konstitutsiyaviy javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, konstitutsiyaviy sudlov birinchi navbatda konstitutsiyani muhofaza qilish borasida maydonga chiqadi. Konstitutsiyaviy sudlov konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini barpo etish, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish orqali konstitutsiyani muhofaza qiladi.

Konstitutsiyaviy sudlov Yevropa modelidagi davlatlarda konstitutsiyaviy nazorat organlari, Amerika modelida esa umumiy sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sud davlatning konstitutsiyaviy tarzda tashkil etilgan organi bo'lib, asosiy maqsadi muayyan davlatning huquqiy tizimi doirasida konstitutsiyaviy qonunning normativ ustunligini himoya qilishdir. Uning roli qonunlarni qayta ko'rib chiqish va ularning konstitutsiyaviy jihatdan haqiqiylikni aniqlashdan iborat bo'lib, bu funktsiya faqat Konstitutsiyaviy sudga tegishli: boshqa hech bir sud yoki davlat organi konstitutsiyaviy nazorat bilan shug'ullana olmaydi¹³.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib qayd etish joizki, konstitutsiyaviy sudlov konstitutsiyaviy nazoratni sudlov tartibida amalga oshirishning shakli hisoblanib, mazkur terminni amaliyotda qo'llash konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash bilan bog'liq faoliyatning barcha jihatlarini o'zida aks ettiradi.

¹³ Andrew Harding, op. cit., p. 1.

1.2. Konstitutsiyaviy sudning huquqiy tabiati hamda davlat hokimiyati tizimidagi roli va ahamiyati

Davlat hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sudning tutgan o'rnini va rolini anglash uning huquqiy tabiatini yoritishni taqozo qiladi. Konstitutsiyaviy sudlov o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, davlat hokimiyati tarmoqlari muvozanatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaviy sud huquqiy maqomi hamda vakolatlari jihatidan murakkab va ko'p qirrali xususiyatlarga ega. Konstitutsiyaviy sudlov organlari vakolatlari xususiyatiga ko'ra ikki xil tabiatlidir. Bu masalada olimlar o'rtasida bugungi kungacha qadar Konstitutsiyaviy sud qaysi hokimiyat tarmog'iga tegishliligi yuzasidan ilmiy yondashuvlarda yakdillik yo'qligi namoyon bo'ladi. Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati tizimidagi roli xususida bir nechta yondashuvlar shakllangan bo'lib, huquqshunos olim O.V. Brejnev ularni quyidagicha tasniflaydi:

“Birinchidan, sud konstitutsiyaviy nazorati davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi, sud hokimiyati bilan bir qatorda mustaqil davlat hokimiyatini o'zida namoyon etadi;

ikkinchidan, sud konstitutsiyaviy nazorati davlat hokimiyatining alohida tarmog'i mexanizmi komponenti – nazorat tarmog'ini o'zida namoyon etadi;

uchinchidan, sud konstitutsiyaviy nazorati tashkiliy jihatdan sud hokimiyati tarmog'iga kiradi, biroq unda alohida avtonom maqomni egallaydi¹⁴.

N.V. Vitruk: “Konstitutsiyaviy sud odil sudlovni amalga oshiradi, sud hokimiyati organi hisoblanadi, davlat hokimiyatining sud tizimida alohida rol egallaydi, bu boshqa turdagi sudlarning unga iyerarxik bo'ysunishi bilan emas, balki qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan faoliyatga xos bo'lgan vakolati bilan belgilanadi”¹⁵, – deb ta'kidlagan. Mazkur

¹⁴ О.В.Брежнев. Федеральный судебный конституционный контроль в России. М. Московский университет. 2006. С. 273. [O.V.Brejnev. Federal judicial constitutional control in Russia]. Moscow: Moscow University Press, 2006. P. 273

¹⁵ Витрук Н. В. Конституционное правосудие. М. Право и закон. 1998. С. 85. [N.V.Vitruk. Constitutional justice]. М.: Law and rights; Ed. united “UNITY”, 1998. P. 85.

fikrdan kelib chiqib qayd etish joizki, Konstitutsiyaviy sud davlat hokimiyati tizimida vakolatlari hamda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchiga ta'sir ko'rsatishi jihatidan boshqa sudlar tizimidan farq qiladi. Bu yerda olim qonun ijodkorligi faoliyatiga ta'sir sifatida konstitutsiyaga zid normalarni bekor qilish vakolati yuzasidan yondashgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi doimiy faoliyat yurituvchi sud hokimiyati organidir.

Ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaviy sud sud hokimiyati organi tartibiga kirsa-da, siyosiy hokimiyatga aloqadorligini ham inkor etib bo'lmaydi. Xususan, bu borada J.I. Ovsepyan Konstitutsiyaviy sudning sud organi sifatidagi xususiyatlarini quyidagicha qayd etadi: "Sud konstitutsiyaviy nazorati hokimiyatning konstitutsiyaviy tuzilishida mahalliyashtirish usullaridan qat'i nazar, sud hokimiyati mexanizmining tarkibiy qismi ekanligiga shubha yo'q. Ammo uni an'anaviy sud funksiyalari bilan to'liq bog'lab bo'lmaydi, chunki u bir vaqtning o'zida yurisdiksiya shaklida amalga oshiriladigan siyosiy faoliyatdir¹⁶".

Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati tizimidagi rolini tahlil qilishda uning funksional hamda institutsional vakolatlaridan kelib chiqish kerak.

Bu borada Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining so-biq sudyasi, davlat arbobi B.S. Ebzeyevning fikrlariga qo'shilish mumkin: "Konstitutsiyaviy sud qaysidir ma'noda federal hokimiyat organlaridan yuqori bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy xususiyatlarini institutsional va funksional nuqtayi nazardan ajratib ko'rsatish taklif etiladi. Birinchi holatda, u davlat hokimiyatining federal organlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi, oliy federal hokimiyat organlari bilan bir qatorda davlat hokimiyatini mustaqil ravishda amalga oshiradi,

¹⁶ Овсепян Ж.И. Судебный конституционный контроль в Российской Федерации: проблемы деполитизации (сравнительный анализ) // Государство и право. 1996. - № 1. - С. 32-42. (J.I.Ovsepyan. Judicial legal control in the Russian Federation: problems of depoligizacin (comparative analysis)) [Text]: State and law. - M.; "Science" International Academic Publishing Company / No. Gerperiodikha 1996. No. I. P. 32-42.

ikkinchi holatda sud organi sifatida o'z faoliyatini konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi orqali amalga oshiradi¹⁷.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sud davlat hokimiyati tuzilmasida sud hokimiyatining tarkibiy qismiga kiradi va unda alohida, avtonom mavqega ega. U Konstitutsiyaning ustuvorligini va konstitutsiya va qonunlarni talqinini ta'minlash bo'yicha alohida vazifa yuklangan oliy organdir. Shu ma'noda ushbu sud sud hokimiyati iyerarxiyasida har doim nisbatan ustunlikka ega.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud davlat organi belgilariga ega bo'lib, Konstitutsiyaviy sudning sud davlat organi sifatidagi xususiyatlari: birinchidan, Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy-huquqiy nizolarni hal qiladi, konstitutsiya va qonun normalari ziddiyatli tarzda qo'llanishiga olib kelgan noaniqliklar mavjud bo'lgan hollarda sharhlash orqali nizolarni hal qiladi; ikkinchidan, Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaning ustunligini hamda uni to'g'ridan to'g'ri amal qilishini ta'minlaydi, uchinchidan, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi, ish yuritishning o'ziga xos tartib-taomilga egaligi va h.k.

Adabiyotlarda Konstitutsiyaviy sudlarning funksiyalari bir necha mezonlarga ko'ra tavsiflanib, siyosiy, muhofaza qiluvchi, yo'naltiruvchi, integrativ, normativ tartibga soluvchi, dinamik hamda huquq va rasmiy doktrinalarda huquqdagi bo'shliqlarni bartaraf etish funksiyalari qayd etiladi¹⁸.

¹⁷ Гадельшина Л. И., Гарифуллина А. Р. Правовые основы взаимодействия Конституционного Суда Российской Федерации с органами государственной власти Российской Федерации. Российский судья. 2017. No. 5. [Gadelshina L. I., Garifullina A. R. Legal bases of interaction of the Constitutional Court of the Russian Federation with state authorities of the Russian Federation] // Russian judge. 2017. No. 5.

¹⁸ Бондарь Н.С. Судебный конституционализм в России в свете конституционного правосудия. М.: Norma. 2011, с. 225 [N.S.Bondar. Judicial constitutionalism in Russia in the light of constitutional justice]. М.: Norma. 2011, p. 225; Анненкова В.Г. Конституционные основы единства правового пространства Российской Федерации // Государственная власть и местное самоуправление. 2004. № 6. p. 4 [Constitutional foundations of the unity of the legal space of the Russian Federation // State power and local self-government] 2004. № 6. p. 4; Гошуляк В.В., Ховрина Л.Е., Геворкян Т.И. Конституционное правосудие в субъектах Российской Федерации. М., 2006. с. 191 [Goshulyak V.V., Khovrina L.E., Gevorkyan T.I. Constitutional justice in the subjects of the Russian Federation] М., 2006. p. 191; Анишина В.И., Шумаков А.С. Запрос суда в системе мер защиты конституционных прав граждан // Конституционное и муниципальное право.-2008.-№ 8.-С. 22. [Request of the court in the system of measures to protect the constitutional rights of citizens] // Constitutional and municipal law. 2008. No. 8. p. 22.

O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sudning vakolatlaridan kelib chiqib, muhofaza qiluvchi, siyosiy, integrativ, tartibga soluvchi, sharhlovchi, qonunchilik jarayonidagi ishtiroki kabi funksiyalarni qayd etish mumkin.

Konstitutsiyaviy nazorat organining funksiyalari har bir davlatning o'z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Biroq har qanday konstitutsiyaviy nazorat organining asosiy, birlamchi funksiyasi konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati tizimida amalga oshiradigan vakolatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *muhofaza qilish funksiyasi* – Konstitutsiyaviy sud o'z faoliyatini amalga oshirish orqali mamlakat Konstitutsiyasining barqarorligi hamda konstitutsiyaviy qadriyatlarini muhofaza qiladi. Mazkur funksiya orqali normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida konstitutsiyaning haqiqiy ustunligi ta'minlanadi. Inson va fuqarolarning huquqlari amalda ta'minlanadi.

2) *siyosiy funksiya* – Konstitutsiyaviy sud-huquq masalalarini hal qilish bilan birga siyosat masalalarini ham hal qiladi va siyosiy jarayonni muvozanatlashda ishtirok etadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasi).

3) *integrativ funksiya* – milliy huquq tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan, sud va huquqni qo'llash amaliyotining uyg'unligini ta'minlaydi. Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, konstitutsiya va qonun ustunligi, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash jarayonida yagona huquqiy yakdillikni ta'minlaydi. Ya'ni ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, sud amaliyoti birligi, yakdilligi asosiy normalarga rioya qilish, qonunlarning barcha davlat organlari va sudlar tomonidan ijro etilishi ma'nosida bir xildir. Yagona uyg'unlik Konstitutsiyaviy sud tomonidan konstitutsiya qoidalarini yagona talqin qilish orqali o'z qarorlarida huquqiy pozitsiyasini ifodalash orqali amalga oshiriladi. Zero, huquqni qo'llash amaliyoti birligi – barcha sudlar tomonidan federal konstitutsiyaviy nazorat organining huquqiy pozitsiyalarini konstitutsiyaviy tushunishdir¹⁹.

¹⁹ Митюков М.А. Как исполняются решения Конституционного суда Российской Федерации и конституционных (уставных) судов субъектов Федерации // Журнал российского права. 2001. № 7. С. 3.

4) *qonunchilik jarayonidagi ishtiroki funksiyasi*²⁰ – Konstitutsiyaviy sud nafaqat qonunchilik tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini dastlabki nazorat tartibida tekshirib, ekspertlik xulosasini beradi;

5) *Konstitutsiya normalarini rasmiy sharhlash funksiyasi* – Konstitutsiyaviy sud qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalarini rasmiy sharhlash ularda normalarning amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanishiga olib kelgan noaniqliklar topilgan taqdirda amalga oshiradi.

6) *tartibga solish funksiyasi* – bu ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy doirada tartibga solish zaruratida ifodalanadi.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish tizimidagi funksional roli uning tartibga solish va inson huquqlarining himoya qilish funksiyalarida namoyon bo'ladi. Tartibga solish funksiyasini amalga oshirish doirasida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga izoh beradi, qonunlarning konstitutsiyaviy va huquqiy ma'nosini aniqlaydi va tarmoq qonunchiligini konstitutsiyaviylashtiradi²¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyani rasmiy sharhlaydi hamda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirib, o'z qarori bilan normativ-huquqiy hujjatning amal qilishini to'xtatib turishi va tugatishi mumkin. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 45-moddasiga muvofiq Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi quyidagi hollarda o'zining amal qilishini tugatadi: normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qaysi muddat

²⁰ Xorijiy olimlar tomonidan konstitutsiyaviy sudning pozitiv va negativ qonunchilik funksiyasi mavjudligi keng muhokama qilinadi. Pozitiv qonunchilik bu konstitutsiyaviy sudlarning konstitutsiyaga muvofiqlik to'g'risida ishlarni ko'rish jarayonida bo'lsa, negativ qonunchilik konstitutsiyaga zid bo'lgan qarorlarni bekor qilish huquqida namoyon bo'ladi deb ta'riflanadi. Favoreu, Conseil constitutionnel: mythes et réalités, Favoreu, la politique saisie. 37; A.Stone sweet, where judicial politics are legislative politics: the french constitutional council, 15 w. eur. pol. 29 (1992).

²¹ Е.В.Герасимова. Роль Конституционного Суда Российской Федерации в системе судебной защиты прав и свобод человека и гражданина. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Санкт-Петербург. 2011. С.5.

yoki hodisa yuz berishi uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha muddat tugaganida yoki hodisa yuz berganida; normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas yoxud haqiqiy emas deb topilganda; normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o'z kuchini yo'qotgan deb topilganda; normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi bekor qilinganda²². Mazkur norma mazmunidan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas yoxud haqiqiy emas deb topish orqali hamda konstitutsiyani sharhlash orqali huquqiy tartibga solishda faol ishtirok etadi. Konstitutsiyaviy sud nafaqat konstitutsiyaga nomuvofiqlikni aniqlaydi, balki o'zining ham tegishli variantini ham taklif etadi (qonunchilik tashabbusi orqali).

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari barcha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Huquqshunos olim S.S. Alekseyev qayd etganidek: sud amaliyoti huquqiy tizimning elementlariga tegishli bo'lib, uni aniq qonunni tartibga soluvchi element deb hisoblash mumkin²³.

Konstitutsiyaviy sudning funksiyasi davlatning oliy qonuni – Konstitutsiya bilan bevosita Konstitutsiyaviy sudga yuklangan. Ushbu sud davlat hokimiyati oliy organi sifatida o'zining ko'p sonli funksiyalarini bajarib, demokratik tuzumning zarur elementi, davlat hokimiyatining o'zini o'zi tiyib turish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash vositasidir.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining rivojlanishi tendensiyalari

Konstitutsiyaviy sud faoliyatini huquqiy asoslarini shakllanishini tadqiq etish, eng avvalo, konstitutsiyaviy sudlov organini tashkil etilishi va shakllanishini nazariy-huquqiy jihatdan o'rganishni taqozo qiladi.

²² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021 й., 03/21/682/0354-сон; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022 й., 03/22/756/0180-сон

²³ Алексеев С.С. Общая теория права. Курс в 1-х томах. М.: Юрид. лит., М. 1981. - 354 с.

Yurtimizda konstitutsiyaviy sudlov huquqiy asoslarini shakllanishi tarixiy, konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tahlili konstitutsiyaviy sudlovni rivojlanishini to'liq tavsif etgan holda, shartli ravishda, to'rt bosqichga bo'lib, o'rganish mumkinligi qayd etiladi.

Birinchi bosqich 1990-1995-yillar, 1995-2017 ikkinchi bosqich, 2017-2021-yil uchinchi bosqich hamda 2023-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr to'rtinchi bosqichlardan iborat.

Dunyoda konstitutsiyaviy nazoratni keng tarqalishiga va boshqa davlatlar tomonidan bu nazorat turini qabul qilinishiga olimlar tomonidan turli yondashuvlar bildiriladi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlikni ta'minlash hamda "o'zaro tiyib turish" poydevorini yaratish, qonuniylikni ta'minlash maqsadida konstitutsiyaviy nazorat organi tashkil etilgan deb xulosa qilish mumkin.

A.Z. Muxamedjanovning fikricha, postsovet mamlakatlarida bo'lgani singari O'zbekistonda ham konstitutsiyaviy nazoratning markazlashgan – Yevropa modeli qabul qilindi hamda konstitutsiyaviy nazorat organi tashkil etildi. Konstitutsiyaviy nazoratning Yevropa modelini tanlashga bir qator omillar sabab bo'lgan edi²⁴.

Birinchidan, XX asrning oxiridagi o'zgarishlar va islohotlar davrida barcha hokimiyat tarmoqlarining roli va hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirish zaruriyatining o'sishi. Ikkinchidan, Sobiq SSSRda qonunga asoslangan yangi davlatchilikni shakllantirish uchun ijtimoiy rivojlanish dinamikasini, siyosiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlash va milliy huquqiy tizimlarni shakllantirish sa'y harakatlarni birlashtirishni talab qildi. Uchinchidan, konstitutsiyaviy vakolatlariga ega bo'lgan maxsus konstitutsiyaviy nazorat organining (Konstitutsiyaviy sud) tashkil etilishi uning konstitutsiya "qo'riqchisi" sifatidagi rolini belgilab berdi.

Dastlab 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida O'zbekistonda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va

²⁴ O.Z. Mukhamedzhanov. Constitutional Justice in the Republic of Uzbekistan. Constitutional Courts in Post-Soviet States. between the model of a state of law and its local application (No. 2016/23/B/HS5/03648). The chief of the project: Jacek Zalesny. Peter Lang GmbH. Volume 25. 2019. P.519.

erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining 1990-yil 20-iyundagi "O'zbekiston SSRda Konstitutsion nazorat to'g'risida"gi Qonunida mamlakat tarixida birinchi bor konstitutsiyaviy nazorat organi va uning maqsadi yoritib berildi²⁵. Konstitutsiyaviy nazoratning (nazoratning) alohida elementlari ilgari mavjud bo'lgan, ammo konstitutsiyaviy nazorat (nazorat) organlari zamonaviy ma'noda SSSR parchalanganidan keyin aniq shakllana boshladi. Taxmin qilish mumkinki, bu tendensiya mustaqil mamlakatlarning paydo bo'lishi, konstitutsiyaning ustunligi va davlatlarning mustaqilligini ta'minlash zarurati bilan bog'liq²⁶.

"O'zbekiston SSRda Konstitutsion nazorat to'g'risida"gi Qonunida O'zbekistonda konstitutsion nazoratning maqsadlari davlat organlari va jamoat tashkilotlari hujjatlarining O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'istonda esa Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasiga mos bo'lishini ta'minlash, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, O'zbekiston xalqlarining huquqlarini muhofaza qilish ekanligi, O'zbekistonda konstitutsion nazoratni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti, Qoraqalpog'istonda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti amalga oshirishi nazarda tutildi. Shuningdek qonunda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishning asosiy prinsiplari belgilangan. Qonuniylik, kollegiallik va ochiqlik mazkur organ faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida belgilangan. Shuningdek 31 ta moddadan iborat mazkur qonunda, umumiy qoidalar, konstitutsion nazorat komitetining hay'ati, uni saylash va faoliyat tartibi, vakolatlari, komitetga saylangan shaxslarning huquqiy holati, komitetni tashkil etish masalalari mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy nazorat organining ta'xis etilishi yuzasidan A.X.Saidov quyidagilarni qayd etadi: "Konstitutsiyaviy mustaqillik yo'lidagi uchinchi huquqiy qadam - Konstitutsiyaviy nazorat

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1990 й., 16-18-сон, 289-модда; 1991 й., 11-сон, 273-модда; 1993 й., 5-сон, 205-модда.

²⁶ К.А.Слесарова. Конституционная юстиция в государствах – членах содружества независимых государств (сравнительно-правовое исследование). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Тюмен. 2016. С.20.

komissiyasining tashkil etilishidir. Prezidentlik institutini joriy etish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sessiyada tasdiqlangan Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga doir qonun loyihasida Konstitutsion nazorat komitetining tuzilishi ham nazarda tutilgan edi. Bunda deputatlar tomonidan ushbu oliy davlat organining Prezidentlik hokimiyatini muvozanatga keltirib turuvchi o'ziga xos huquqiy vosita vazifasini bajarishiga alohida urg'u berildi. Shu tariqa bugun amalda bo'lgan yana bir konstitutsiyaviy institut – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga istiqlool arafasidayoq asos solindi²⁷".

Konstitutsion nazorat komiteti O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti muhokamasiga kiritilgan qonunlarning va boshqa hujjatlarning loyihalari; Oliy Sovet tomonidan qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlar; Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasining O'zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini o'rganib chiqishi ko'zda tutilgan edi.

Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Konstitutsion nazorat komitetining qonunchilik tashabbusi hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi qoidalariga rioya etilishiga tegishli qonun hujjatlarining yo'qligi to'sqinlik qilayotganini aniqlasa, shuningdek, boshqa hollarda u O'zbekiston Oliy Sovetiga ana shunday hujjatni tayyorlash va qabul qilish zarurligi to'g'risida taqdimnoma kiritish singari vakolatlari mustahkamlangan edi.

O'zbekiston Prezidentining farmonlari; O'zbekiston Oliy Soveti raisining qarorlari va farmoyishlari; Qoraqalpog'iston qonunlari; O'zbekiston Ministrlar Sovetining qarorlari va farmoyishlari; O'zbekistonning ratifikatsiya qilish yoki tasdiqlash uchun taqdim etilgan xalqaro shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlari; O'zbekiston Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlari; O'zbekiston Bosh davlat hakamining normativ tusdagi hujjatlari, shuningdek, boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq prokuror tomonidan nazorat qilinmaydigan normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq yoki muvofiq emasligini nazorat qilish ham Konstitutsion nazorat komiteti vakolatlari sifatida qayd etildi.

²⁷ <https://archive.qalampir.uz/news/akmal-saidov-%E2%80%9C9Cislom-karimov-konstitutsiyani-etti-marta-taxrir-qilgan%E2%80%9D-5759>

Shuningdek qonunda O'zbekiston Konstitutsion nazorat komitetining nazorat qilish vazifalari sudlarning hukmi va boshqa qarorlariga, tergov, prokuratura, davlat hakamligi organlarining grajdanlik, jinoiy, ma'muriy ishlariga doir qarorlariga taalluqli emasligi belgilab qo'yildi.

"O'zbekiston SSRda Konstitutsion nazorat to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida ko'zda tutilgan Konstitutsion nazorat komiteti tarkibini yangilab turish prinsipini amalga oshirish maqsadida komitetning raisi komitetning birinchi hay'ati saylanishi bilanoq besh yildan so'ng komitetning vakolat muddati tugaydigan 5 nafar a'zosini qur'a tashlash yo'li bilan aniqlashi belgilab qo'yildi. Shundan keyingi saylovlarda komitetning har bir a'zosi o'n yil muddatga saylanadigan bo'ldi.

O'shanda O'zbekiston Oliy Soveti tomonidan O'zbekiston Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi, raisi o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilini qo'shib hisoblaganda to'qqiz a'zodan iborat tarkibda saylandi²⁸.

Ta'kidlash joizki, mazkur bosqichda konstitutsiyani muhofaza qiluvchi organning faoliyatini samarali deb baholash qiyin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining xulosasi barcha hollarda bu xulosa qaysi hujjat xususida chiqarilgan bo'lsa, shu hujjatni qabul qilgan organga yuborilishi belgilangan edi. ("O'zbekiston Respublikasida Konstitutsion nazorat to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi) Aynan shu organlarga Konstitutsiyaviy nazorat komiteti tomonidan konstitutsiyaga nomuvofiq deb topilgan holatlarni bartaraf etish yuklatilgan edi.

Ikkinchi bosqich (1995-yildan 2017-yilga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi). Oliy Kengashning 1993-yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunini amalga kiritish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq yuqorida qayd etilgan 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan qonun o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblandi.

1992-yil 8-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi

²⁸ Фафуров А.Б. Ўзбекистон Республикасида конституциявий назорат институтининг ривожланиши. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси ахборотномаси – 2017. Махсус сон. – Б.11.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi Qonun qabul qilinib, Konstitutsiyaviy sud saylangunga qadar o‘z vakolatlari-ni saqlab qolishi belgilangan edi.

1995-yilda Konstitutsiyaviy sud va sudyalarning huquqiy holati, konstitutsiyaviy ishlarni ko‘rib chiqish asoslarini belgilab beruvchi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida²⁹” gi alohida qonun qabul qilindi.

Konstitutsiyaviy sud tashkil etilmasdan uning vakolatlari Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasiga yuklandi, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Chunki O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq Konstitutsiyaviy sudning Oliy Majlis tomonidan saylanishi belgilab qo‘yilgan edi.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlis saylovi esa 1994-yilning dekabrda o‘tkazildi. Boshqacha aytganda, 1993-yilning mayida Konstitutsiyaviy sudni saylashi lozim bo‘lgan Oliy Majlisning o‘zi shakllanmagan edi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy sudning vakolatlarini vaqtincha amalga oshirish Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasiga yuklangan edi.³⁰

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida³¹” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining reglamenti³² va yuqorida qayd etilgan hujjatda Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari sifatida quyidagilar belgilangan edi:

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palata qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 9, 178-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 9–10, 149-модда.

³⁰ Б.Мирбабаев. Ўзбекистонда Конституциявий назорат: унинг амалга оширилиши тарихи // <http://huquqburch.uz/uz/article/4745/>

³¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 22-сон, 407-модда, 37-сон, 978-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 18.03.2020 й., 03/20/612/0326-сон.

³² Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг регламенти <http://www.ksu.uz/uz/page/index/id/9>

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun normalariga sharh beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko‘rib chiqadi.

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radigan sud hokimiyati organi hisoblanishi qayd etilgan edi.

Dastlab Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlis tomonidan saylanishi belgilangan edi. 2003-yildagi konstitutsiyaviy islohot³³, 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan referendum natijalari bo‘yicha bir palatali parlamentning ikki palatali parlamentga o‘zgartirilishi natijasida Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan sud Raisi, o‘rinbosari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo‘shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a‘zosidan iborat tarkibda saylanishi, Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanishi, Oliy Majlis Senati a‘zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanishi masalalari ko‘zda tutilgan edi.

Faoliyati davomida o‘zgarishsiz qolgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tuzilishining o‘ziga xos xususiyati – Konstitutsiyada (132-moddaning 2-qismi) nazarda tutilgan sudyalardan biri Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakili etib saylanishi kerakligi to‘g‘risidagi talabdir³⁴. Qayd etish joizki, Qoraqalpog‘iston

³³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 3-4-сон, 27-модда.

³⁴ Брежнев О.В. Развитие института конституционного правосудия в Республике Узбекистан: проблемы теории и практики. Вестник Томского государственного университета. 2020. № 451. С. 185-195.

Respublikasi Konstitutsiyasining 111-112-moddalariga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tizimiga ushbu respublika qonunchiligiga muvofiq faoliyat yurituvchi Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi ham kiradi³⁵.

Mazkur bosqichda Konstitutsiyaviy sudning faoliyati mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalariga javob bermas edi, shuningdek, faoliyatining huquqiy asoslarini ham yanada takomillashtirishni taqozo etar edi. Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilgan qarorlar asosan soliq, mehnat munosabatlari, tadbirkorlik faoliyati, litsenziyalash, ijtimoiy sug‘urta, chet el investitsiyalari, advokatlik faoliyati, Konstitutsiyaviy sud vakolatlari va fuqarolikni yo‘qotish masalalari bo‘yicha bo‘lib, bevosita fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish yuzasidan deyarli qaror qabul qilinmagan.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan sud-huquq sohasini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirishga oid vazifalar, shuningdek davlat hokimiyati tizimini izchillik bilan takomillashtirish va mazkur hokimiyatni muntazam o‘zgarayotgan ijtimoiy munosabatlar bilan uyg‘unlashib borishi Konstitutsiyaviy sudning rivojlanish tarixini **uchinchi bosqichini** boshlab berdi.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar mustaqillikning dastlabki yillari-danoq kun tartibidan o‘rin oldi, zero har qanday demokratik davlatda sud tizimi inson huquqlari himoyasiga qaratilgan mexanizmning asosini tashkil etadi. Shuning uchun Harakatlar strategiyasida o‘z ifodasini topgan sud-huquq islohotlarini dastlabki islohotlarning mantiqiy davomi deyish mumkin³⁶. Zotan, “Yangi O‘zbekiston sharoitida konstitutsiyaviy nazorat institutini kuchaytirish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiluvchi masalalar, o‘z yechimini kutayotgan muammolar yig‘ilib qolgan edi³⁷”.

³⁵ Қорақалпоғистон Республикаси Конституцияси <http://karakalpakstan.uz/uz/page/show/27>

³⁶ Маликова Г. Фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини таъминлаш. // Жамият ва бошқарув №3 2017. – Б 23.

³⁷ М.Абдусаломов. Конституция устунлигини таъминлашда конституциявий суднинг ўрни. Қонунчилик муаммолари ахборотномаси. – Б. 6.

2017-yilning 1-iyunida e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" (80, 93, 108 va 109-moddalariga)gi va "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunlar Konstitutsiyaviy sud faoliyatining samaradorligini va nufuzini oshirishga, mustaqilligini mustahkamlashga, vakolatlarini kengaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar konstitutsiyaviy qonunlarining, xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining dastlabki nazorat tartibida tekshirishi mumkinligi mustahkamlandi.

Mazkur bosqichda Konstitutsiyaviy sud sudyalari nisbatan minimal yosh chegarasi 35 yosh va yuqori yosh chegarasi 70 yosh belgilab qo'yildi.

Shuningdek, avval sudyalar Prezidentning taqdimiga binoan Senat tomonidan sud raisi, rais o'rinbosari va Konstitutsiyaviy sudning a'zolaridan iborat tarkibda saylangan bo'lsalar, mazkur bosqichda Konstitutsiyaviy sud Prezidentning taqdimiga binoan Senat tomonidan Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan shaxslar orasidan saylanishi hamda Konstitutsiyaviy sud raisi va uning o'rinbosari Konstitutsiyaviy sud majlisida uning sudyalari orasidan saylanishi tartibi belgilandi.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan Oliy sudning muayyan ishda qo'llanishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi murojaatini ko'rib chiqishi mazmunidagi o'zgartishning kiritildi.

Mazkur bosqichda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda hal etilishi lozim bo'lgan yana bir qator dolzarb vazifalar hamda huquqiy jihatdan tartibga solishni taqozo qiladigan masalalar mavjud edi. Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega subyektlar doirasini kengaytirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan bog'liq masalalarni hal qilish dolzarb vazifalar hisoblanar edi. Shu bilan birga, sud faoliyatida yaqqol turg'unlik davri kuzatilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida³⁸” gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda konstitutsiyaviy sudlov taraqqiyotidagi to‘rtinchi muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur qonun orqali fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi ustidan shikoyatlar bo‘yicha muayyan ishda qo‘llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risidagi ishlarni yuritish – konstitutsiyaviy shikoyat instituti kiritildi. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolat muddati birinchi marta saylanganida besh yilni, navbatdagi saylanganida o‘n yilni tashkil etishiga oid normalar belgilandi. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qiluvchi subyektlar doirasi ham kengaytirildi.

Mazkur bosqichda qonun bilan bir qator o‘zgartirishlar kiritilishi ko‘zda tutilgan bo‘lishiga qaramay, konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshirishdagi ayrim protsessual masalalar, shu bilan birga konstitutsiyaviy shikoyatlar bo‘yicha muayyan ishda qo‘llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning aniq mexanizmi to‘liq yoritilmagan.

To‘rtinchi bosqich. Konstitutsiyaviy islohotlar orqali 2023-yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi natijasida Konstitutsiyaviy sud faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari takomillashtirildi.

Ayniqsa, Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish bilan bog‘liq islohotlar amalga oshirildi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo‘lmaydi. Avvalgi tartibga ko‘ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil belgilangan edi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy shikoyat instituti Konstitutsiyada huquqiy asosga ega bo‘ldi.

Biroq mazkur jarayonlar Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirishni, sud ish yurituvini bilan bog‘liq masalalarni aniq va to‘g‘ri belgilashni, sudyalarning va ular faoliyatini amalga oshirishga yetarli kafolatlar berishni to‘liq qamrab olmagan edi.

Bugungi kunga qadar bo‘lgan konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi o‘zgartirishlarni qaraydigan bo‘lsak, konstitutsiyaviy shikoyat instituti va dastlabki nazoratdan boshqa o‘zgartirish va

³⁸ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.04.2021 й., 03/21/687/0380-сон.

qo'shimchalar juz'iy xarakterga ega bo'lib, asosan, sud faoliyatini takomillashtirish, inson huquqlarini samarali ta'minlashi uchun muhim yangiliklarni nazarda tutmagan. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi, konstitutsiyaviy sud hujjatlarining yuridik kuchi, fuqaro huquqlarini himoya qilishning maqbul vositalari xususida islohotlar amalga oshirish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz "... mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun biz hayotimizning barcha jabhalarida konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirishimiz zarur³⁹", – deb alohida ta'kidlagani bejiz emas.

³⁹ Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2019 йил, 8 декабрь.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMINING YURIDIK TAHLILI

2.1. Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish tartibi, tuzilishi va uning mustaqilligi

Qonun ustuvorligiga asoslangan har qanday tizimning zamirida odil sudlovni amalga oshirish doirasida inson huquqlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan vakolatlar, moliyaviy resurslar, moddiy va boshqa ko‘nikmalar bilan jihozlangan kuchli sud tizimi mavjud. Demokratik va huquqiy davlatda mustaqillik sud tushunchasining ajralmas qismidir: qonun chiqaruvchi yoki ijro etuvchi hokimiyatga qaram bo‘lgan sud umuman sud hisoblanishi mumkin emas. Shu bois, birinchi navbatda, qonun ustuvorligining ikkita asosiy xarakterli tamoyili: davlat hokimiyati faoliyati samarali ishlashida hokimiyatlar bo‘linishi va sud hokimiyatining mustaqilligi muhimdir. Bular bevosita O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligini belgilovchi mezonlardan biri uni shakllantirish jarayonidir.

Dunyoda konstitutsiyaviy sudlar tarkibini shakllantirish bo‘yicha uchta asosiy model mavjud:

- sudyalarni bevosita tayinlash;
- tegishli ravishda ularni saylash;
- aralash tizim.

Bir qator davlatlarda Konstitutsiyaviy sud sudyalari **Prezident (davlat boshlig‘i)** tomonidan tayinlanadi. Xususan, Albaniyada sudyalar Prezident tomonidan Assambleyaning roziligi bilan tayinlanadi; Avstriyada boshqa konstitutsiyaviy organlar tomonidan berilgan tavsiyalar bilan, xususan, Prezident, Vitse-Prezident, olti a‘zo va uchta muqobil xodim tayinlash to‘g‘risidagi takliflar – Federal hukumatga yuboriladi; yana uchta a‘zo va ikkita o‘rinbosar Milliy kengash tavsiyasiga binoan tayinlanadi; qolgan uchta a‘zo Federal kengash taklifiga binoan tayinlanadi; Maltada Konstitutsiyaviy sud sudyalari Bosh vazir taklifiga binoan Prezident tomonidan

tayinlanadi. Ispaniya Konstitutsiyaviy tribunalining o'n ikkita yordamchisi qirol tomonidan to'rtta konstitutsiyaviy organning taklifiga binoan tayinlanadi, xususan, parlament sakkizta sudyani tayinlaydi, ulardan to'rttasi – Deputatlar kongressi va qolgan to'rttasi – Senat tomonidan; ikkita sudya hukumat, qolgan ikkita sudya esa Bosh kengash tomonidan tayinlanadi.

Ayrim davlatlarda Konstitutsiyaviy sudyalarni tayinlash **parlament tomonidan** amalga oshiriladi: Germaniyada Konstitutsiyaviy sud har biri sakkiz sudyadan iborat ikkita palatadan iborat; bir palata sudyalarining yarmi Bundestag tomonidan, ikkinchi yarmi esa Bundesrat tomonidan, ya'ni xalq vakillik assambleyasi va shtatlar vakillari tomonidan saylanadi; Latviyada Konstitutsiyaviy sud sudyalarining uchtasi parlamentning kamida o'nta deputati, ikki sudya Vazirlar Mahkamasi, ikki sudya Oliy sud takliflari asosida tasdiqlanadi.

Parlament va prezident tomonidan tayinlash: Fransiyada konstitutsiyaviy sudning bir a'zosi Prezident, ikkinchisi Milliy Assambleya raisi, uchinchi Senat raisi tomonidan tayinlanadi. Ruminiyada Konstitutsiyaviy sud to'qqizta sudyadan iborat bo'lib, ulardan uchtasi Senat raisi, uchtasi Ruminiya deputatlar palatasi va uchtasi Prezident tomonidan tayinlanadi.

Parlament, prezident, sudlar tomonidan tayinlov: Italiya Konstitutsiyaviy sudi o'n besh sudyadan iborat bo'lib, ulardan besh nafari parlament tomonidan, besh nafari oliy sudlar tomonidan saylanadi, besh nafari esa Prezident tomonidan tayinlanadi; sudyalikka tayinlanganlar kassatsiya sudi (beshtadan uchtasini tayinlash uchun mas'ul), Davlat kengashi va Auditorlar sudi (bitta sudyani tayinlashi mumkin) tomonidan tayinlanadi.

Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud a'zolari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan Sudyalar oliy kengashi tavsiya etgan mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanishi belgilangan.

Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash ularning vakolat muddatiga bevosita bog'liqdir. Chunki sudyalarning vakolat muddati ularning almashishiga, sud ishlarini yuritish barqarorligiga,

xolisligiga ta'sir qiladi. Barqarorlik esa odil sudlovni amalga oshirishda sudyalarning ichki va tashqi har qanday ta'sirdan xoli bo'lishini anglatadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari qayta saylanish huquqsiz o'n yil muddatga saylanishi xorijiy mamlakatlarda e'tirof etilgan standartlardan biri hisoblanadi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun bir marta o'n yilga saylanishi oqilona muddat hisoblanadi. Yevropa Kengashining Huquq orqali demokratiya uchun Venetsiya komissiyasining "Konstitutsiyaviy sudlar tarkibi" standartiga muvofiq, qayta saylanish imkonisiz uzoq muddatli vakolat jahon tajribasida eng maqbul deb e'tirof etilgan. Xorijiy tajriba tahlili Italiya, Portugaliya, Litva, Marokash, Shimoliy Makedoniya, Polsha kabi mamlakatlar Konstitutsiyaviy sud sudyalari bir marta, qayta saylanish huquqsiz saylanishini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, dunyoda Konstitutsiyaviy sud raislarini saylash yoki tayinlashning ikkita modeli mavjud:

Ichki saylovlar orqali shakllantirish; Gruziya, Vengriya, Islandiya, Italiya, Latviya, Portugaliya, Ruminiya, Rossiya, Sloveniya.

Boshqa organlar tomonidan shakllantirish: Germaniya, Ozarbayjon, Litvada parlament orqali, Avstriya, Yaponiya, Chexiyada davlat boshlig'i tomonidan shakllantiriladi. Sudyalarni qayta saylash imkoniyati ularning mustaqilligiga putur yetkazadi. Ushbu xavfning oldini olish uchun pensiyaga qadar uzoq muddat yoki umrbdob tayinlanishni ta'minlash kerak⁴⁰.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi o'z tarkibidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining raisini va uning o'rinbosarini besh yillik muddatga saylash taklif etilgan.

Odil sudlovning mustaqilligi, eng avvalo, hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan tashkiliy jihatdan ajratilgan sud hokimiyatining mavjudligi bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasida sudyalar mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo'ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir

⁴⁰[https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-STD\(1997\)020-rus](https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-STD(1997)020-rus)

tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi kabi muhim normalar mustahkamlab qo‘yilgan. Sud hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sud o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, Konstitutsiyaviy sud sudyalarining mustaqilligi prinsipini amalga oshirish konstitutsiyaviy sudlov organlarini tayinlash, ularning vakolatlari va davlat hokimiyati organlari tizimidagi o‘rni bilan belgilanadigan xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Huquqshunos olim E.P. Jurba nuqtayi nazariga ko‘ra, sudyalar mustaqilligining zamonaviy konsepsiyasi bir-birini to‘ldiradigan uchta yo‘nalishda rivojlanmoqda: moddiy-huquqiy, ijtimoiy-huquqiy va huquqni himoya qilish yo‘nalishida⁴¹.

Yevropa konvensiyasining 6-moddasi 1-bandi hamda uning Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi talqiniga muvofiq, sudyalardan nafaqat mustaqil bo‘lish talab etiladi, balki sudyaning “mustaqilligiga shubha tug‘dirmaydigan yetarli kafolatlar berish” majburiyatini ham o‘z ichiga oladi⁴². Polsha Respublikasi Konstitutsiyaviy tribunalining qarorlarida sud mustaqilligiga alohida tavsif berilgan bo‘lib, Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi: 1) jarayon ishtirokchilariga nisbatan xolislik; 2) organlar (suddan tashqari muassasalar) dan mustaqillik; 3) sudyaning hokimiyat va boshqa sud organlari bilan munosabatlaridagi mustaqilligi; 4) siyosiy ta’sirlardan mustaqillik, xususan, siyosiy partiyalar ta’siridan; 5) sudyaning ichki mustaqilligi⁴³

Bu borada huquqshunos olim B. Qosimovning fikrlariga qo‘shilish mumkin: “Insonning huquq va manfaatlari xavf ostida qolishi ehtimoli yuqori bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqadigan sudlarga yuqoriroq darajadagi mustaqillik kerakligi haqidagi nazariyani qo‘llab-quvvatlagan holda konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sudning boshqa sudlardan kam bo‘lmagan,

⁴¹ Журба Е.П. Современные тенденции развития независимости судей. Саратовская государственная академия права, 2008. С. 13.

⁴² Журба Е.П. Современные тенденции развития независимости судей. [Modern trends in the development of the independence of judges] Saratov State Academy of Law, 2008.

⁴³ https://ccu.gov.ua/sites/default/files/ndf/IndependenceJudiciary_PL.pdf

В.И.Анишина. Конституционные принципы как основа самостоятельности судебной власти. [Constitutional principles as the basis for the independence of the judiciary]. Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Law M.2016. P.48.

kerak bo'lsa, yuqori darajadagi mustaqillikka ega bo'lishi zarur⁴⁴".

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qaror qabul qilar ekan, o'zining huquqiy nuqtayi nazarini amaliy maqsadga muvofiqlik mulohazalaridan, siyosiy moyilliklar va boshqa tashqi ta'sirlardan xoli holatda ifodalaydi.

Konstitutsiyaviy sud sudylarining mustaqilligi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati Konstitutsiya va alohida qonun bilan tartibga solinadi, Konstitutsiyaviy sud sudylarining mustaqilligi konstitutsiyaga zid deb topilgan normativ hujjatlarni bekor qilish uchun asos bo'lgan qarorlarining yuridik kuchi, ularning umumiy ahamiyati, qat'iyligi va shikoyat qilishning mumkin emasligi bilan ta'minlanadi. Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish kollegial tarzda amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sud ishlarni ko'rib chiqishda har bir sudya ham, ishni ko'rayotgan butun tarkib ham mustaqil bo'lishi kerak. Bunda sudning mustaqilligi kollegiya tarkibiga kiruvchi sudyalarning mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Konstitutsiyaviy sudning ko'pchilik fikriga qo'shilmagan sudyasi o'zining fikrini yozma shaklda alohida bayon etishga haqli (ayrim davlatlarda alohida fikrlar rasmiy e'lon qilinadi);

uchinchidan, Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z vakolatlari muddati davomida almashtirilmasligi. Ya'ni sudyalarni boshqa sudyalik lavozimiga yoki boshqa sudga o'tkazish faqatgina ularning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin;

to'rtinchidan, Konstitutsiyaviy sud sudylarining immunitet huquqiga egaligi, Konstitutsiyaviy sud sudyasi Konstitutsiyaviy sudning rozilgisiz jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishi, shuningdek, qamoqqa olinishi mumkin emas;

beshinchidan, konstitutsiyaviy sudlov organlari uchun boshqa sudlarga nisbatan siyosiy kuchlardan mustaqillik eng dolzarb

⁴⁴ Б.М. Қосимов. Ўзбекистон ва Америка Қўшма Штатларида суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлаш масалалари: қиёсий-ҳуқуқий таҳлил. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т. 2021. Б. 12.

muammo hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish doirasida ko'pincha siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar hal etilib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning oliy organlari vakillari jarayonda taraf sifatida ishtirok etadilar.

AQSh modelida konstitutsiyaviy nazorat organlari jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashish uchun yangi qonunni samarali ishlab chiqadigan konstitutsiyaviy talqinlarni taqdim etadi.

Kontinental modelda konstitutsiyaviy sudlar konstitutsiyalarni talqin qilishda ko'proq konservativ bo'lishga mo'ljallangan va faol qonun ijodkorligini qo'llashdan cheklanadi. Siyosatchilar bilan kichik mojarolar bo'lsa ham, tez-tez mazmunli konstitutsiyaviy islohotlar uchun jiddiy bosim bo'lishi mumkin. Ikkala modelda ham sud nazorati siyosati juda muhim rol o'ynaydi⁴⁵. O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, Konstitutsiyaviy sud tom ma'noda huquq ijodkorligi bilan shug'ullanmaydi, biroq siyosiy jihatdan ta'sirdan to'la holi deb bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining va sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini nazariy jihatdan uch turga bo'lishimiz mumkin. institutsional, protsessual va ijtimoiy.

Institutsional jihatdan sudyalarni tanlash va tayinlashning demokratik tizimini nazarda tutadi; sudyalarni almashtirib bo'lmashligi, sudyalarning daxlsizligi va ularning faoliyatiga aralashmaslikning konstitutsiyaviy va huquqiy institutlari.

Protsessual kafolatlar asosan sud ishlarini ko'rib chiqishning kollegial shakli, o'z-o'zini rad etish instituti, sudlov normalari, protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan prinsip va boshqa tartib-taomillarni o'z ichiga oladi.

Sudyalarning mustaqilligining ijtimoiy kafolatlari sudyaning yuksak mavqeyiga mos keladigan davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minotini ta'minlashni nazarda tutadi. Mazkur kafolat adabiyotlarda "shaxsiy kafolatlar" sifatida ham keltiriladi. Shaxsiy

⁴⁵ Easterbrook, F. H. (1990) "What's So Special About Judges?" 61 Univ. of Colorado Law Rev. 773. Friedman, B. (2005) "The Politics of Judicial Review," 84 Texas Law Rev. 256. George, T. E., & L. Epstein (1992) "On the Nature of Supreme Court Decisions of Supreme Court Decision

Making," 86 American Political Science Rev. 323. Rev. 773. Friedman, B. (2005) "The Politics of Judicial Review," 84 Texas Law Rev. 256. Rev. 773. Friedman, B. (2005) "The Politics of Judicial Review," 84 Texas Law Rev. 256.

mustaqillik yoki sudyaning huquqiy pozitsiyasiga asoslangan mustaqillik; bu sudlov organlari xodimlarini lavozimga tayinlash va ishdan bo'shatish, haq to'lash, baholash, ko'tarilish, nomuvofiqlik, tayinlash muddati, boshqa joyga o'tkazish va ishdan bo'shatishdan himoya qilish, intizomiy jazo choralari, shikoyatlarni ko'rib chiqish va boshqa elementlar bo'yicha huquqiy pozitsiyasiga kiritilgan kafolatlarga taalluqlidir⁴⁶.

Konstitutsiyaviy sud sudyasi faoliyatining eng muhim prinsiplaridan biri Konstitutsiyaviy sud sudyasini almashtirib bo'lmashligidir. Konstitutsiyaviy sud sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi, qoida tariqasida, yetmish yoshni tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri bu ularning intizomiy javobgarligidir. Biroq bu to'g'risida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunda biror bir masala yoritilmagan. Sudyaning intizomiy javobgarligi O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 11-bobida keltirilgan bo'lib, sudya faqat tegishli sudyalar malaka hay'ati qaroriga binoan intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi keltirilgan.

Biroq Konstitutsiyaviy sud sudyasining sodir etgan harakatlari sudyalik qasamyodini buzish deb hisoblansa, Qonunning 16-moddasiga muvofiq, vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslari aniq keltirilgan bo'lsa-da, ularning intizomiy javobgarligi masalasi asoslari tegishli qonunda to'liq aks ettirilmagan. "Sudlar to'g'risida"gi Qonun tatbiq etiladigan bo'lsa, ogohlantirish; hayfsan; o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima; malaka darajasini bir pog'onaga pasaytirish; vakolatlarini muddatidan ilgari tugatishni qachon va qay tartibda qo'llash masalasi ochiqlanishi lozim.

Xususan, ogohlantirish asoslari, sudya tomonidan intizomiy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish, sudyaning yozma yoki og'zaki tushuntirish berish huquqi, masalani ko'rib chiqish muddati, ovoz berish tartibi va intizomiy jazoni bekor qilish shartlari aniq keltirilishi lozim.

⁴⁶ Verhey L.F.M. De onafhankelijkheid van de rechter naar Nederlands recht, preadvies voor de Vereniging voor de vergelijkende studie van het recht van België en Nederland, Deventer: Kluwer, 2001, p. 19-76.

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonunda konstitutsiyaviy sudlovning mustaqilligining Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan kafolatlari sifatida konstitutsiyaviy sudni shakllantirish va uning faoliyati, saylash (tayinlash) tartibi uning prinsiplarida, sudyalar, ularning vakolat muddati, sudning huquqiy, ma‘muriy va moliyaviy mustaqilligi, daxlsizligi va sudyalarni javobgarlikka tortishning alohida tartibi, ularni moddiy ta‘minlash belgilangan. Konstitutsiyaviy sud sudyalarining har tomonlama mustaqilligini ta‘minlash odil sudlovni samarali olib borishga hissa qo‘shadi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining konstitutsiyaviy nazorat funksiyasi

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudning quyidagi vakolatlari belgilangan:

1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar – O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar – O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2¹) O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

qonunlarining O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining muayyan ishda qo'llanishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqadi;

6) konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qo'llangan va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq bo'lmagan qonunda buzilgan deb hisoblovchi fuqarolar hamda yuridik shaxslarning shikoyatlarini ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ham ko'radi. Quyidagi mezonlarga ko'ra Konstitutsiyaviy sud nazoratni amalga oshiradi: normalar mazmuni bo'yicha;

normativ-huquqiy hujjatning shakli bo'yicha;

davlat organlari va mansabdor shaxslar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan belgilangan vakolatlarning chegaralanishi nuqtayi nazaridan;

normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi, imzolanishi, shuningdek, rasmiy e'lon qilinishi va amalga kiritilishi tartibi bo'yicha uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi. Mana shu mezonlar Konstitutsiyaviy sud nazoratining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Ma'lumki, referendum jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Ushbu voqelik siyosiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, bevosita xalq demokratiyasining yorqin namunasidir.

Bu esa mamlakatimizda referendumga chiqarilayotgan masalalarning pishiq, puxta tayyorlanishini va eng asosiysi, Konstitutsiyaning

umumiy mazmun-mohiyati va maqsadi bilan hamohang bo'lishini taqozo etadi. Shu maqsadda referendumga chiqarilayotgan masalalarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida Konstitutsiyaviy sud tomonidan tomonidan xulosa berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko'ra, Belgiya, Vengriya, Germaniya, Rossiya, Latviya, Litva, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida Konstitutsiyaviy sud referendumga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida xulosa berishi belgilab qo'yilgan.

"O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, referendumni o'tkazish tashabbusi bilan:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin. Oliy Majlis palatalari va Prezident tomonidan masalalar kiritilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Biroq asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat shuki, fuqarolarning referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqishlari konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish qay tartibda bo'ladi? Imzolar yig'ilgunchami yoki yig'ilib bo'lgandan so'ngmi? (Unda to'plangan imzolar zoye ketadi.) Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari agar referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida besh foizini tashkil etgan fuqarolar imzosi to'plangan bo'lsa, basharti bunda imzolayotgan fuqarolar miqdori har bir ma'muriy-hududiy tuzilma (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bo'yicha bir tekis va mutanosib ravishda taqsimlangan bo'lsa, referendumni o'tkazish tashabbusi huquqini amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasining referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan har bir fuqarosi yoki fuqarolar guruhi referendumni o'tkazish to'g'risidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi imzolarni to'plash uchun kamida yuz kishidan iborat tashabbuskor guruhni tuzishi mumkin. Fuqarolar tashabbuskor guruhining vakolatli vakili guruhni ro'yxatdan o'tkazishni so'rab O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi. Referendum O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan

tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti referendum o'tkazish tashabbuskori bo'lgan taqdirda u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaat etishi yoki referendum o'tkazish to'g'risida o'z qarorini qabul qilishi mumkin. Qonunga muvofiq, ikki subyekt: parlament va prezident referendum tayinlashga haqlidir.

Shu o'rinda referendum bilan bog'liq ayrim masalalarni tartibga solishga zaruriyat paydo bo'ladi. Xususan, referendumga oid masalalarni Konstitutsiyaviy sud qancha muddatda ko'rib chiqadi, qaysi davlat organi Konstitutsiyaviy sudga bu murojaatni kiritadi, mazkur masala yuzasidan Konstitutsiyaviy sudning xulosasi salbiy bo'lsa, qanday oqibatlarga olib keladi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarorining (ilovasi bilan) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi ish yuzasidan Konstitutsiyaviy sud qaror qabul qilgan⁴⁷. Konstitutsiyaviy sud mazkur masalani quyidagi mezonlar asosida tekshirgan:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasini qabul qilish tartibiga rioya qilinganligi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan referendumni tayinlash tartibiga rioya etilganligi;

referendumga qo'yilayotgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasida referendum predmeti bo'lishi mumkin bo'lmagan masalalar mavjudligi.

Biroq qancha muddatda ko'rilishi, Konstitutsiyaviy sud qancha muddatda ko'rib chiqishi, referendum tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega bo'lgan boshqa subyektlar tomonidan kiritilgan so'rov Konstitutsiyaviy sudga qay tartibda kiritilishi va ko'rib chiqilishi yoritilmagan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati to'g'risidagi, referendum to'g'risidagi qonunlarda

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarorining (ilovasi bilan) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi ish yuzasidan Konstitutsiyaviy sud qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.03.2023-y., 12/23/4/0142-son.

ham bu to'g'risida to'liq ma'lumot mavjud emas. Shu bois mazkur masalalar qonunchilikda aniq yoritilishini taklif qilamiz.

Konstitutsiyaviy nazorat sohasida muhim bir qoida bor. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunda: "Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaga muvofiqligi xususida shubha tug'dirgan aniq normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan qarorlar qabul qiladi", – deb belgilangan.

Mazkur masalada turli savollar tug'iladi. Dastlabki nazorat ham shubha bo'lgan vaqtda amalga oshiriladimi? Referendumning konstitutsiyaviyligi masalasi bu borada qanday hal etiladi? Fikrimizcha, mana shu masalalar qonunda aniqlashtirilishi kerak. Nafaqat muddati, balki konstitutsiyaviy sudda har bir konstitutsiyaga muvofiqlik to'g'risida ko'riladigan ishning tartib-taomili to'liq aks ettirilishi kerak. Qonun esa bu toifadagi ishlarda Konstitutsiyaviy sudning qanday qaror qabul qilishini bayon etish bilan cheklangan xolos.

Konstitutsiyaviy nazorat keng qamrovli bo'lib, sharhlash hujjatlari ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqni sharhlash va tushuntirish faoliyati sud faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Sudlar muayyan ishlarni ko'rish jarayonida nafaqat qonunchilikning qo'llanishi jihatidan, balki tashkiliy-huquqiy masalalar yuzasidan ham tushuntirishlar berib o'tadi. Sudlarning tushuntirish faoliyati qonun bilan tartibga solinadigan sudlarga ko'rsatma berish bilan bog'liq irodaviy faoliyatdir. Sharhlash va tushuntirish faoliyatini asosiy maqsadi sudlar tomonidan qonunlarni bir xilda va aniq qo'llanishini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi sud amaliyotining dolzarb masalalarini ko'rib chiqadi va qonunchilikning qo'llanishi yuzasidan tushuntirishlar beradi.

Sudlar tomonidan tushuntirish individual-huquqiy hamda bevosi-ta muayyan bir ishdan kelib chiqib belgilanadi. Sudlar tomonidan tushuntirishlar berish faoliyati normativ-huquqiy xarakterga ega emas va ayni paytda huquq manbasi hisoblanmaydi. Chunki sharhlashning oltin qoidasi mavjud bo'lib, ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Biroq ayrim paytlarda muayyan masalalarda huquqdagi bo'shliqlar mavjud bo'lgan hollarda Oliy Sudning tushuntirishlari "vaqtinchalik tartibga soluvchi normaga" aylanib qolish ehtimoli mavjud. Ya'ni Oliy Sud tomonidan beriladigan tushuntirishlar normativ xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Mana shunday jarayonda konstitutsiyaviy nazoratga ehtiyoj tug'iladi. Oliy Sudning tushuntirishlari konstitutsiyaviy nazorat obyekti bo'lishi mumkinmi?

Ilmiy va yuridik adabiyotlarda konstitutsiya; qonunlar; boshqa normativ-huquqiy hujjatlar; xalqaro shartnomalar; sud qarorlari; mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari; partiya qarorlari; jamoat birlashmalarining qarorlari milliy huquqiy tizimdagi normativ huquqiy-hujjatlar hamda referendum orqali qabul qilingan hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligini (ayrim mamlakatlarda huquqiy hujjatning qabul qilishi protsedurasini ham) nazorat qilish; huquqdagi bo'shliqlarni barataraf etishga oid ish yuritish; xalqaro shartnomalar va ulardan kelib chiquvchi majburiyatlarning bajarilishi; hokimiyat organlari o'rtasidagi huquqiy nizolarni hal qilish; parlamentni tarqatib yuborishga asos bo'lgan holatlarni qayd etish; konstitutsiyaviy javobgarlik bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish va h.k.lar konstitutsiyaviy sudlov obyekti sifatida qayd etiladi.

Oliy Sudning tushuntirishlarini konstitutsiyaviy nazorat obyektiga kiritish masalasini muhokama qiladigan bo'lsak, nazariy jihatdan olib qaraganda, sudlar tomonidan beriladigan tushuntirishlar o'z mazmuniga ko'ra huquqni qo'llash hujjati bo'lib, u yangi bir norma yoki qoida o'rnatmaydi, aksincha, mavjud norma mazmunini yoritib beradi. Bundan tashqari, qonun yoki qoida yaratish sud faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanmaydi hamda hokimiyatlar bo'linishi, vakolatlar taqsimlanishi, qonuniylik prinsipiga ziddir. Huquqshunos olim A.T. Bonnerga ko'ra, "sud organlarining faoliyatida oliy sud instansiyalarining alohida hujjatlarida o'z aksini topadigan umumiy huquqiy qoidalar shakllanadi. Mazkur qoidalar amaldagi qonun normasini aniqlashtiradi, chunki sud faoliyatining mustaqilligi bilan mazkur qoidalar qonunni qo'llash xususiyatiga ega bo'ladi hamda qonunga

muvofoiq quriladi. Shu sababli mazkur faoliyat huquq manbasiga emas huquqni qo'llash, ya'ni sharhlash sohasiga taalluqlidir"⁴⁸.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi va Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi raislaridan iborat tarkibda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining majlislarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, Sudyalar oliy kengashi raisi, Bosh prokuror, Adliya vaziri, Advokatlar palatasi raisi, sudyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari ishtirok etishi mumkin.

Masalaning ikkinchi tomoniga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining tushuntirishlari huquqdagi bo'shliqlar mavjud bo'lgan hollarda qonun yoki analogiyani qo'llash orqali huquq ijodkori sifatida namoyon bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur fikrlar huquqshunos G.B. Yevstigneyevaning fikrlarida aniqroq yoritib beriladi: "Huquq manbalari (to'g'ri ma'noda) birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Ikkilamchisi rasmiy matnlar bo'lib, ularda asosiy normativ-huquqiy tushunchalar ishlab chiqiladi, aniqlashtiriladi, konkretlashtiriladi, sharhlanadi. Xususan, huquqning birlamchi manbalarini normativ talqin qilish bo'yicha sud hujjatlari ikkilamchi huquq manbalari bo'lib, ular de-yure talqin qilinayotgan hujjatning kuchiga ega bo'lsa-da, de-fakto ko'proq kuchga ega. Bundan tashqari, huquqning ikkilamchi manbalari birlamchi manbalarning ma'nosini o'zgartirishi mumkin, bu ko'p hollarda amaliyotda ham sodir bo'ladi"⁴⁹.

Ta'kidlash joizki, Oliy Sud Plenumining tushuntirishlari amaliyotda juda katta ahamiyatga ega. Ya'ni ba'zan qonun barcha masalalarni ham qamrab ololmasligi, hamma savollarga javob bermasligi mumkin. Ba'zan qonun hujjatlari bir-biriga zid bo'lishi ham mumkin. Mana shunday holatlarda huquqni sharhlash hujjati qonunlarni bir xilda qo'llash va tushunishda muhim rol o'ynaydi hamda ba'zan normativ qoidalar o'rnatadi.

⁴⁸ Боннер А. Т. Источники советского гражданского процессуального права. М., 1977. С. 19.

⁴⁹ Г.Б.Евстигнеева. Судебные решения как источник права. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. М.:2007. С. 24.

Bu borada rus olimi K.M. Xudoley xorijiy davlatlar qonunchiligida sud hujjatlari konstitutsiyaviy nazorat obyektiga (Moldova, Belarus, Ozarbayjon) kirishiga e'tibor qaratadi. Muallif Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudiga yuqori sud instansiyalarining hujjatlarini (masalan, plenumlarning qarorlarini) ko'rib chiqish huquqini berish mantiqan to'g'ri deb hisoblaydi, chunki ular aslida normativ xususiyatga ega. Uning fikricha, Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi va Oliy hakamlik sudining hujjatlarini konstitutsiyaga zid deb topish imkoniyati Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining bajarilishiga va umumiy yurisdiksiya sudlari va hakamlik sudlari tomonidan uning huquqiy pozitsiyasiga rioya etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi⁵⁰.

O'zbekistonda qonun bilan tartibga solinmagan, ammo Plenum qarori bilan tartibga solinayotgan masalalar bormi?

Oliy sud Plenumining Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanishi haqida 12-son qarori, Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida 27-son qarori, firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida 35-son qarori, Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida 6-son qarori shular jumlasidandir. Oliy Sud Plenumining tushuntirishlari "vaqtinchalik norma"ga aylanib qolishi mumkinligi haqida fikr bildirgan bo'lsak-da, qayd etish joizki, Plenumning ayrim tushuntirishlarga oid qarorlari qonunlardan ko'ra uzoqroq "umr ko'rgan".

Xususan, Oliy Sud Plenumining Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanishi haqida 12-son qarori 1998-yil 12-aprelda qabul qilingan bo'lib, qonun bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan protsessual masalalar ham plenum qarorida yoritib o'tilgan.

Huquqdagi bo'shliqlar sharoitida sud qarorlari "vaqtinchalik huquqiy normaga" alanishi xususida V.M. Juykov shunday qayd

⁵⁰ Худoley К. М. Полномочия Конституционного Суда РФ : проблемы теории и практики конституционного правосудия // Вестник Пермского ун-та. Юридические науки. 2011. Вып. 2 (12). Татаринов С.А. К вопросу о расширении полномочий Конституционного Суда Российской Федерации по рассмотрению и разрешению дел в связи с жалобами граждан // Конституционное и муниципальное право. 2011. № 6. С. 46.

etadi: “Huquqdagi bo’shliqlar har doim eng barqaror qonunchilik tizimlarida bo’lgan, mavjud va keyinchalik ham bo’ladi, chunki huquqiy tartibga solishni talab qiladigan hamma narsani oldindan ko’rish obyektiv ravishda mumkin emas. Bunday sharoitda sud amaliyoti ko’pincha huquq manbasiga aylanadi. Sudlar qonun analogiyasi yoki huquq analogiyasi asosida ayrim toifadagi ishlarni ko’rib chiqish tartibini ishlab chiqishga majburdir”⁵¹.

Biroq mazkur fikr nazariy jihatdan ayrim o’ziga xos haqiqatlarga ega bo’lsa-da, qo’shilib bo’lmaydi. Chunki sudning huquq ijodkori sifatida faoliyat yuritishi qonuniylik prinsipiga zid bo’lib, bu o’z-o’zidan qonun chiqaruvchining ham obro’siga putur yetkazadi. Sud faoliyatining asosiy maqsadi normativ-huquqiy hujjat chiqarishga ixtisoslashmagan. Biroq amaliyotda Plenum qarorlari bir necha yillardan beri normativ-huquqiy hujjat sifatida qo’llanib kelayotgan holatlar yo’q emas. Shu bois hokimiyatlarning bir-birini tiyib turish, muvozanatda ushlab va eng muhimi, qonuniylik mezonlarini ta’minlashda Plenum qarorlarining (tushuntirishlari) konstitutsiyaviyligi masalasini ham Konstitutsiyaviy sud tomonidan nazorat qilish amaliyotini joriy etish lozim. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, ba’zan qonun mukammal bo’lmasligi, unda tavofutlar bo’lishi hamda huquqdagi bo’shliqlar mavjud bo’lgan holatlar bo’lishi mumkin.

Mana shunday holatlarda sudlarning qarorlari huquq manbasi sifatida asosiy o’ringa chiqishi tabiiy. Biroq Oliy Sud Plenumi qarorlarining ham Konstitutsiya va qonunga muvofiq bo’lishi, uning chegarasidan chiqmasligi, inson huquq va erkinliklariga oid qoidalarga to’la rioya etilishini oliy nazorat – konstitutsiyaviy nazorat qilish orqali muvozanatga erishish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar natijasida qayd etish joizki, Oliy Sud Plenumi sud amaliyotining dolzarb masalalarini ko’rib chiqadi va qonunchilikning qo’llanishi yuzasidan tushuntirishlar beradi. Mazkur tushuntirishlar muayyan masalani aniqlashtirishga, yoritishga qaratilgan. Bu turdagi qarorlar o’z mazmuniga ko’ra huquqni qo’llash

⁵¹ Жуйков В.М. Роль разъяснений Пленума Верховного Суда Российской Федерации в обеспечении единства судебной практики и защиты прав человека // Комментарий к постановлениям Пленума Верховного Суда Российской Федерации по гражданским делам. М., 1999. С. 5–23.

hujjatlari hisoblanadi. Biroq bugun amaliyotda Oliy Sud Plenumining qonun bilan tartibga solinmagan yoki qonun bilan to'liq qamrab olinmagan masalalar yuzasidan qarorlari yangi normalar o'rnatish xususiyatiga ega ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi. Shu bois Oliy Sud Plenumining tushuntirishga oid qarorlarini huquq manbalari tizimidagi rolini qayta ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'ladi. O'z-o'zidan mazkur qarorlar ustidan konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan islohotlar Konstitutsiyaviy sud faoliyatining samaradorligi va nufuzini oshirishga, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, konstitutsiyaning ustunligini ta'minlashga oid faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishiga imkon yaratadi.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qonunchilik tashabbusi huquqi

Sud hujjatlari yuridik tabiatiga ko'ra davlat hokimiyatining boshqa organlari hujjatlariga nisbatan farqli xususiyatlarga ega. Yuridik adabiyotlarda bunday xususiyatlar sifatida "qat'iylik (ya'ni rad qilib bo'lmasligi), mustasnoqlik, majburiylik hamda ijro etilishi shartligi"⁵² keltirib o'tiladi. Majburiylik va ijro etilishi shartligi singari sifatlar davlat hokimiyatining boshqa organlari hujjatlari tizimiga ham taalluqli bo'lsa-da, aynan shu xususiyatlar odil sudlov hujjatlarining davlat hokimiyati hujjatlari sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, umumiy va hakamlik sudlari hujjatlari bilan qiyoslaganda Konstitutsiyaviy sud hujjatlarining yuridik kuchi yuqoriroqdir⁵³.

L.V. Lazarev Konstitutsiyaviy sud hujjatining pretsedent xususiyati to'g'risida quyidagicha qayd etadi: "U yoki bu hujjatning konstitutsiyaviylikligiga nisbatan unda ifodalangan huquqiy pozitsiya bo'lib, bu qonun chiqaruvchi organlar o'z vakolatlari doirasidagi

⁵² Комментарий к Гражданскому процессуальному кодексу Российской Федерации / под общ. ред. В.И.Нечаева 3-изд. перераб и доп. - М., 2008. С. 508.

⁵³ П.К.Лысов. Правосудие как основная функция судебной власти: понятие и формы реализации. Вестник Московского университета№ 1 / 2013 МВД России.

mazmunan o'xshash normalarga nisbatan masalalarni hal qilishda amal qilishi kerak bo'lgan namunadir"⁵⁴.

Yuridik adabiyotlar tahlili Konstitutsiyaviy sudning ijobiy (positive legislator) hamda salbiy ma'nodagi (negative legislator) qonun ijodkorligi xususida keng bahs-munozaralar mavjudligini ko'rsatadi.

Ayrim olimlar Konstitutsiyaviy sudning huquq normalarini sharhlashi, davlat organlari faoliyatida siyosiy nizolarni hal qilishi funksiyasi, qonunlarni muvofiq deb topish singari vakolatlarini ijobiy qonunchilik deb qayd etadi. Xususan, Venesuela universiteti professori A. Brevier Kerias Konstitutsiyaviy sudlarni nafaqat "ijobiy qonun ijodkori" balki "konstitutsiyaviy qonun ijodkori" sifatida qayd etib, ijobiy qonun ijodkorligini quyidagi belgilarni keltirish bilan ifodalaydi: birinchidan, konstitutsiyaviy sudlarning konstitutsiyaviy hokimiyat faoliyatiga aralashish, konstitutsiyaviy qoidalarni qabul qilishi; ikkinchidan, konstitutsiyaviy sudlarning amaldagi qonun hujjatlariga ishtiroki, qonun chiqaruvchining yordamchisi bo'lishi, nizomlarni to'ldirish, ularga yangi normalar qo'shish, shuningdek, qonun hujjatlarining vaqtinchalik ta'sirini belgilash vazifalarini o'z zimmasiga olishi; uchinchidan, konstitutsiyaviy sudlarning qonunchilikdagi mutlaq va nisbiy nomuvofiqliklar, yoki qonunchilikdagi bo'shliqlar tufayli muvaqqat qonun chiqaruvchi sifatida faoliyat yuritishi, to'rtinchidan, Konstitutsiyaviy sudlarning konstitutsiyaviy nazorat masalalari bo'yicha qonun chiqaruvchi sifatidagi roli⁵⁵.

Sudlarning qonun ijodkori sifatida baholanishiga asosiy sabab aynan ular huquqni qo'llash jarayonida voqelikka kengroq hamda chuqurroq yondashadilar.

Konstitutsiyaviy sudni ijobiy yoki salbiy jihatdan qonun ijodkori deb hisoblash mezonlari konstitutsiyaviy nazorat modellariga qarab farqlanadi.

⁵⁴ Лазарев Л. В. Конституционный Суд России и развитие конституционного права // Журнал российского права. – 1997. – № 1. – С. 3–13.

⁵⁵ Allan R. Brewer-Carias Professor at the Central University of Venezuela Vice President of the International Academy of Comparative Law. CONSTITUTIONAL COURTS AS POSITIVE LEGISLATORS IN COMPARATIVE LAW XVIII International Congress of Comparative Law of the International Academy of Comparative Law, at the George Washington University Law School, Washington, July 27, 2010

AQSh sud tizimi ikki darajali: federal sudlar va shtat sudlaridan iborat. Federal sud tizimiga AQSh Oliy sudi, 12 ta apellyatsiya sudi va federal okrug sudlari kiradi. Federal qonun ustuvorligi bandiga muvofiq, federal sudlar kabi shtat sudlari ham Amerika Konstitutsiyasini (shtat konstitutsiyalari kabi) sharhlash huquqiga ega⁵⁶. AQShda har qanday darajadagi sudlar konstitutsiyani sharhlash orqali konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish huquqiga ega. Garchi sudlar tomonidan amalga oshiriladigan konstitutsiyaviy nazorat markazlashtirilmagan bo'lsa-da, quyi sudlar konstitutsiyaning ayrim qoidalarining ma'nosiga oid o'z nuqtayi nazarlarini bildiradilar, biroq konstitutsiyaviy nazorat sohasida AQSh Oliy sudning pozitsiyasi yakuniy bo'lib, konstitutsiyaviylik masalasi masalasi Oliy sud qaroridan keyin hal qilinadi. Umuman olganda, AQShda e'tiroz bildirilgan har qanday qonun yoki ma'muriy hujjat konstitutsiyaviy nazorat obyektiga aylanishi mumkin.

Germaniyada Federal Konstitutsiyaviy sudning "salbiy qonun chiqaruvchi" sifatidagi faoliyati Asosiy qonunning 93-moddasi hamda Germaniya Federativ Respublikasi Federal Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi qonunning 90-moddasiga muvofiq konstitutsiyaviy shikoyat sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo'lingan hollarda berilishi mumkinligi to'g'risidagi normalarda namoyon bo'ladi.

Ispaniyada Konstitutsiyaviy tribunalning (sud) tuzilishi va faoliyatining tartibi Avstriya, Germaniya va Italiya modellariga asoslanadi⁵⁷.

Ispaniya huquqiy an'alarining o'ziga xos xususiyati shundaki, Konstitutsiyaga ko'ra, har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini birinchi instansiya sudida, ba'zi hollarda Ispaniya Konstitutsiyaviy sudiga amparo⁵⁸ tartibiga muvofiq ariza berish orqali himoya qilish huquqiga ega, bunda ish shoshilinch va ustuvor masala sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Hukumat Ispaniya Konstitutsiyaviy sudiga avtonom

⁵⁶ Бернам У. Правовая система США. Вып. 3. М., 2006. С. 478.

⁵⁷ Касас Баамонде М. Э. Испанский опыт // Вестник Конституционного суда Республики Беларусь. 2010. № 3. С. 127—131.

⁵⁸ Amparo – konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni himoya qilishning maxsus shakli. Mazkur turdagi murojaatlar Lotin Amerikasi davlatlarining konstitutsiyaviy nazorat modeliga xos bo'lib, konstitutsiyaviy shikoyatning o'ziga xos ko'rinishi.

jamiyatlar organlari tomonidan qabul qilingan qoidalar va qarorlar ustidan shikoyat qilishga haqli bo'lib, e'tiroz ko'rib chiqilayotgan qoida yoki qarorni to'xtatib turishga olib keladi, ammo Ispaniya Konstitutsiyaviy sudi besh oydan ko'p bo'lmagan muddatda ushbu hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlashi yoki bekor qilishi kerak.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyaviy nazorat organlari nazariy jihatdan, sud hokimiyati organi ular tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar esa sud hokimiyati organi hujjati sifatida e'tirof etilsa-da, amaliyotda Konstitutsiyaviy sudning qonun ijodkori sifatidagi roli o'sib bormoqda.

Bugungi kunda huquqdagi bo'shliqlar, qonunlarning yo'qligi yoki qonun chiqaruvchining mutlaq yoki nisbiy kamchiliklari, konstitutsiyaviy sud qarorlari ijro etilishining samarali mexanizmi yo'lga qo'yilmasligi, ko'p hollarda Konstitutsiyaviy sudlarning qonun chiqaruvchi yordamchisi rolini o'z zimmasiga olishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi tahlil asosida xulosaga kelish mumkinki, Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati tizimidagi roli hamda uning qarorlari o'ziga xos xususiyatga ega. Konstitutsiyaviy sudlar qonun chiqaruvchiga o'z funksiyalarini amalga oshirishi uchun yordam berishi mumkin, biroq ular qonun chiqaruvchining o'rnini bosa olmaydi, ya'ni qonunlar qabul qila olmaydi. Shuningdek, ular konstitutsiyaning o'zidan kelib chiqadigan huquqiy normalar yoki qoidalarni yaratish uchun ixtiyoriy siyosiy asosga emas.

Xorijiy davlatlarning konstitutsiyaviy nazorati modellaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud tom ma'noda qonun ijodkorligi bilan shug'ullanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Konstitutsiyaviy sud aniq sud hokimiyati organi sifatida mustahkamlangan. Shunga ko'ra, u asosan qonunchilik faoliyati bilan shug'ullanmaydi.

Biroq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi M. Abdusalomov ta'kidlaganidek, "qayd etish joizki, mamlakatimizda konstitutsiyaviy odil sudlov milliy huquqiy tizimda nisbatan yangi va rivojlanayotgan yo'nalishdir. Yangi yo'nalishning rivojlanishi esa bir tekisda kechmasligi ma'lum⁵⁹". Shu bois konstitutsiyaviy nazorat ins-

⁵⁹ Абдусаломов М. Конституция устунлигини таъминлашда конституциявий суднинг ўрни. Қонунчилик муаммолари ахборотномаси. 4-сон / 2021 йил. – Б. 7.

titutini kuchaytirish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillash-tirishni taqozo qiluvchi masalalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining birinchi navbatda, davlat hokimiyati tizimi-da mavqeni mustahkamlash, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi amalga oshirilishini ta'minlashda Konstitutsiyaviy sud qarorlarining o'z vaq-tida hamda samarali ijro etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaviy sud qarorlari normativ-huquqiy hujjat chiqaruvchi organlar tomonidan to'liq ta'minlanishi, ijro etilishi Konstitutsiyaviy sudning ijobiy qonun chiqaruvchi rolida bo'lishning oldini oladi: "Darhaqiqat, qonun chiqaruvchining konstitutsiyaviy sud qarorini bajarmasligi inson erkinliklarining asosiy huquqlariga hurmatni shubha ostiga qo'yishi, shuningdek, konstitutsiyaviy sudni ijobiy qonun chiqaruvchi rolida harakat qilishga undashi mumkin⁶⁰".

Shuningdek, mamlakatimizda shu kunga qadar Konstitutsiyaviy sud tomonidan muayyan bir qonunning yoki Oliy Majlis palatalari qarorlarining konstitutsiyaga mos emasligi bo'yicha qarorlar qabul qilinmagan. Biroq qonunning kodeksga mos emasligi⁶¹ yoki qonunning o'zidagi qarama-qarshiliklarni⁶² aniqlash bo'yicha o'ziga xos amaliyot shakllangan. Bunday nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha Konstitutsiyaviy sud odatda Oliy Majlisga qonunchilik tashabbusi huquqi tartibida murojaat qiladi. Ayrim olimlar konstitutsiyaviy sudlarning qonunchilik tashabbusi huquqlarini qo'llab-quvvatlamaydilar⁶³.

Ma'lumki, O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq *Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan* yuridik

⁶⁰ Конституционный суд – позитивный или негативный законодатель? <https://sinatistis.wordpress.com/2018/05/11/theconstitutionalcourtisapositiveornegativelegislator/>

⁶¹ "Ўзбекистон Республикаси қонун қужжа1лари туплами", 2001 йил, № 11. 22-модда.

⁶² Хакимов Р.Р. Давлат ҳокимияти тизимида парламент: назария ва амалиёт муаммолари: Монография. - Масъул муҳаррир: ю.ф.н. Ф.Э. Мухамедов. - Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти нашриёти. - Тошкент, 2012. - 184 б.

⁶³ Xususan, Alek Stoun Svit G'arbiy Yevropa konstitutsiyaviy sudlari haqidagi asarida: konstitutsiyaviy sudlarni "maxsus qonunchilik palatalari" deb atagan muallif G'arbiy Yevropa konstitutsiyaviy sudlari tomonidan qo'llanadigan turli usullarni ta'riflaydi, bu esa hukumat yoki parlamentga ma'lum bir sohada qonunchilikni tartibga solish bo'yicha konstituyiyaviy sudlar tomonidan berilgan konstitutsiyaviy ko'rsatmalardir, deb qayd etadi. Stone Sweet A. Governing with Judges: Constitutional Politics in Europe. New York: Oxford University Press, 2000. P.61.

kuchga ega bo'ladi, ya'ni qonunning tashabbuskori Konstitutsiyaviy sud bo'lsa-da, u bir nechta "muhokamalardan" o'tadi.

Rossiya Federatsiyasida Konstitutsiyaviy sud o'z vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qonunchilik tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega⁶⁴. Yangilangan Konstitutsiyamizning 98-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqi institutiga alohida urg'u berildi. Xususan, endilikda qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy Sud, Bosh prokuror ega. Bunda har bir subyekt o'z faoliyati va vakolatlaridan kelib chiqib mazkur huquqni amalga oshirishi muhimdir.

Shu sababli yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 98-moddasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham ***o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar*** bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligi belgilandi. Bu borada "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar" jumlasini ilmiy va yuridik jihatdan kengroq tahlil qilish va yoritish lozim bo'ladi.

Yuridik adabiyotlar tahlili "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar" tushunchasining tor va keng ma'noda tahlili mavjudligini ko'rsatadi. Keng ma'noda sudlar ushbu sud organida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan har qanday masala bo'yicha qonunchilik tashabbusi bilan chiqishi mumkin⁶⁵. Xususan, I. Kotelevskaya keng ma'noda inson huquqlarini hurmat qilish, turli federal davlat organlari o'rtasida, Rossiya Federatsiyasining davlat organlari va uning ta'sis subyektlarining davlat organlari o'rtasidagi vakolatlarni chegaralash masalalarini tushunadi⁶⁶. S.A. Avakyan ta'kidlaydiki, "mamlakat hayotidagi u yoki bu shakldagi har qanday masala tegishli sudning yurisdiksiyasiga aylanishi mumkin⁶⁷".

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasida "Konstitutsi-

⁶⁴ <http://pravo.gov.ru/proxy/ips/?docbody=&nd=102031436>

⁶⁵ Кучерявцев Д. А. Роль судов в осуществлении права законодательной инициативы в Российской Федерации // Конституционное и муниципальное право. 2015. № 5.

⁶⁶ Котелевская И. Взаимодействие властей в законотворчестве: разногласия и поиски компромисса // Проблемы парламентского права России / Под ред. Л. Иванова. М., 1996. С. 68–69.

⁶⁷ Авакьян С. А. Указ. соч. С. 285.

yaviy sud ishlarini yuritish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning ustunligi prinsipi, qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyatning hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy prinsipning hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshqa normalarining ro'yobga chiqarilishi asosida amalga oshiriladi", – deb belgilangan. Mazkur norma mazmunidan Konstitutsiyaviy sudning "yurisdiksiya masalalari"ni cheklab bo'lmaydi. Ularning ro'yxati qonunchilikning barcha sohalarini o'z ichiga olishi kerak, chunki ular Konstitutsiyaning mazmunini aks ettiradi va inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini bevosita tartibga soladi.

Tor ma'noda "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar" deganda sudlarning xulq-atvori bilan bog'liq masalalar, sud tizimi va ularning jamiyatini tashkil etish sohasidagi huquqiy munosabatlar, sudyalarning maqomi, sudlar faoliyatini ta'minlash, sud ishlarini yuritishning protsessual rejimi va sud hujjatlarini ijro etish bilan bog'liq masalalar tushuniladi⁶⁸.

Bu borada huquqshunos olim A. Raximov: "Konstitutsiyaviy sud o'zi kiritgan qonun loyihasining biron-bir normasini ozroq muddat o'tgandan keyin Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash haqidagi ishni ko'rib chiqmaydi, deb kim kafolat beradi. Aynan shu nuqtayi nazardan olganda, ko'pchilik mamlakatlarda Konstitutsiyaviy sudga qonunchilik tashabbusi huquqi berilmasligi to'g'ri bo'lgan. Kelgusida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qonunchilik tashabbusi huquqini bekor qilish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq⁶⁹", – deb qayd etadi.

Bizningcha, **нено judex in causa sua** – "*hech kim o'z ishida sudya bo'lishi kerak emas*"⁷⁰ prinsipi Konstitutsiyaviy sudga nisbatan qo'llash noto'g'ri. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston qonunchiligi

⁶⁸ Ганичева Е. С. Пределы осуществления законодательной инициативы высшими органами судебной власти // Журнал российского права. 2014. 11. Кучерявцев Д. А. Роль судов в осуществлении права законодательной инициативы в Российской Федерации // Конституционное и муниципальное право. 2015. No 5.

⁶⁹ А.Рахимов. Конституциявий ислохотлар: Суд ҳокимияти мустақиллигини янада мустақалашга хизмат қилиши шубҳасиз. <http://www.konstsud.uz/uz/news/2022/07/01/konstitutsiyavij-islohotlar-sud-hokimiyati-mustaqilligini-yanada-mustahkalashga-khizmat-qilishi-shubhasiz>

⁷⁰ neno judex in causa sua prinsipi sudning beg'arazligi va xolisligi prinsiplarining bir qismi bo'lib, o'z navbatida, sud jarayonida taraflarning adolatligi va tengligi prinsiplari mazmunini tashkil etadi.

tahlili asosida Konstitutsiyaviy sud tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish qonun loyihasining asl matn mazmuniga ega bo'lgan qonunni qabul qilishni anglatmaydi.

Bundan tashqari, konstitutsiyaviy sudlov organi huquqni qo'llash amaliyotini hisobga olgan holda qonunchilik tashabbusini amalga oshiradi. Sudyalar qanday huquqshunoslik nazariyalari yoki usullarini qo'llashidan qat'i nazar – konstitutsiyaviy nazorat har doim kengroq qonun ijodkorligi jarayonlarida hal qiluvchi bosqichni tashkil etadi. Bundan tashqari, konstitutsiyaviy sudlar qonun chiqaruvchiga qonunlarni ishlab chiqarishni ma'lum usullar bilan buyurishga tobora yaqinlashayotganini inkor etib bo'lmaydi⁷¹.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida, Iqtisodiy protsessual kodeksida va Ma'muriy sud ishlarni yuritish to'g'risidagi kodeksida taalluqlilikning aniq bir tushunchasi berilmagan, faqat sudga taalluqli bo'lgan ishlar ro'yxati sanab ketilganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tushuncha bo'yicha Huquqshunos olim D. Egamberdiyev quyidagilarni qayd etadi. Taalluqlilik muammoni hal qiluvchi huquqiy yurisdiksiya organlarining (fuqarolik ishlari bo'yicha sud, notarius, prokuratura organlari, FHDY organlari va hokazo) vakolatiga taalluqli qonunlar bilan ko'rib chiqiladigan va hal qilinadigan ishlar doirasidir⁷².

Mazkur fikrlardan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunida taalluqlilikka oid alohida norma mavjud emas. Biroq Konstitutsiyaviy qonunning 4-moddasida sudning vakolatlari aks ettirilgan bo'lib, mazkur vakolatlardan kelib chiqib taalluqlilikni tushunish mumkin. Shuningdek, qonunning 34-moddasida murojaatni ko'rib chiqish uchun qabul qilishni rad etish asoslaridan biri sifatida murojaatning

⁷¹ A.Stone Sweet. The politics of constitutional review in France and Europe. International Journal of Constitutional Law, Volume 5, Issue 1, January 2007, Pages 69-92, <https://doi.org/10.1093/icon/mol041>.

⁷² Эгамбердиев Д.А. Фуқаролик процессуал ҳуқуқида судга тааллуқлилиқ, амалиётдаги айрим муаммолар ва хорижий таҳлил. https://www.researchgate.net/profile/Dilshod-Egamberdiyev/publication/344160485_JURISDICTION_IN_CIVIL_PROCEDURAL_LAW_SOME_PROBLEMS_IN_PRACTICE_AND_FOREIGN_ANALYSIS/links/5fe58a29299bf140883f5619/JURISDICTION-IN-CIVIL-PROCEDURAL-LAW-SOME-PROBLEMS-IN-PRACTICE-AND-FOREIGN-ANALYSIS.pdf

Konstitutsiyaviy sudga taalluqli bo'lmashligi nazarda tutilgan. Qanday murojaatlari taalluqli degan savolga esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2021-yil 31-maydagi KSQ-8-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomning 11-bandidan javob topish mumkin.

Murojaat quyidagi talablardan biriga javob bersa, Konstitutsiyaviy sud vakolati doirasidagi masalalar aks ettirilgan murojaat hisoblanadi: a) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash so'ralgan bo'lsa; b) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash so'ralgan bo'lsa; d) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa berish so'ralgan bo'lsa; e) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh berish so'ralgan bo'lsa; f) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining muayyan ishda qo'llanishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqish so'ralgan bo'lsa; g) konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot yuzasidan ma'lumot so'ralgan bo'lsa; h) muayyan ishda qo'llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini fuqarolar hamda yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlar bo'lsa; i) Konstitutsi-

yaviy sud tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish taklifi berilgan bo'lsa; j) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlarini (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) bekor qilish so'ralgan bo'lsa.

Biroq taalluqlilik mezoniga ko'ra, tahlil Konstitutsiyaviy sudning "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar yuzasidan qonunchilik tashabbusi huquqi mazmunini kengroq yoritmaydi. Konstitutsiyaviy sud muayyan ishni ko'rish jarayonidagi qonunchilikdagi bo'shliqlar, tafovutlar hamda boshqa kamchiliklardan kelib chiqib, qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, **o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi** tushunchasi orqali Konstitutsiyaviy sudning aynan o'zi ko'rib chiqayotgan yoki ko'rib chiqqan ishi bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga oid huquq deb xulosa qilish mumkin. Biroq shu o'rinda haqli savol tug'iladi: Konstitutsiyaviy sud mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikni takomillashtirish yoki Konstitutsiyaviy sudning o'z vakolatlarini takomillashtirish yuzasidan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishi mumkinmi? Mazkur masalalar "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar"ni anglatmasa, qonun chiqaruvchi bu kabi qonunchilik tashabbusiga oid murojaatni rad etadimi yoki qanday harakatlarni amalga oshiradi? O'z vakolatiga oid bo'lmasa bu qonun loyihasi ko'rib chiqilmaydimi? Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining ham qonunchilik tashabbusi huquqi "o'z vakolati jumlagacha kiritilgan masalalar" yuzasidagina bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi qonunda o'z vakolatiga kiritilgan ishlarni ko'rib chiqadi, shuningdek, alohida holatlarni hisobga olib, har qanday ishni O'zbekiston Respublikasining istalgan sudidan olishga va uni birinchi instansiya sudi sifatida o'zining ish yuritishiga qabul qilishga yoki ishni bir suddan boshqa tegishli sudga o'tkazishga haqli.

Mazkur huquqdan kelib chiqib, "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar" aynan o'zi ko'rib chiqayotgan yoki ko'rib

chiqqan ishi bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga oid huquq deyilsa bu jumla birmuncha tor ma'no kasb etadi. Shu bois o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar yuzasidan qonunchilik tashabbusini amalga oshirishning aniq tartib-taomilini aks ettirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya ustunligiga erishish va uning normalariga og'ishmay rioya qilishda Konstitutsiyaviy sud o'ziga xos rolga ega. Shu bois konstitutsiyaviy sudlov organining qonunchilik jarayonidagi ishtirokni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

2.4. Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaat qilish huquqi: konstitutsiyaviy shikoyat instituti

O'zbekistonda 2021-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonuni bilan konstitutsiyaviy shikoyat instituti, ya'ni fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi ustidan shikoyatlar bo'yicha muayyan ishda qo'llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiq-ligini aniqlash to'g'risidagi ishlarni yuritish joriy etildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqida shunday ta'kidladi: "...Asosiy qonunning himoyachisi bo'lgan Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mazkur sud boshqa sudlardan farqli o'laroq, faqat Konstitutsiyaga bo'ysunadi hamda Asosiy qonunning ustunligi prinsipini ta'minlaydi. Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyat chiqargan hujjatlarda inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy prinsip hamda Konstitutsiya normalariga amal qilinishiga e'tibor qaratadi. Konstitutsiyamizda fuqarolar va yuridik shaxslarning muayyan ishda sud tomonidan ularga nisbatan qo'llangan qonunning Konstitutsiyaga mosligini tekshirish haqidagi shikoyatlarini ko'rib chiqishni Konstitutsiyaviy sudning vakolatida aks ettirish maqsadga muvofiq"⁷³.

⁷³ <https://review.uz/oz/post/prezident-shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-respublikasi-konstitutsiyasiga-ozgartirish-kiritish-borasida-takliflar-berdi>

Mazkur islohotlar fuqarolar hamda yuridik shaxslarga konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qoʻllangan va Konstitutsiyaga muvofiq boʻlmagan qonunda buzilgan deb hisoblanganda, agar sudda himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib boʻlingan boʻlsa, Konstitutsiyaviy sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqini beradi.

2022-yil davomida Konstitutsiyaviy sudga jami 1 376 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 1 299 tasi jismoniy shaxslar, 77 tasi yuridik shaxslar tomonidan yuborilgan. Murojaatlar Konstitutsiyaviy sud sudyalari tomonidan oʻrganib chiqilib, mualliflarga asoslantirilgan tushuntirishlar berilgan. Sudya va ekspertlar tomonidan 83 nafar fuqaro va yuridik shaxslarning vakillari Konstitutsiyaviy sudga qabul qilindi, ularning murojaatlari yuzasidan tegishli tushuntirishlar berilgan. 2024-yil davomida Konstitutsiyaviy sudga jami 1400 ta murojaatlar, shundan 1 350 tasi fuqarolar, 50 tasi yuridik shaxslardan kelib tushgan. Fuqarolar tomonidan pensiya, fuqarolik, uy-joy, mehnat qonunchiligining alohida normalarini konstitutsiyaviyligini tekshirish yuzasidan murojaatlar kelib tushgan⁷⁴.

Oʻzbekiston qonunchiligiga muvofiq, konstitutsiyaviy shikoyat berilishi uchun quyidagi talablar mavjud:

Birinchidan, konstitutsiyaviy shikoyatning predmeti faqat **qonun** normalari boʻlishi mumkin (boshqa normativ-huquqiy hujjatlar emas);

Ikkinchidan, eʼtiroz bildirilayotgan qonun shikoyatchining huquq yoki majburiyatlariga daxl qilishi kerak – boshqacha aytganda, muayyan shaxsning buzilgan huquqisiz jamoat manfaatlarini koʻzlab (actio popularis) shikoyat berishga yoʻl qoʻyilmaydi; Germaniyada arizachi (fuqaro, chet ellik, xususiy va baʼzan ommaviy huquqning yuridik shaxslari) va uning vakili, nizo predmeti (maʼmuriy hujjat, sud qarori, kamdan kam hollarda qonun) ustidan sudga himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanib boʻlingandan soʻng tegishli muddat (bir oy, bir yil)da, qonuniy manfaat (zarar) mavjud boʻlgandagina konstitutsiyaviy shikoyat berishi mumkin.

⁷⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2024-yilda mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniyligining holati toʻgʻrisida Axboroti. <https://www.lex.uz/docs/7251202>

Germaniyada shikoyat, agar u fundamental konstitutsiyaviy va huquqiy ahamiyatga ega bo'lsa yoki asosiy huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lsa, shuningdek, agar u bo'yicha qaror qabul qilmaslik arizachiga o'ta jiddiy zarar yetkazsa, ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi (ya'ni qabul qilinadi deb e'lon qilinadi); Xuddi shunday, Sloveniyada agar huquq va erkinliklarning buzilishi arizachi uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lsa yoki ko'tarilgan masalaning ahamiyati muayyan ishning ahamiyatidan oshsa, shikoyat ko'rib chiqiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida petitsiya (ceriorari) uchun "jiddiy asoslar" bo'lishi kerak, xususan, federal qonunlarni talqin qilish va qo'llash bo'yicha ishda quyi sudlar amaliyotida qo'llanishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligida aynan zarar yetgan bo'lishi yoki aynan konstitutsiyaviy huquqiy masalalarni e'tirof etishi kabi qoidalar mavjud emas.

Uchinchidan, shikoyatchiga nisbatan nizoli qonun qo'llangan sudning yakuniy qarori qabul qilinishi kerak (sudda ishni ko'rib chiqish tugagan bo'lishi kerak), ya'ni sudda himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, bu talab qonunda keltirilmagan, biroq Konstitutsiyaviy sudning rasmiy saytida aks ettirilgan: shikoyat asoslantirilgan bo'lishi kerak. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunda murojaat etishning ikki turi: murojaat huquqiga ega bo'lgan davlat organlarining va mansabdor shaxslarning murojaati, shuningdek, fuqarolarning va yuridik shaxslarning shikoyatlari keltirilgan. Biroq konstitutsiyaviy shikoyat uchun alohida talablar qonunda aks ettirilmagan. Rasmiy saytda ko'rsatilgan talablarga muvofiq:

Fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlarida:

1. Fuqaro va yuridik shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, manzili yoki joylashuv joyining to'liq nomi, shuningdek, agar mavjud bo'lsa aloqa vositalarining raqami, elektron pochta manzili.

2. Ishni sudda ko'rib chiqilganligi va sud himoyasining barcha shakllaridan foydalanganligini to'g'risida asos (umumiy yurisdiksiya sudlarining qarorlari).

3. Qonunning tegishli normasi qo'llangan yakuniy sud qarorining qisqacha mazmuni.

4. Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish kerak bo'lgan qonunning aniq normasi va Konstitutsiyaning aniq normasi.

5. ***Konstitutsiyada mustahkamlangan inson huquqlaridan qaysi biri, murojaat qiluvchining fikricha qonunni qo'llash natijasida buzilganligini, qonunning (yoki bir uning qismini) Konstitutsiyaga nomuvofiqligini asoslash.***

6. Konstitutsiyaviy shikoyatga havola qilinayotgan hujjatlar va materiallarning nusxalari.

7. Ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining ajrimida munozarali normalar bilan arizachining qanday huquqlari buzilganligini asoslashi kerak⁷⁵.

Umuman olganda, konstitutsiyaviy shikoyat bilan bog'liq talablar va tartib-taomillari Konstitutsiyaviy sudning huquqiy hujjatlarida aks etishi kerak.

Konstitutsiyaviy sudga qilingan murojaat rad etiladi agar:

Murojaat Konstitutsiyaviy sudga taalluqli bo'lmasa;

Aksariyat fuqarolar Konstitutsiyaviy sudni Oliy Suddan keyingi instansiya sifatida tushunishadi hamda murojaatlarni yuborishadi. Bu borada Konstitutsiyaviy sud Mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylik holati to'g'risidagi axborotida shuni qayd etadi. Shu bilan birga, yo'llangan murojaatlarining aksariyati umumiy yurisdiksiya sudlarining qarorlarini bekor qilish yoki qayta ko'rib chiqish, sudga qadar ish yuritishning qonuniyligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan berilgan.

Bunday murojaatlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan emas, balki umumiy yurisdiksiya sudlari yoki boshqa organlar tomonidan ko'rib chiqilishi (sud va tergovga, mansabdor shaxslarning xatti-harakatiga, ish yoki o'qishga tiklashga oid) lozim. Tahlillar ko'pincha Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilgan fuqarolar huquqni muhofaza qilish institutlari to'g'risida yetarlicha xabardor emasligini ko'rsatmoqda⁷⁶.

⁷⁵ Определение Конституционного Суда РФ от 19.04.2000 N 82-О.

⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2024 йилда мамлакатдаги конституциявий қонунийликнинг ҳолати тўғрисидаги ахбороти. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарори, 06.12.2024 йилдаги КСҚ-4-сон.

Ikkinchidan, fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga masala kiritish huquqi va konstitutsiyaviy shikoyat berish huquqini yanglish tushunish holatlari bo'lmog'da. Xususan, Fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga muayyan bir moddani sharhlashni yoki xalqaro shartnomalarning konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirishni so'rab murojaat qilishadi. Bu kabi masalalarni kiritish huquqiga esa faqat "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 27-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan subyektlargina egadir. Xususan, Konstitutsiyaviy sudga "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun talablariga muvofiq bo'lmagan shikoyatlar bilan murojaat etish holatlari ko'payishi tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Konstitutsiyaviy sud Hukumat va boshqa mas'ul davlat organlarining e'tiborini huquqiy targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada faollashtirishga qaratadi⁷⁷.

Shu o'rinda qayd etishimiz joizki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunga Sud majlisini axborot-telekommunikatsiya tarmog'i – internetda to'g'ridan to'g'ri efirga uzatish Konstitutsiyaviy sudning tashabbusi yoki sud majlisi ishtirokchilarining iltimosnomasiga muvofiq raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi mazmunidagi qoidani kiritish lozim. Konstitutsiyaviy sudning ochiq majlislari onlayn efirga uzatilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz.

Fuqarolar va yuridik shaxslar qonunosti hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi hamda Konstitutsiya va qonunlarga sharh berish masalasi yuzasidan qonunda belgilangan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslari orqali Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin.

Murojaat predmeti yuzasidan Konstitutsiyaviy sud tomonidan ilgari qonuniy kuchga kirgan qaror chiqarilgan bo'lsa, bundan Konstitutsiyaviy sud qarorlarini qaytadan ko'rib chiqish uchun asoslar mavjud bo'lgan hollar mustasno;

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, konstitutsiyaviy shikoyat berish huquqi O'zbekiston fuqarolari hamda yuridik shaxslarigagina

⁷⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2024 йилда мамлакатдаги конституциявий қонунийликнинг ҳолати тўғрисидаги ахбороти. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарори, 06.12.2024 йилдаги КСҚ-4-сон.

berilgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, quyidagilar Konstitutsiyaviy sudga masala kiritish huquqiga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman);

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi;

Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to‘rttdan bir qismidan iborat deputatlar guruhi;

Senat a‘zolari umumiy sonining kamida to‘rttdan bir qismidan iborat senatorlar guruhi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori; O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy markazi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil.

Shu bilar birga, Konstitutsiyaviy sudga masala kiritish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar, garchand bu huquqqa ega bo‘lsalar-da, biroq Konstitutsiyaviy qonunning tegishli rasmiylashtirish talablariga muvofiq tarzda murojaatni kiritmasalar bu kabi murojaatlar ham rad etilishi mumkin. Fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligini tekshirish haqidagi murojaatlari O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni 29-moddasida belgilangan talablarga javob berishi kerak. Unda qo‘yilgan masala yuzasidan murojaat qiluvchining nuqtayi nazari va murojaatni Konstitutsiyaning tegishli normalariga havola qilingan holdagi huquqiy asoslantirilgan bo‘lishi lozim⁷⁸.

⁷⁸ Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2024 йилда мамлакатдаги конституциявий қонунийликнинг ҳолати тўғрисидаги ахбороти. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарори, 06.12.2024 йилдаги КСҚ-4-сон.

Fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning murojaati ushbu Qonun 86-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lmasa. (xususan, murojaat qilish muddatining o'tib ketganligi, huquqlarni sudda himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanilmaganligi, asoslantirilmaganligi).

Bugungi kunga qadar Konstitutsiyaviy sud tomonidan ikkita konstitutsiyaviy sud ishi ko'rib chiqildi. Mazkur murojaatlardan biri yuridik shaxslar tomonidan, ikkinchisi fuqarolar tomonidan kiritilgan. Dastavval fuqaro murojaati xususida yoritsak. Fuqaro M. Xasanova dastlab Toshkent shahar Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudiga, Toshkent shahar sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga kassatsiya shikoyatlari kiritilgan.

Ikkinchi murojaat esa "Aloqainvest" va "Alta vetta" mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga muvofiqligini tekshirish va O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 54-moddasi to'qqizinchi qismiga sharh berish to'g'risidagi murojaati bo'yicha yuritilgan ishni biz konstitutsiyaviy shikoyat deb hisoblaymiz. Aslida Konstitutsiyaviy sud fuqaro yoki yuridik shaxsning murojaatiga ko'ra sharh bermaydi, aniqroq qilib aytganda sharh berish huquqi muayyan subyektlarga tegishlidir. Konstitutsiyaviy sud bu MChJlar murojaatini o'rganib chiqqan.

"Aloqainvest va "Alta-vetta" MChJ O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudiga Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 2020-yil 28-iyuldagi hal qiluv qarori va Toshkent shahar iqtisodiy sudi apellyatsiya instansiyasining 2020-yil 15-oktabrdagi qarori ustidan shikoyat bilan murojaat qilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati 2021-yil 20-yanvardagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasini qo'llab, birinchi va apellyatsiya instansiyasi qarorlarining tegishli qismlarini bekor qilib, ushbu da'vo talabi bo'yicha ish yuritishni tugatgan. Da'vogarlar ishni kassatsiya tartibida takroran ko'rish uchun protest kiritishni so'rab **O'zbekiston**

Respublikasi Oliy Sudi Raisi nomiga ariza bilan murojaat qilgan. Mazkur ariza asoslar mavjud emasligi sababli qanoatlantirilmagan. Yuqoridagi murojaatlar asosida fuqaroning Oliy Sudga murojaati sudda himoya qilishning barcha vositalaridan foydalanishi deb xulosa qilish mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonunning 86-moddasi birinchi qismiga sharh berish haqida Konstitutsiyaviy sud qarorida Konstitutsiyaviy qonunning 86-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan **sudda himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanish deganda**, shikoyat qiluvchi subyektlar (fuqarolar yoki yuridik shaxslar) tomonidan qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish huquqidan foydalanishlari, shuningdek, sudda ishni ko‘rib chiqish tugagan kun deganda ishni mohiyatan ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, uzil-kesil qabul qilingan sud hujjatlari hamda ish bo‘yicha ishning keyingi ko‘rib chiqilishini istisno qiladigan oxirgi sud hujjatlarining qabul qilinganligini tushunish lozim⁷⁹, deb qayd etilgan.

Lekin buning uchun asoslar keltirilmagan. Qonunda yoritilishi kerak bo‘lgan masala Konstitutsiyaviy sudning sharhida birgina xatboshi bilan qayd etilib ketilmoqda. Sudyalar Oliy Kengashining rasmiy saytida chop etilgan maqolada “Sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lish” deganda eng yuqori sud instansiyasi, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan ishning ko‘rib chiqilishi va baho berilishi tushuniladi, deb qay etilgan⁸⁰. Mazkur masala aniq qonunda yoritilmas ekan, har xil yondashuvlar, nazariyalar fuqarolarni chalg‘itishga, boshqa savollarni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 86-moddasi birinchi qismida “Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qo‘llangan va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga

⁷⁹ “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunining 86-moddasi birinchi qismiga sharh berish haqida Konstitutsiyaviy sud qarori 2024-yil 23-iyul, KSQ-3-son.

⁸⁰ Конституциявий судга қачон муурожаат қилиш мумкин? <https://sudyalariolykengashi.uz/uz/news/795#!>

muvofig bo'lmagan qonunda buzilgan deb hisoblovchi fuqarolar hamda yuridik shaxslarning shikoyatlari, agar sudda himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudda ishni ko'rib chiqish tugagan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmay beriladi", - degan normada belgilangan "sudda ishni ko'rib chiqish tugagan kun" jumlasini sud tomonidan ***ishni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha oxirgi sud hujjati qabul qilingan kun*** deb tushunish lozim.

Fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat qilmoqchi bo'lganlarida ular uchun tushunarli va sodda yo'riqnoma bo'lishi va unda konstitutsiyaviy shikoyat talablari to'liq va aniq yoritilishi lozim. Konstitutsiyaviy sud tomonidan berilgan sharhda normalarni aniqlashtiruvchi tushunchalar yoritilgan bo'lsa-da, bizningcha, fuqarolarga qulay bo'lishi uchun Konstitutsiyaviy sud tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy shikoyatlarini ko'rib chiqishi bo'yicha alohida yo'riqnoma ishlab chiqilishi lozim.

Unda asosiy savollarga javob bo'ladigan masalalar aks etishi kerak. Xususan, konstitutsiyaviy shikoyat o'zi nima, berish tartibi, asoslantirish tartibi, sudda himoya qilishning barcha vositalari tushunchalari, uzrli sabab bo'lganda muddatlar tiklanishi masalasi va shu bilan bog'liq asosiy masalalar aks etgan hujjat bo'lishi kerak. Qayd etish joizki, aynan mana shunday aniq qonuniy hujjat bo'lmaganligi yoki qonunda aks etmaganligi uchun fuqaro Eshmatov turli organlarga murojaat qilgan. Konstitutsiyaviy qonunning 86-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan bir yillik muddatni 2023-yil 13-sentabrda (02-12/2423-sonli xat) Konstitutsiyaviy sud Oliy Sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining tegishli ajrimi chiqqan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmay Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish kerakligi haqida tushuntirish berilgan. Adliya vazirligi esa bir yillik muddat kassatsiya shikoyatini (protestini) qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqarilib, shikoyatni (protestni) bergan shaxsga yuborilgan vaqtdan yoki kassatsiya instansiyasi sudning ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqarilgan kundan hisoblanishi tushuntirilgan. Konstitutsiyaviy sud esa 2024-yilda sharh bergan.

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy shikoyat institutiga oid normalar qonunlarda mavjud bo'lsa-da, yangi tahrirdagi konstitutsiyada belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Uning quyidagi sabablari mavjud:

birinchidan, qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Konstitutsiya esa jamiyat va davlat hayotining o'ta barqaror va muhim masalalari, ijtimoiy munosabatlar va shaxslarning huquqlarini o'zida ifoda etishi lozim.

ikkinchidan, huquqni konstitutsiyaviylashtirish zamonaviy konstitutsiyaviylikning eng dolzarb muammolaridan biridir. Tor ma'noda bu huquqiy normaning konstitutsiyaviy qoida darajasiga ko'tarilishidir. Aynan shu yondashuv konstitutsiyaviy huquq fanida eng keng tarqalgan bo'lib, konstitutsiya matnida qoidalarni belgilash, ularga konstitutsiyaviy kuch berish deb qaraydi.

III BOB. KONSTITUTSIYAVIY SUD ISH YURITUVINING UMUMIY XARAKTERISTIKASI

3.1. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi tushunchasi, mazmuni, prinsiplari

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi yuridik faoliyatning bir turi bo'lib, konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadi. Olimlar o'rtasida "konstitutsiyaviy sud ish yurituvi", "konstitutsiyaviy protsess", "konstitutsiyaviy odil sudlov", "konstitutsiyaviy yustitsiya" kabi tushunchalar bo'yicha yakdillik yo'qligi mazkur tushunchalarning o'zaro bog'liqligini aniqlashda qiyinchiliklar yaratadi hamda ular tomonidan aks ettirilgan konstitutsiyaviy amaliyot hodisalarini o'zaro tushunishni murakkablashtiradi.

Xususan, Y.V. Slepchenko konstitutsiyaviy sud ish yurituviga konstitutsiyaviy protsessual shakl sifatida ta'rif berib, Konstitutsiyaviy sud tomonidan huquqiy ishlarni ko'rib chiqish, konstitutsiyaviy sud jarayoni deb qayd etadi⁸¹. Biroq konstitutsiyaviy sud ish yurituvini konstitutsiyaviy protsessual shakl deb ta'riflash, bizningcha, konstitutsiyaviy sud ish yurituvining juda keng ma'noda tushunilishiga olib keladi. Chunki konstitutsiyaviy nazorat funksiyasi bir qator davlat organlariga tegishli bo'lishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud esa mazkur funksiyani tegishli tartib-taomillarda amalga oshiradigan yagona organdir.

Huquqshunos olim V.V. Sibulskiy konstitutsiyaviy sud ish yurituvini to'rt asosiy jihatini qayd etadi: 1) konstitutsiyaviy protsessual normalar asosida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar sifatida; 2) konstitutsiyaviy sudlov organlari faoliyatining o'ziga xos protsessual shakli sifatida; 3) konstitutsiyaviy-huquqiy institutlardan biri sifatida; 4) Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ish yurituvi bilan bir qatorda sud hokimiyatini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri sifatida⁸².

⁸¹ Сlepченко Е.В. Конституционное судопроизводство: понятие, особенности // Юридический мир. 2009. № 2. С. 20.

⁸² Цибульский В.В. Конституционное судопроизводство в Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2005. С. 11.

Mazkur fikrga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash joizki, konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ish yurituvdagi singari davlat hokimiyat xarakteriga ega. Ishlar rasmiylik xususiyatiga ega. Bunda ishtirokchilarning protsessual munosabatlar doirasidagi barcha harakatlari qonunda belgilangan muayyan protsessual shaklda amalga oshiriladi. Uning bajarilishi Konstitutsiyaviy sud tomonidan murojaatni o'z vaqtida ko'rib chiqishga va shunga mos ravishda konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishga, Konstitutsiyaning ustuvorligi va bevosita ta'sirini ta'minlashga qaratilgan.

Konstitutsiyaviy sud ishlarida asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustunligi prinsipi, qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyatning hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy prinsip hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshqa normalarining ro'yobga chiqarilishidir. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvda protsessual kafolatlar tizimi mavjud. Buning ma'nosi shundan iboratki, Konstitutsiyaviy sud ish yurituvda konstitutsiyaviy qonuniylik, jarayon ishtirokchilarining tengligi ta'minlanadi.

Sud protsessining har bir bosqichi alohida maqsad va vazifalar, mazmun, protsessual shakl, sudning vakolatlarini o'z ichiga olgan ishtirokchilarning protsessual huquq va majburiyatlarini amalga oshirish xususiyatlariga ega⁸³. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ish yurituvdan farqli ravishda siyosiy-huquqiy xarakterga ega. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi boshqa turdagi ish yurituvlaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

birinchidan, sud ish yurituvining ushbu turi ko'rib chiqish obyekti bo'lgan ishlar toifasining maqsadi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi: qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni hal qilish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotining konstitutsiyaviyligi;

⁸³ Правосудие в современном мире: моногр. / В. М. Лебедев; под ред. Т. Я. Хабриевой, В. М. Лебедева. М.: Норма: НИЦ ИНФРА-М, 2014

konstitutsiya va qonunlarni sharhlash; konstitutsiyaviy nizolarni hal qilish va boshqalar;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy sud ish yurituvining o'ziga xos xususiyatlaridan biri alohida subyektlar doirasidan iboratligidir. Bular, birinchi navbatda, 1) ariza beruvchilar – Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilgan organ yoki shaxslar; 2) konstitutsiyaga muvofiqligi tekshirilishi kerak bo'lgan hujjatni chiqargan yoki imzolagan organlar yoki mansabdor shaxslar;

uchinchidan, vakolatlari nizolashilayotgan davlat organlari; qabul qilinayotgan qarorlarining yuridik kuchi hamda qat'iylik xususiyati. Konstitutsiyaviy sud qarorlari ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas;

to'rtinchidan, konstitutsiyaviy sud ish yurituvida instansiyalar mavjud emas. Konstitutsiyaviy sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish qonunda nazarda tutilgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin (masalan, qaror chiqarilgan paytda Konstitutsiyaviy sudga noma'lum bo'lgan yangi ochilgan holatlar munosabati bilan; qaror qabul qilinishiga asos bo'lgan konstitutsiyaviy norma o'zgargan taqdirda; Konstitutsiyaviy sud mazkur qarorni konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan deb topgan taqdirda).

beshinchidan, sud ish yurituvini tartibga solishning yuridik shakliga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega. Konstitutsiyaviy sud ish yuritish tartibi alohida kodeks bilan emas, qonunlar bilan tartibga solinadi⁸⁴;

oltinchidan, konstitutsiyaviy sud ish yurituvining maxsus protsessual shaklga egaligi. Masalan, masala kiritish huquqiga ega bo'lgan subyektlar doirasining chegaralanganligi, ishlarni kollegial tarzda ko'rilishi, protsessual muddatlarning o'ziga xosligi va h.k.

Yuqoridagi tahlillar asosida qayd etish joizki, **konstitutsiyaviy sud ish yurituvini** Konstitutsiya va qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirishning protsessual shakli bo'lib, Konstitutsiyaviy sud tomonidan o'z

⁸⁴ Faqatgina Peruda konstitutsiyaviy sud ish yurituvini bilan bog'liq masalalar Konstitutsiyaviy-protsessual kodeks (2004) bilan tartibga solinadi. "Konstitutsiyaviy sud ish yurituvini to'g'risida"gi alohida qonun Gruziyada 1996-yil 21-martda, Belarusda 2014-yil 8-yanvarda hamda Moldovada 1995-yil 16-iyunda qabul qilingan.

vakolatlari doirasida ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish bilan bog'liq **harakat, huquqiy munosabat hamda tartib-taomildir**. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvining quyidagi xususiyatlarini tavsiflash mumkin:

- konstitutsiyaviy sud ish yurituvi Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga taalluqli ishlarning ko'rib chiqilishi hamda hal etilishining qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibini belgilaydi;

- konstitutsiyaviy sud ish yurituvi vakolatli subyektlarning konstitutsiyaviy sud ish yurituvi bilan bog'liq faoliyatidir.

- bu konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishni amalga oshirish tartibini belgilovchi alohida huquqiy normalar tizimidir.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari doirasida ishlarni ko'rib chiqish, hal qilish bilan bog'liq faoliyati bo'lib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy, iqtisodiy sud ish yurituvidan ishlarning xususiyati, ko'rib chiqish jarayoni, subyektlar doirasi va qabul qilingan qarorlarning kuchi va ahamiyati jihatidan farq qiladi. "Konstitutsiyaviy sud ish yurituvida, qoida tariqasida, ishning haqiqiy holatlari aniqlanmaydi, lekin huquq masalalari hal etiladi, qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar normalarining Konstitutsiyaga, uning tamoyillariga muvofiqligi belgilanadi, bu esa Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, konstitutsiyaviy protsessda odatda instansiya bo'lmaydi, Konstitutsiyaviy sud tomonidan chiqarilgan yakuniy qaror qat'iy hisoblanadi (qonunlarda ko'rsatilgan ayrim hollar bundan mustasno) va shikoyat qilinishi mumkin emas⁸⁵. Adabiyotlarda "konstitutsiyaviy sud ish yurituvi" hamda "konstitutsiyaviy sud protsessi" terminlari qo'llanadi va ularning o'zaro farqli xususiyatlari keltiriladi. Bizning fikrimizcha, konstitutsiyaviy sud ish yurituvi hamda konstitutsiyaviy sud protsessi bir xil ma'noni anglatadi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunning 3 bobida Konstitutsiyaviy sudda ish yuritish hamda "konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish" jummalari qo'llangan.

⁸⁵ Karaxodjaeva Okilaxon Rufatovna. Features of the constitutional proceedings in the republic of uzbekistan. Journal of Law Research. 2021, 6 vol., issue 7, pp. 28-36.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvining boshqa ish yurituvlaridan farq qiluvchi xususiyatlaridan biri uning prinsiplaridir. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvining o'ziga xos xususiyati shundaki, u bir tomondan, konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish, ikkinchi tomondan, sud protsessual tarmoqlarining xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Shu sababli konstitutsiyaviy sud ishlarini huquqiy tartibga solish konstitutsiyaviy nazoratning tabiatidan kelib chiqadigan xususiyatlarga ega bo'lgan odil sudlovni amalga oshirishning an'anaviy prinsiplariga asoslanadi. Prinsiplar tizimi ushbu institutga yaxlitlik beradi va uni konstitutsiyaviy huquqning boshqa institutlaridan chegaralaydi.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi prinsiplari qonun bilan mustahkamlangan, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy prinsipning hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi boshqa normalarining ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydigan, ishlarning har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rilishiga ko'maklashuvchi asosiy rahbariy qoidalaridir. O'zining mazmuni bo'yicha bu prinsiplar, konstitutsiyaviy sud ishlarini ko'rib chiqish va hal qilish borasidagi prinsiplardir.

Mazkur prinsiplarning belgilanishi, Konstitutsiyaviy sud tomonidan ishlar o'z vaqtida, qonuniy, adolatli qarorlar qabul qilinishining kafolati hisoblanadi.

I.S. Nazarova mazkur prinsiplarni quyidagicha tavsiflaydi: "Rossiya Federatsiyasida inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, mustaqillik (bu ikki jihatdan namoyon bo'ladi), kollegiallik, oshkoralik, og'zakilik, sud ishlarini yuritishda davlat tilidan foydalanish, uzluksizlik, tomonlarning tortishuvchanligi va tenglik, to'liqlik va keng qamrovlilik, protsessual tejamkorlik, qarorlarning majburiyligi"⁸⁶.

Mazkur prinsiplarning ayrimlari jinoiy, fuqarolik, ma'muriy sud ish yurituvi uchun ham xos bo'lib, konstitutsiyaviy sud ish yurituvi prinsiplarini to'liq tushunib olish uchun ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq: tartibga solish obyektiga ko'ra,

⁸⁶ Назарова И.С. онституционное судопроизводство: На материалах деятельности Конституционного Суда Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2000. С. 24.

umumhuquqiy, tarmoqlararo, sohaviy prinsiplar; shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning tashkil etilishi va faoliyatiga oid prinsiplar hamda bevosita ishni ko'rib chiqish va hal qilish bilan bog'liq prinsiplar sifatida tasniflashimiz mumkin. Konstitutsiyaviy sudning tashkil etilishi va faoliyatiga oid prinsiplar sifatida: hokimiyatlar bo'linishi, qonuniylik, mustaqillik, kollegiallik, Konstitutsiya va qonunning ustunligi va b.; bevosita ishni ko'rib chiqish va hal qilish bilan bog'liq *konstitutsiyaviy sud ish yurituviga oid prinsiplar*: odil sudlovga erishish, sud ishlari yuritiladigan til, oshkoralik, taraflarning tortishuvi, konstitutsiyaviylik prezumpsiyasi, og'zakilik, inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, dalillarni o'rganishda bevositalik, sud ishlarini ko'rib chiqishning uzluksizligi, xolislik va h.k. Mazkur prinsiplar bir-biri bilan o'zaro bog'liq hamda biri-birini to'ldirib turadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustunligi, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishning asosiy prinsiplari sifatida belgilangan⁸⁷.

Ilmiy adabiyotlarda "konstitutsiyaviy qonuniylik" konstitutsiyaviy sud faoliyatida asosiy prinsip sifatda keltiriladi. Konstitutsiyaviy qonuniylik tushunchasiga turli ta'riflar berilgan. Xususan, konstitutsiyaviy qonuniylik Konstitutsiyaviy sud va sud protsessining boshqa ishtirokchilari tomonidan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga rioya etilishini ta'minlash, uning ustunligi va bevosita harakatini ta'minlashdir⁸⁸.

Milliy huquqshunos olimlardan A.B. Gafurov konstitutsiyaviy qonuniylik ahamiyati xususida "Konstitutsiya hamda qonunlarning ustuvorligi prinsipini amalga oshirishning muhim omili bo'lib, u mamlakatni demokratik huquqiy davlat sifatida rivojlantirish shartlaridan biridir", – deb e'tirof etadi. ... konstitutsiyaviy qonuniylik Konstitutsiya normalari ustunligi, ularning mamlakat hududida to'g'ridan to'g'ri amal qilishi, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini e'tirof etish bilan bir qatorda Konstitutsiya normalarining

⁸⁷ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son.

⁸⁸ Усов А. Ю. Теоретические основы конституционного судопроизводства в Российской Федерации: монография / А. Ю. Усов. – Иркутск: Иркутского юридического института (филиала) Университета прокуратуры Российской Федерации, 2020. – 189 с.

xalqaro huquqning prinsiplari va normalariga muvofiqligini ko'zda tutadi⁸⁹.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash joizki, konstitutsiyaviy qonuniylik – Konstitutsiyaning mamlakatning oliy qonuni sifatida ustunligi, to'g'ridan to'g'ri amal qilishi, Konstitutsiya normalarining xalqaro huquqning prinsip va normalariga muvofiqligi hamda Konstitutsiyada belgilangan qoidalarga rioya qilish hamda uning buzilishini oldini olishdir. Konstitutsiyaviy qonuniylik tushunchasi bevosita konstitutsiyasida mavjud yoki undan kelib chiqadigan talab va normalarga, shuningdek, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilishni nazarda tutadi. “Bunda “konstitutsiyaviy” so'zi qonuniylik talabi o'z mohiyatiga ko'ra har doim konstitutsiyaviy ekanligini ta'kidlaydi, chunki qonuniylikning umumiy shartlari davlatning konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan va qonunlarida ishlab takomillashtirilgan⁹⁰. Qonunda konstitutsiyaviy qonuniylik tushunchasini “Konstitutsiyaviy sudga har yili Oliy Majlis palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etish” jumlasida uchratish mumkin. Konstitutsiyaviy qonuniylik tushunchasi ilmiy jihatdan keng yoritilmagan.

Ayniqsa, Konstitutsiyaviy sud organi konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashda hal qiluvchi rolga ega bo'lib, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi. Konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash konstitutsiyaviy nazorat bilan uzviy bog'liqdir. Bunday holda u konstitutsiyaviy nazoratning ixtisoslashtirilgan organi – Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan ayrim huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi yoki nomuvofiqligini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, konstitutsiyaviy tuzum

⁸⁹ Гафуров А.Б. Конституциявий қонунийликни таъминлаш юртимизнинг барқарор ривожланиши кафолатидир. // <https://old.xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/12238-1>

⁹⁰ Громова О.Н. Конституционная законность и ее обеспечение в Российской Федерации// ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО: состояние и пути совершенствования. // file:///C:/Users/Acer/Downloads/konstitutsionnaya-zakonnost-i-ee-obespechenie-v-rossiyskoy-federatsii.pdf

asoslarini, inson va fuqaroning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining ustuvorligi va bevosita ta'sirini ta'minlash maqsadida harakat qiladi⁹¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustunligi va to'g'ridan to'g'ri harakatini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining muhim maqsadlaridan biridir. Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaviy qonuniylikni to'g'ri va bir xil tushunishda o'zining qonunga asoslangan talqinlari orqali yordam beradi. U asosiy qonunning konstitutsiyaviy-huquqiy ma'nosini ochib beradi, huquqni qo'llash amaliyotida boshqa har qanday rasmiy talqin istisno qilinishini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash bo'yicha mutlaq vakolatlariga ega.

Shuningdek, eng muhim prinsiplardan biri normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasidir. Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilingan reglamentda mazkur prinsip o'z aksini topgan edi, biroq qonun yangi tahrirda qabul qilingan qonunda ushbu prinsip nazarda tutilmaganligi namoyon bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasini J. Merfi "hokimiyatning saylanmagan tarmog'i – sud hokimiyati tomonidan xalqning saylangan vakillarining harakatlariga ko'rsatadigan hurmat atributi" sifatida qayd etadi⁹². Umuman olganda, konstitutsiyaviylik prezumpsiyasi normativ-huquqiy hujjatning nomuvofiqligi Konstitutsiyaviy sudning qarori bilan aniqlanmaguncha konstitutsiyaviy hisoblanadi mazmunini aks ettiradi. Konstitutsiyaviylik prezumpsiyasining maqsadi har bir e'tirozga uchragan qonun bo'yicha sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi organ bilan to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik,

⁹¹ О.Н. Громова. Конституционная законность и ее обеспечение в Российской Федерации// ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО: состояние и пути совершенствования// file:///C:/Users/Acer/Downloads/konstitutsionnaya-zakonnost-i-ee-obespechenie-v-rossiyskoy-federatsii.pdf

⁹² Attorney-General (WA) v Australian National Airlines Commission (1976) 138 CLR 492 at 528 (Murphy J); see also Henry Burmester, The Presumption of Constitutionality (1983) 13 FL Rev 277. Cited by Jeremy Kirk, Rights, Review and Reasons for Restraint, 23(19) Sydney Law Review 19 (2001)

davlatning turli organlarining teng pozitsiyasini amalda aks ettirish, qonun hujjatlariga asoslanmagan e'tirozlarga yo'l qo'ymaslikdir.

Moldova Respublikasining Konstitutsiyaviy yurisdiksiya to'g'risida"gi kodeksi "Normativ hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligi prezumpsiyasi" nomli 7-moddasida quyidagilar belgilangan: "Har qanday normativ-huquqiy hujjat, shuningdek, tomonlardan biri qatnashgan xalqaro shartnoma Moldova Respublikasi konstitutsiyaviy sud ish yuritish jarayonida uning konstitutsiyaga zidligi ushbu kodeksda nazarda tutilgan barcha kafolatlar bilan isbotlanmaguncha konstitutsiyaviy hisoblanadi"⁹³.

Ta'kidlash joizki, normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi prezumpsiyasining bevosita belgilanmaganligi ushbu huquqiy prezumpsiyaning yo'qligini ko'rsatmaydi, zero har bir normaning mazmuniga ushbu prinsip singdirilgan. Shu bilan birga, ushbu prezumpsiyaning to'g'ridan to'g'ri normativ tarzda belgilanmaganligi uning turli xil talqinlari bilan bog'liq bo'lgan muayyan huquqiy ziddiyatlarni, shuningdek, ularni amalga oshirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois mazkur prinsipni konstitutsiyaviy sud ish yurituvining asosiy prinsiplaridan biri sifatida belgilash taklif etiladi. Shu o'rinda quyidagi fikrlarni o'rinli deb hisoblaymiz: "Qonunlarning sifati va huquqiy tartibga solishning samaradorligi ko'p jihatdan ular-da tamoyillar qanday shakllantirilganligi va yoritilganligi bilan bog'liq"⁹⁴.

Shuningdek, qonunda Konstitutsiyaviy sud qarorlarining qonuniyligi va asoslantirilganligi prinsipini belgilash maqsadga muvofiq. Mazkur prinsipning belgilanishi konstitutsiyaviy sud ish yurituvini jarayonida yanada mas'uliyatni kuchaytiradi.

Amalda Konstitutsiyaviy sud qarori (huquqiy pozitsiyasi) ning motivatsiya qismi huquqiy asosi na qonunlarda, na konstitutsiyada mavjud emas. Ko'pgina mualliflarning ta'kidlashicha, ko'pincha Konstitutsiyaviy sud sudyalarining

⁹³ Кодекс конституционной юрисдикции Республики Молдова от 16.06.1995 № 502-XIII // Monitoru Oficial. 1995. № 53-54.

⁹⁴ Зажицкий В. И. Правовые принципы в законодательстве Российской Федерации // Государство и право. 1996. № 11. С. 92.

alohida fikrlari Konstitutsiyaviy sudning qarorlaridan ko'ra ko'proq asosli ko'rinadi⁹⁵.

O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud qarorlari yuzasidan "Konstitutsiyaviy sud qarorlarini o'qigan kishi birinchi navbatda ularning qisqaligini ko'radi. Qarorlarning o'rtacha uzunligi 2-4 sahifani tashkil qiladi. Batafsil huquqiy tahlilni umuman ko'rmaysiz. Bu esa Konstitutsiyaviy sud maqomi va huquqiy tizimdagi o'zni uchun qabul qilib bo'lmaydigan holat⁹⁶.

Sud qarorlari sifatini tahlil qilishda 2014-yil 22-aprelda ko'rib chiqilgan ishni misol qilib keltirish mumkin. Mazkur ishda Konstitutsiyaviy sud fuqarolik to'g'risidagi qonunning 21-moddasida belgilangan, agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa, O'zbekiston fuqaroligini yo'qotishi to'g'risidagi qoidani ko'rib chiqadi. Afsuski, Konstitutsiyaviy sud hech qanday jiddiy tahlilsiz, mazkur qoida "doimiy yashash uchun chet elga chiqishga ruxsatni tegishli ravishda rasmiylashtirmasdan va besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmasdan chet elda doimiy yashayotgan shaxslarga" nisbatan qo'llanishi mumkin, degan xulosaga keladi⁹⁷. Umuman olganda, qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligi prinsipi belgilanishi Konstitutsiyaviy sudning "huquq ijodkori" bo'lish xavfining oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi prinsiplari konstitutsiyaviy sud ish yurituvining maqsadlarini belgilaydi hamda o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

⁹⁵ Сасов К.А. Проблемы реализации полномочий конституционного суда российской федерации: материально-правовые и процессуальные аспекты. Автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук.М.2005. С. 28.

⁹⁶ <https://advokatnews.uz/xabar/687.html>

⁹⁷ O'sha manba.

3.2. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvini bosqichlarining umumiy tavsifi

O'zbekistonda konstitutsiyaviy sud ish yurituvini bilan bog'liq masalalarning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Konstitutsiyaviy sudning protsessual faoliyati muammolarining nazariy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmaganligi, konstitutsiyaviy sud ish yurituviga oid yaxlit nazariyaning yo'qligi;

2) konstitutsiyaviy sud ish yurituvining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishning ahamiyati;

3) konstitutsiyaviy sud ish yurituvini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish zarurati.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvini bosqichlari – konstitutsiyaviy sud ish yurituvini subyektlarining muayyan protsessual maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan o'zaro bir-biriga bog'liq harakatlar majmui.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvini bosqichlari qonun bilan qat'iy belgilangan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Har bir bosqich muayyan mustaqil bir maqsadga erishishga mo'ljallangan bo'lib, pirovard maqsadi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganidir. Har bir bosqich nisbatan mustaqil ammo bir-biri bilan uyg'unlikda bo'lib, muayyan hujjat bilan rasmiylashtiriladi.

Milliy huquqshunos olim A.B. Gafurov konstitutsiyaviy ish yuritish bosqichlarini uch turga bo'lib tasiflaydi: Konstitutsiyaviy sudga masala kiritish, Konstitutsiyaviy sudda ishni ko'rib chiqish, Konstitutsiyaviy sud qarorini qabul qilish va e'lon qilish. Olim konstitutsiyaviy ish yuritishda qarorlarni ijro etishni bosqichlardan biri sifatida ko'rsatmaydi. Bizningcha, konstitutsiyaviy sud ishlarini eng muhim bosqichlaridan biri ijro etish bosqichidir. Chunki aynan mana shu bosqichda Konstitutsiyaviy sud qarorlarining amalga bajarilishi ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvini bosqichlarini huquqshunos olim I.S. Nazarova quyidagicha tasniflashni taklif qiladi:

1) Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish va ularni dastlabki o'rganish;

2) ishni ko'rib chiqish uchun tayinlash va tayyorlash;

- 3) sud jarayoni;
- 4) qaror qabul qilish;
- 5) qarorning e'lon qilinishi, nashr qilinishi va kuchga kirishi;
- 6) qarorni ijro etish.

Shuningdek, u qarorni qayta ko'rib chiqish jarayonini ham mazkur bosqichga kiritadi⁹⁸.

Mazkur tasnif asosli bo'lib, bizning fikrimizcha, ham konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi bosqichlari Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish va ularni dastlabki o'rganish; ishni ko'rib chiqish uchun tayinlash va tayyorlash; sud muhokamasi; yakuniy qaror qabul qilish; qarorning e'lon qilinishi va kuchga kirishi; qarorni ijro etishdan iborat.

Milliy qonunchiligimizda konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi tartibga solinishi lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud bo'lib, ularni konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi bosqichlari tahlili asosida tasniflaymiz.

Xususan, Tailandda konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi "Konstitutsiyaviy sud ish yurituvchi tartib-taomillari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinishi, agar mazkur tartib-taomillar bilan qamrab olinmagan masalalar mavjud bo'lsa, fuqarolik protsessual kodeksi qoidalari qo'llanishi belgilangan. O'zbekiston qonunchiligida bunday qoidalar nazarda tutilmagan.

Konstitutsiyaviy sudda ishning dastlabki bosqichi **Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish va ularni dastlabki o'rganish** bosqichidir. Konstitutsiyaviy sudga murojaatni ko'rib chiqish uchun Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish huquqiga ega bo'lgan davlat organlarining va mansabdor shaxslarning murojaati, shuningdek, fuqarolarning va yuridik shaxslarning shikoyatlari asos hisoblanadi. Aynan mana shu bosqichda murojaatni dastlabki tartibda o'rganiladi hamda ko'rib chiqish uchun qabul qilish yoki rad etish masalasi hal etiladi. Shu bois dastlabki o'rganish mustaqil bosqichlardan biridir.

Murojaatlarni o'rganib chiqish ish yuklamasi va ixtisoslikka mutanosib ravishda Konstitutsiyaviy sudning sudyalari, katta

⁹⁸ Гафуров А.Б. Ўзбекистонда конституциявий суд назоратининг шаклланиши ва ривожланиши: назария ва амалиёт масалалари. Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Т.:2023. Б. 137.

ekspertlari va ekspertlariga topshiriladi. Murojaatni o'rganib chiqish bir necha ijrochiga ham topshirilishi mumkin. Konstitutsiyaviy sudning raisi yoki uning o'rinbosari topshirig'iga asosan murojaatlar ijrochilarga tarqatiladi. Ijrochilar tomonidan murojaat qabul qilinib, ish yuritish qoidalariga muvofiq tegishli hisobga olish kartochkalari to'ldiriladi. Konstitutsiyaviy sud vakolatiga taalluqli bo'lmagan murojaatlar Konstitutsiyaviy sud devoni tomonidan o'rganib chiqiladi. Konstitutsiyaviy sud vakolatiga taalluqli bo'lmagan murojaatlar katta ekspertlar va ekspertlarga o'rganish uchun topshiriladi. O'rganish yakuni bo'yicha har bir murojaat yuzasidan tegishli tartibda ma'lumotnoma tuziladi va bu ma'lumotnomaga katta ekspert yoki ekspert birlashtirilgan sudya tomonidan viza qo'yiladi.

Hal etilishi boshqa organlarning vakolatiga kiruvchi masalalar aks ettirilgan murojaatlar Konstitutsiyaviy sud raisining o'rinbosari bilan kelishgan holda besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga yuboriladi va bu haqda murojaat etuvchiga xabar beriladi. Konstitutsiyaviy sud ko'rib chiqishi uchun kiritilgan murojaatni murojaat qiluvchi ishni sud majlisida ko'rish boshlanguniga qadar chaqirib olishi mumkin.

Kiritilgan murojaat chaqirib olingan taqdirda ishni yuritish tugatilib, bu haqda Konstitutsiyaviy sud ajrim chiqaradi.

"Agar murojaat qaytarib olinsa yoki e'tiroz bildirilgan hujjat kuchga kirmasa, sud buni jamoat manfaatlari uchun zarur deb hisoblasa, ish yuritishni davom ettirishi mumkin" mazmunidagi qoidani qonunga aks ettirish tavsiya etiladi.

Venetsiya Komissiyasining xulosalarida jamoat manfaatlari uchun Konstitutsiyaviy sudning ish yuritishni davom ettirishini muhim deb hisoblaydi. Qonunda ishlarni qabul qilish va rad etish tartibi yoritilgan bo'lsa-da, bir qator protsessual masalalar ochiq qoldirilgan. Xususan, ishlarni birlashtirish, ya'ni Konstitutsiyaviy sudga kiritilgan murojaatlar, qoida tariqasida, mustaqil ish yuritish asosida ko'rib chiqilishi belgilangan, ammo agar arizani ko'rayotgan sudya talablarni ajratib ko'rishni maqsadga muvofiq deb topsa, bu holda bir nechta talabni alohida ish yuritishga ajratish masalasi yoritilmagan; ikkinchidan, Konstitutsiyaviy sudning sudyasini ishni

ko'rishda ishtirok etishdan chetlashtirishga oid qoidalar belgilangan bo'lsa-da, shunday vaziyatda xabar berish tartibi, muddati kabi masalalar yoritilmagan. Shuningdek, ekspert, mutaxassis, tarjimonning *ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligi va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qarindoshi bo'lsa* va boshqa asoslarga ko'ra chetlashtirish (rad etish) masalasi ochiq qoldirilgan.

Shu bois bugungi kunda konstitutsiyaviy sud ish yurituvining barcha masalalarini qamrab oladigan Konstitutsiyaviy sud ish yurituvi to'g'risida alohida qonun qabul qilish zaruriyati mavjud. Bu qonunning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi protsess ishtirokchilari huquqlari va qonuniylikning kafolati sifatida maydonga chiqadi hamda aynan u demokratik davlatning zaruriy talabidir. Aynan protsessual shaklning mavjudligi sudning mustaqilligini mustahkamlaydi.

Ikkinchi bosqich – ishni ko'rib chiqish uchun tayinlash va tayyorlash bosqichi bo'lib, ishni sud majlisida ko'rish uchun tayinlash to'g'risidagi ajrim murojaat ko'rish uchun qabul qilinganidan so'ng bir oydan kechiktirmay Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilinadi. Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish ishtirokchilariga sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvida ishlarni keyinga qoldirish, tugatishga oid masalalar belgilangan, ammo eng muhim masalalardan biri – ishlarni to'xtatib turish instituti xususida yoritilmagan.

Fuqarolik protsessual kodeksning 16-moddasida sudning ish yuritishni to'xtatib turish majburiyati keltirib o'tilgan.

1) ishda taraf bo'lgan fuqaro vafot etganda, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa yoki ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda;

2) fuqaro (taraf) muomala layoqatini yo'qotganda;

3) javobgar fuqaro O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismida bo'lganda yoki O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismidagi da'vogar – fuqaro tegishli iltimosnoma bilan murojaat qilganda;

4) mazkur ishni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha sud, jinoyat ishlari bo'yicha sud, ma'muriy sud yoki iqtisodiy sud tomonidan ko'rilayotgan boshqa ish yoki masala yuzasidan, shuningdek, tergov olib borilayotgan ish yuzasidan qaror qabul qilguniga qadar ko'rish imkoni bo'lmaganda;

5) taraf chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlig sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida yoki uning ijrosini to'xtatib turish haqida chet davlatning vakolatli organiga iltimosnoma berganda;

6) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda.

Biroq Fuqarolik protsessual kodeksida aks etgan qoida, "ya'ni mazkur ish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan ko'rilayotgan holat" Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunda yoritilmagan. Umuman, Konstitutsiyaviy sudda ish yuritishni to'xtatib turish tartibi, muddati, ish yuritishni tiklash asoslari aniq keltirilmagan.

Masalan, Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tartibga soluvchi qonunda kechiktirib bo'lmaydigan vaziyatlarda, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi ish ko'rib chiqilishi tugaguniga qadar bahslashilayotgan hujjatning amal qilishini, Rossiya Federatsiyasining nizoli xalqaro shartnomasining kuchga kirish jarayonini to'xtatib turish taklifi bilan tegishli organlar va mansabdor shaxslarga murojaat qilishi mumkinligi keltirilgan.

Shu bois "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda ish yuritishni to'xtatib turishga oid masalalar qat'iy, aniq yoritilishi lozim. Shu bilan birga, qonunchiligimizda, konstitutsiyaviy sud ish yurituvida dalillar masalasi xususida so'z yuritilmagan. Tarablarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligini Konstitutsiyaviy sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumot va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar konstitutsiyaviy sud ishi bo'yicha dalillardir.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvda dalillar manbalari: taraflarning va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko'rsatuvlari, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari) bilan aniqlanishi mumkin.

Qonunda dalillar, ularning manbalari, baholash kabi masalalar mustahkamlanishi lozim.

Uchinchi bosqich - sud muhokamasi; yakuniy qaror qabul qilish bosqichi;

Ishni sud majlisida ko'rish uchun tayinlash to'g'risidagi ajrim murojaat ko'rish uchun qabul qilinganidan so'ng bir oydan kechiktirmay Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilinadi. Mazkur bosqichda ishlar bevosita va og'zaki eshituvlar o'tkazilmasdan ko'rilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud **mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash, O'zbekiston Respublikasi **qonunlarining normalariga rasmiy sharh berish to'g'risidagi ishlarni** og'zaki eshituvlar o'tkazmasdan ko'rish mumkin.

Biroq, qonunda og'zaki eshituvlar o'tkazmasdan ish yuritish tartibi, buni o'tkazish bo'yicha sudyaning harakatlari, muddati, tegishli materiallarni berish uchun yozishmalar olib borish tartibi va boshqa qoidalari to'liq yoritilmagan. Bu borada Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudining reglamentida to'liq yoritilgan. Shu bilan birga, qonunda agar konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish ishtirokchilaridan biri ishni og'zaki eshituvlar o'tkazmasdan ko'rishga qarshi e'tiroz bildirsa, ish umumiy tartibda ko'rib chiqilishi belgilangan. Biroq qonunda ariza be-ruvchining eshitish zaruriyati mezonlari to'liq keltirilmagan.

Umuman murojaat qiluvchining so'roviga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud barcha murojaatlarni og'zaki eshituvlar o'tkazmasdan ko'rish imkoniyati joriy etilishi kerak. Yozma ish yuritishda ham konstitutsiyaviy sud ish yurituvining barcha prinsiplari tatbiq etiladi⁹⁹. Shu bois qonunda birinchi navbatda og'zaki eshituv-

⁹⁹ Россия Федерациясининг "Конституциявий суди тўғрисида"ги қонуни 471-моддаси, Латвиянинг "Конституциявий суд тўғрисида"ги қонуни 281-моддаси, Беларус "Конституциявий суд иш юритуви тўғрисида"ги қонуни 11-моддаси учинчи қисмида назарда тутилган.

lar o'tkazmasdan ish yuritish tartibi boshqa masalalar bo'yicha ham (faqat mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining normalariga rasmiy sharh berishdan tashqari) konstitutsiyaviy sud ish yurituvining boshqa turlarida ham qo'llanishi mumkinligini qonunda aks ettirish taklif etiladi.

To'rtinchi bosqich – qarorning e'lon qilinishi va kuchga kirishi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari, xulosalari va boshqa to'xtamlari ommaviy axborot vositalarida hamda Konstitutsiyaviy sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish protsessual masalalari va o'z faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar Konstitutsiyaviy sudning ixtiyoriga ko'ra e'lon qilinadi.

“O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami”, “Xalq so'zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari, “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Axborotnomasi”, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi Konstitutsiyaviy sudning qarorlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari va xulosalari qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida rasmiy e'lon qilinishi lozim hamda rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Boshqa qarorlar qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Beshinchi bosqich – qarorni ijro etish. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas deb topilgan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan davlat organi o'z hujjatini Konstitutsiyaviy sudning qarori asosida bir oydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq lashtirishi kerak. Mazkur bosqich Konstitutsiyaviy sud faoliyatida muhim o'rin tutadi. Konstitutsiyaviy sud qarorlarni vaqtida sifatli ijro etilmasligi uning nufuziga putur yetkazadi. Konstitutsiyaviy sudda majburlov apparati mavjud emas ijro etish masalasi turli davlat organlariga yuklanadi. Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari barcha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy sud ish yurituv bosqichlari klassik sud ish yurituv (fuqarolik, ma'muriy) bosqichlariga o'xshash va shu bilan birga o'ziga xos xususiyatlarga ega.

3.3. Konstitutsiyaviy sud hujjatlarining yuridik tabiati va ularni takomillashtirish masalalari

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunida normativ-huquqiy hujjatning, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh berish to'g'risida ko'rib chiqilgan ishning mohiyati bo'yicha Konstitutsiyaviy sudning yakuniy to'xtamlari qaror deb nomlanishi hamda Konstitutsiyaviy sud qarorni O'zbekiston Respublikasi nomidan qabul qilishi belgilangan.

Qonun asosida Konstitutsiyaviy sud hujjatlarining quyidagi xususiyatlarini keltirib o'tish mumkin:

1) Konstitutsiyaviy sud hujjatlarining normativligi (umummajburiyligi);

2) hujjatlarining qat'iyligi (rad etilmasligi) hamda ular ustidan shikoyat qilish mumkinmasligi,

3) Konstitutsiyaviy sud hujjatlari hamda talablarining ijro etilishi shartligi;

4) Konstitutsiyaviy sud tomonidan murojaat predmeti yuzasidan qaror qabul qilingan bo'lsa, ish qayta ko'rib chiqilmasligi (Konstitutsiyaviy sud qarorini qaytadan ko'rib chiqish asoslari mavjud bo'lgan hollar bundan mustasno);

5) normativ-huquqiy hujjatning butunlay yoki ayrim qismlarini nomuvofiqligini aks ettirishi;

6) qarorni O'zbekiston Respublikasi nomidan qabul qilinishi.

Yuridik adabiyotlar tahlili Konstitutsiyaviy sud qarorlarining umummajburiylik xususiyatidan kelib chiqib, huquq manbalari tarkibiga kirishi masalasida yakdil yondashuv yo'qligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyaviy sudning ajrimlari va qarorlari huquq manbalari iyerarxiyasidagi o'rni xususida ikkita pozitsiya mavjud:

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qonunlar hamda qonun osti hujjatlariga qaraganda yuqori yuridik kuchga ega bo'lib, qonun hujjatlarining asosiy qonunga muvofiqligini tekshirishi, konstitutsiyaviy normalarni sharhlash xususiyati hamda Konstitutsiyaviy sudning qarorlari shikoyat qilinishi, bekor qilinishi, qayta ko'rib chiqilishi mumkin emasligi ularni boshqa huquq manbalaridan ham ustun qo'yadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari huquqni qo'llash hujjatlari hisoblanadi, chunki Konstitutsiyaviy sudning faoliyati norma ijodkorligi bilan bog'liq emas.

O'zbekiston qonunchiligida Konstitutsiyaviy sud qarorlari huquq manbasi deb hisoblanmaydi. V.A. Savitskiy Konstitutsiyaviy sud qarorlarining huquq manbasi hisoblanishi yuzasidan quyidagilarni qayd etadi: "Huquqiy normalar turli manbalardan kelib chiqishi mumkin. Ular mohiyatan huquqiy normalar ekanligi muhim ahamiyatga ega. Demak, huquqiy an'ana, bizningcha, har doim ham huquqning haqiqiy manbalarini aniqlash o'lchovi bo'lib xizmat qila olmaydi. Har bir muayyan davlatning huquqiy tizimi jadal rivojlanib borayotgan tizim bo'lib, doimiy ravishda o'zgarib turadi hamda yangi belgi va muhim xususiyatlarga ega bo'ladi¹⁰⁰". Shu bois bugungi kunda Konstitutsiyaviy sud qarorlarining hozirgi zamon rivojlanish tendensiyalariga muvofiq huquq manbalari tizimidagi o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ko'plab huquq tizimlari mavjud bo'lib, ular turli huquq manbalarini nazarda tutadi. Qolaversa, normativ-huquqiy hujjatlarning bir davlat chegarasida ham qabul qilinishi turli maqsadlardan kelib chiqadi. Biroq huquq tizimining muvaffaqiyatli ishlashi va rivojlanishi faqat iyerarxiyada ma'lum o'rin egallagan barcha huquq manbalarining o'zaro ta'siri bilan belgilanishi mumkin¹⁰¹.

¹⁰⁰ Савицкий В.А. Решения Конституционного суда Российской Федерации как источники конституционного права Российской Федерации//Ведомости Конституционного суда РФ. 1997. № 3.

¹⁰¹ Sultanova, S. (2018) "Interpretation of legal norms as an essential factor of correct law enforcement," Review of law sciences: Vol. 2 : Iss. 3 , Article 4. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol2/iss3/4

Ilmiy-nazariy jihatdan bir qator olimlar Konstitutsiyaviy sud qarorlarini huquq manbalari turiga kiritishsa¹⁰², aksariyat olimlar Konstitutsiyaviy sudning huquq ijodkorligini inkor etadilar. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi raisi V.D. Zorkin “Konstitutsiyaviy sudning huquqiy pozitsiyasi o‘zining pretsedent xususiyati bilan bir qatorda barcha sudlarga ta’sir ko‘rsatadi. Konstitutsiyaviy sudning qarorlarida aks ettirilgan huquqiy pozitsiyasi haqiqatda uning qonun ijodkorligining alohida turini aks ettiradi¹⁰³.”

Qayd etish joizki, sud pretsedenti xorijiy mamlakatlarda huquq manbasi sifatida tan olinsa-da, pretsedent hamda Konstitutsiyaviy sud qarorlarida farqlar mavjud. Jumladan, Konstitutsiyaviy sud qarorlari umumiy mazmun kasb etsa, pretsedent muayyan ish yuzasidan qabul qilinadi. Pretsedent individuallik, me’oriy yangilik va majburiyat bilan tavsiflanadi¹⁰⁴. Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari muayyan ishlarni hal qilishda qonunlarning o‘rnini bosa olmaydi va boshqa sudlar o‘z ishlarini Konstitutsiyaviy sudning qarorlari orqali asoslamaydi. Sud qaror qabul qilishda birinchi navbatda normativ-huquqiy hujjatga, shundan keyingina Konstitutsiyaviy sudning tegishli qaroriga murojaat qiladi. Pretsedent muayyan ishda ishtirok etayotgan tomonlar uchun majburiy bo‘lsa, Konstitutsiyaviy sudning hujjatlari barcha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Shuningdek, pretsedentning xususiyati to‘g‘risida S. Sipulin “Sud amaliyotida yaratilgan huquqiy norma, afsuski, hozirgi vaqtda

¹⁰² Витрук Н.В. Правовые позиции Конституционного Суда Российской Федерации: понятие, природа, юридическая сила и значение // Конституционное правосудие в меняющихся правовых системах. М., 1999. С. 91 Зорькин В.Д. Россия и Конституция в XXI веке. Взгляд с Ильинки. М. : Норма, 2007. С. 116–117). Лазарев Л.В. Конституционный Суд РФ и развитие конституционного права // Журнал российского права. 1997. № 11. С. 4. Богдановская И.Ю. Прецедентное право. М., 1993. С. 22 - 23 и др.; Алексеев С.С. Право: азбука - теория - философия: Опыт комплексного исследования. М., 1999. С. 78., Лившиц Р.З. Судебная практика как источник права // Судебная практика как источник права. М., 1997. С. 12, 15. В.В.Захаров. Решения Конституционного Суда Российской Федерации как источник конституционного права. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Саратов. 2004. С.28

¹⁰³ Зорькин В.Д. Прецедентный характер решений Конституционного Суда Российской Федерации // Журнал российского права. 2004. № 12.

¹⁰⁴ Жучкова Е.В. Правовые позиции Конституционного Суда Российской Федерации как источник права. Пробелы в российском законодательстве. 1’2009. С.50.

qonunchilik normalaridagi kabi nufuzga ega emas. Uni istalgan vaqtda yangi ish ko'rib chiqilishi munosabati bilan bekor qilish yoki o'zgartirish mumkin. Sud jarayoni, u o'zi yaratgan me'yorlarga hatto o'z qarorini isbotlash uchun asos qila olmaydi¹⁰⁵, – deb ta'kidlaydi.

V.S. Nersesyans Konstitutsiyaviy sud qarorlarini huquq manbasi qatoriga kiritishni inkor etgan holda: sudlar uchun bunday huquqni tan olmaydi va "...sud amaliyoti qonun ijodkorligi emas, balki faqat huquqni qo'llash faoliyati" deb hisoblaydi. "Hokimiyatlar bo'linishining asosiy ma'nosi shundaki, ularning har biri o'z ishini qiladi", – deb ta'kidlaydi¹⁰⁶.

G. Kelzenga ko'ra, hokimiyatlar bo'linishi tizimida sud huquq normalarini yaratishni maqsad qilgan emas. Huquqning ushbu normativistik konsepsiyasi tarafdorlari normativ-huquqiy hujjatni huquqning yagona manbai deb hisoblaydilar va qonun qarorlarini, garchi u konstitutsiyaviy bo'lsa ham, odil sudlovni amalga oshiruvchi organlarning hujjatlari bilan almashtirishni nomaqbul deb hisoblaydilar¹⁰⁷.

Olimlar Konstitutsiyaviy sud qarorlarini huquq manbasi qatoriga kiritishni inkor etishlariga asosan, sud amaliyotini huquq manbai sifatida e'tirof etish hokimiyatlarning bo'linishi tamoyiliga zid bo'lishi, sudning huquq ijodkorligi roman-german huquq oilasining xarakterli xususiyatlariga mos kelmasligi, bu ayni paytda qonun chiqaruvchi organlarning qonun ijodkorligi faoliyatini susaytirish yoki zaiflashtirish mumkinligini keltirishadi. Legitimlik muammosi shunday holatda vujudga keladiki, demokratik yo'l bilan saylanadigan qonun chiqaruvchidan farqli o'laroq, sudyalar tayinlanadi. Konstitutsiyaga zid deb hisoblangan normalarni qayta ko'rib chiqish jarayonida sudyalar tomonidan qabul qilingan qarorlarni rasmiy ravishda haqiqiy deb hisoblash mumkin emas¹⁰⁸.

¹⁰⁵ В.Сипулин. Судебный прецедент как источник права. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Краснодар-2008. С.27.

¹⁰⁶ Нерсесянц В. С. У российских судов нет правотворческих полномочий // Судебная практика как источник права. – М.: Юристъ. 2000. С. 107-108.

¹⁰⁷ Бондарь, Н.С. Конституционное правосудие как фактор модернизации российской государственности / Н. С. Бондарь // Журнал российского права. - 2005. - № 11. С. 15-22

¹⁰⁸ М.А.Александрова. Решения Конституционного Суда Российской Федерации как источник российского права. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. М.2017. С.32.

Ta'kidlash joizki, roman-german huquq tizimi har doim ham huquqning haqiqiy manbalarini aniqlash o'lchovi emas. Rossiya Federatsiya O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi doimiy ravishda o'zgarib turadi va yangi xususiyatlarga ega bo'ladi. Yuridik fanning vazifasi yangi tendensiyalarni o'z obyektiv baholash va tushuntirishdir.

Yuqoridagi yondashuvlarning tahlili O'zbekistonning zamonaviy yuridik fanida Konstitutsiyaviy sud qarorlarini huquqiy maqomini yoritishni ahamiyatini kuchaytiradi.

Birinchi yondashuv tarafdorlari Konstitutsiyaviy sudning qarorlarini qonun bilan tenglashtirishlariga sabab qilib, Konstitutsiyaviy sudning qarorlarida huquqiy normalar mazmunini o'z ichiga olishi va huquqiy normalarni bekor qilishi mumkinligi; – ko'p hollarda qonun kuchiga ega bo'lishi; Rossiya Federatsiyasi nomidan chiqarilishi, qat'iyligi va faqat ushbu organ tomonidan ko'rib chiqilishi; – Rossiya Federatsiyasining butun hududida barcha davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar va ularning birlashmalari uchun majburiyligi, rasmiy e'lon qilinishi shartligi, katta axloqiy hokimiyatga egaligi keltiriladi¹⁰⁹.

Mazkur yondashuvlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tahlil qilgan holda Konstitutsiyaviy sud qarorlarining huquq manbasi tizimidagi rolini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud hujjatlari barcha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy, shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat'iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas, uning qarorlari maxsus tartib-taomil asosida qabul qilinadi, rasmiy nashrlarda e'lon qilinadi. Konstitutsiyaviy sud qarorlarining normativligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: muayyan bir shaxsga emas, shaxslar doirasiga qaratilganligi, qarorlarning muntazam qo'llanishi (masalan,

¹⁰⁹ М.А. Александрова. Решения Конституционного Суда Российской Федерации как источник российского права. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. М.2017. С.153.

normativ hujjatni yoki uning bir qismini konstitutsiyaga nomuvofiq deb topish to'g'risidagi qaror xuddi shunday qoidani o'z ichiga olgan har qanday normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan ham amal qiladi), umummajburiyligi, ommaviy e'lon qilinishi, rasmiy aniqlik (huquq normalarining aniq yozma manbalardan keltirilganligi hamda mazmun jihatdan mantiqiy izchilligi).

Yuqorida sanab o'tilgan belgilar Konstitutsiyaviy sud qarorlarining normativ-huquqiy hujjat bilan o'xshash jihatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud qarorlarining huquq manbalari tizimidagi ahamiyatini ko'rsatib berishda Konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilingan qarorlarning ayrimlarini tahlil qilish lozim.

Xususan, Konstitutsiyaviy sud tomonidan 2006-yil 2-mayda "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 31-moddasining ikkinchi qismini sharhlash haqida¹¹⁰ ko'rib chiqilgan ish bo'yicha "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 31-moddasining ikkinchi qismidagi "qonunlar" tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari kirmaydi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga sharh bermaydi deb qaror qabul qilingan. Biroq "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir" jumlasini 2012-yil 24-dekabrda qabul qilingan (2021-yilda yangi tahrirda qabul qilingan qonunda esa qonun hujjatlaridir deb cheklanilgan xolos) qonunda ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, "***O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir***" jumlasining o'zgarishsiz qolganidan Konstitutsiyaviy sud qarorining majburiyligi prinsipi buzilganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z-o'zidan Konstitutsiyaviy sud qarorlarining huquq manbalari tizimidagi aniq maqomini belgilashni talab qiladi.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud tomonidan 2014-yil 22-aprelda ko'rib chiqilgan ishda Konstitutsiyaviy sud Fuqarolik to'g'risidagi

¹¹⁰ https://nrm.uz/products?folder=432316_konstituciaviy_sudi_qarorlari&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana.

Suleimanov M. Right as a system. – M.: Statute, 2016. p. 360; He is: Prospects for the introduction of judicial precedent in the legal system of Kazakhstan. p.4. <http://pravo.zakon.kz>.

Qonunning 21-moddasida belgilangan, agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa, O'zbekiston fuqaroligini yo'qotishi to'g'risidagi qoidani ko'rib chiqadi. Afsuski, Konstitutsiyaviy sud hech qanday jiddiy tahlilsiz, mazkur qoida "doimiy yashash uchun chet elga chiqishga ruxsatni tegishli ravishda rasmiylashtirmasdan va besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmasdan chet elda doimiy yashayotgan shaxslarga" nisbatan qo'llanishi mumkin, degan xulosaga keladi¹¹¹. Konstitutsiyaviy sud tomonidan qarorlarning yetarli darajada asoslantirilmaligi ham ayni paytda qonunchilik vakolatlarini o'zlashtirish elementlarini namoyon etadi.

Shuningdek, sud majlisida ovoz yozib olishni amalga oshirish yagona tartibini belgilash hamda sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining ovoz yozib olishni amalga oshirish huquqi cheklanishini bartaraf etish masalalari yuzasidan Fuqarolik protsessual kodeksining 208-moddasi, Iqtisodiy protsessual kodeksning 165-moddasi va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 143-moddasiga o'zgartirishlar kiritishga oid 2018-yil noyabrda Konstitutsiyaviy sud tuzatishlar loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritish haqida qaror qabul qilgan. Ko'rsatilgan uchta kodeksga tuzatishlarning o'zi 2019-yil 10-maydagi O'RQ-536-son Qonun bilan kiritilib, 11-maydan kuchga kirdi. Konstitutsiyaviy sud o'z qarorida ikkala holda bitta tushuncha nazarda tutilgan bo'lsa ham, bu bilan "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi buzilganligini qayd etgan. Unda to'g'ridan to'g'ri shunday deyilgan: qonun loyihasida foydalaniladigan tushunchalar va atamalar turlicha izohlash imkoniyatini istisno etadigan, ularning qonun hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda qo'llanadi.

Kiritilgan tuzatishlar bilan ushbu huquqbuzarlik bartaraf etildimi? Yo'q. IPKning 165-moddasi uchinchi qismi va MSIYTKning 143-moddasi ikkinchi qismida avvalgidek "audioyozuv", IPKning 165-moddasi beshinchi qismi va MSIYTKning 143-moddasi to'rtinchi

¹¹¹ <https://kun.uz/news/2018/12/16/qarorlar-bor-amaliy-ozgarishlar-yoq-konstitutsiyaviy-sudning-23-yillik-faoliyatiga-nazar>.

qismida esa “ovoz yozib olish” atamasi qo‘llangan¹¹². Konstitutsiyaviy sud muayyan masalani ko‘rib chiqish orqali qonunchilik tashabbusi tartibida parlamentga murojaat qiladi. Biroq mazkur tashabbus asosida qarorning qay tartibda, qancha muddatda ijro etilishi, ijro etilmaganda oqibati qanday bo‘lishi yoritilmagan.

Mazkur qarorlarda belgilangan vazifalar dolzarb, umummajburiy bo‘lsa-da, Konstitutsiyaviy sud qarorlarini ijro etilishini ta‘minlash bevosita mazkur qarorlarning huquqiy maqomiga bog‘liq. Konstitutsiyaviy sud qarorlari qonunchilik hujjati hisoblanmasa-da, mazmunan ahamiyati bo‘yicha, bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi qonunlaridan keyingi o‘rinda turadi. Konstitutsiyaviy sud qarorlarining normativligi jihatidan M.F. Kosolapovning fikrlariga qo‘shilish mumkin: “Sud-huquq ijodkorligi hech qanday tarzda parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatiga zid kelmaydi, chunki gap qonun ijodkorligining turli darajalari haqida ketmoqda. Qonun chiqaruvchi bu faoliyatda erkinroq bo‘lsa, sud hokimiyati esa qonun asosida va unga amal qilgan holda norma ijodkorligini amalga oshiradi¹¹³”.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaga muvofiqlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi siyosiy nizolarga ta‘sir o‘tkazadi, normalarga sharh beradi. Aynan mana shu vakolatlarni amalga oshirish jarayonida normativ xususiyatga ega qarorlar qabul qiladi. Jumladan, Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalarning amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanishiga olib kelgan noaniqliklar topilgan taqdirda rasmiy sharhlashi belgilangan.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiya normalarini kengaytirilgan sharhlash orqali hamda noaniqliklar topilganda, u yoki bu variantni tanlash va shu orqali boshqa bir holatni taqiqlash orqali normativ qaror qabul qiladi. Mazkur organ huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshirmaydi, qonunni bekor qilmaydi, aksincha, uni konstitutsiyaga nomuvofiq deb topib yoki muayyan ish bo‘yicha sharh berib

¹¹² O.Заманов. https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/sudda_ovozi_yozib_olish_nimalar_uzgardi.

¹¹³ М.Ф.Косолапов. Суд в системе государственной власти Российской Федерации: Конституционные аспекты. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук М. 2001. С.20.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga qonunchilik tashabbusi tartibida loyiha kiritadi. Aynan Konstitutsiyaviy sudning huquqiy hodisaga bergan bahosi, yuridik jihatdan parlament uchun ham, boshqa davlat organlari uchun ham majburiy hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy va huquqiy normalarni sharhlash hujjatlarining huquqiy tabiati muammosi bo'yicha ikkita asosiy nuqtayi nazar mavjud. Ulardan biri, sharhlash hujjati o'z mohiyatiga ko'ra huquq normalasining haqiqiy ma'nosi va mazmunini belgilashi, tushuntirilayotgan qoidaga hech qanday yangilik kiritmasligi kerak. Uning asosiy vazifasi mavjud normalarning mazmunini tushuntirish va aniqlashtirishdir. Boshqa nuqtayi nazarga ko'ra sharhlash hujjatlarining normativ xususiyatini tan olishdan iborat.

Ayrim olimlar vakolatli normativ sharhlash, shu jumladan, Konstitutsiyaviy sudning hujjatlariga nisbatan ham ularning umummajburiylikini belgilash, ularning normativ ekanligini tan olishga olib kelmasligi kerak degan mazmundagi fikrlarni ilgari surishadi.

Xususan, P.E. Nedbaylo sharhlash hujjatlari muayyan huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi va yangi huquqiy normalarni o'zida aks ettirmaydi, deb qayd etadi¹¹⁴.

E.V. Lukshin esa, aksincha, tushuntirishlar sharhlanadigan huquq normalarining bir qismidir va ular qonun ijodkorligi hujjatlari sifatida qaralishi kerak, deb hisoblaydi¹¹⁵. I.S. Samoshyenkoning fikriga ko'ra, sharhlovchi hujjatlar, garchi ular yangi huquqiy qoidalarni o'z ichiga olmasa-da, shunga qaramay, ulardagi qonunlarni sharhlash umumiy (normativ) va maxsus (individual) bo'lishi mumkin, chunki tushuntirishlar boshqa hujjatlar bilan bir xil shaklda bo'ladi¹¹⁶. S.S. Alekseyev mazmuni jihatidan sharhlovchi hujjatlarni huquqiy hujjatlarning alohida turi deb hisoblaydi¹¹⁷.

Yuqoridagi birinchi yondashuvni tahlil qilib qayd etish joizki, Konstitutsiyaviy sud tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni

¹¹⁴ Недбайло П.Е. Применение советских правовых норм. М.: Госюриздат, 1960. С. 488
4 5 Алексеев С.С. Теория права. М., 1995. С. 260.

¹¹⁵ Е.В.Лукшин. Официальное толкование права. <http://www.allpravo.ru/diploma/doc43p/instrum5938/item5943.html>

¹¹⁶ Теоретические вопросы систематизации советского законодательства / Под редакцией С.Н. Братуся, И.С. Самощенко. С. 82-83.

¹¹⁷ Алексеев С.С. Теория права. М., 1995. С. 260

rasmiy sharhlash jarayonida ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Konstitutsiyaviy sud talqin qilinayotgan normaning mazmunini aniqlashtirib yoritib beradi. Biroq ta'kidlash joizki, konstitutsiyaviy prinsiplar va normalarning, ularning ma'nosini ochib beradigan talqini Konstitutsiyaviy sud faoliyatining mohiyatidir, chunki u o'z vakolatlarini aksariyatini amalga oshirishda unga asoslanadi. Konstitutsiyaviy sud barcha vakolatlarini amalga oshirish jarayoni konstitutsiyaviy qoidalarni talqin qilishni o'z ichiga oladi.

Konstitutsiyaviy sud fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligi ustidan shikoyatlar bo'yicha muayyan ishda qo'llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi ishlarni yuritishda hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining muayyan ishda qo'llanishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqish natijasida nafaqat muayyan shaxslarning huquqlari, balki qonun tatbiq etiladigan barcha huquq subyektlariga majburiy bo'lgan qaror qabul qiladi. Bu orqali Konstitutsiyaviy sud huquqiy pretsedent yaratadi. Konstitutsiyaviy sud tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy pozitsiya boshqa davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar tomonidan muayyan masalalarni hal qilishda majburiy ravishda amal qilishi kerak bo'lgan namunaga aylanadi.

Konstitutsiyaviy sud muayyan doirada huquq ijodkori hisoblanadi, qonunchilikning rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi, Konstitutsiya va qonunlarni sharhlash uchun pretsedentlar yaratadi, shu bilan birga, Konstitutsiyaning o'zida bo'shliqlarni bartaraf etadi¹¹⁸. Bugungi kunda Yevropa Konstitutsiyaviy sudlarining qarorlari endi Hans Kelzen ta'riflagandek salbiy qonun chiqaruvchi tushunchasi doirasiga kirmaydi. Buning sababi shundaki, zamonaviy Konstitutsiyaviy sudlar faqat qonunlarning konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish va konstitutsiyaga zid deb topilganlarni

¹¹⁸ К.В. Демченков. Юридическая природа актов Конституционного суда Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. М.2001

bekor qilish bilan cheklanmaydi, balki sharhlash orqali tegishli qaror asosida qonun matnlarini to'g'rilaydi, to'ldiradi va takomillashtiradi. Bundan tashqari, ular parlamentlarga qonunni o'zgartirish, shu orqali uni tuzatish, to'ldirish va rivojlantirish bo'yicha keyingi jarayonlarni boshlash zarurligini bildiradi¹¹⁹.

Ta'kidlash joizki, bir tomondan, Konstitutsiyaviy sudning sharhlash hujjati mazmunan sharhlanayotgan normaning tarkibiy qismi, chunki qonun o'z kuchini yo'qotganda yoki yangi tahrirda qabul qilinganda sharhlash hujjati ham o'z-o'zidan ahamiyatni yo'qotadi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvining o'rnini bosa olmaydi, biroq qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlar asosida tahlil qilib qayd etish joizki, Konstitutsiyaviy sudlar tomonidan amalga oshiriladigan sharhlash odatda huquq va siyosat o'rtasidagi shakllangan muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Shu bois Konstitutsiyaviy sud qarorlari normativlik xususiyatlarga egadir.

Konstitutsiyaviy sudning davlat hokimiyati tizimidagi rolini belgilash hamda qarorlari to'la va bir xilda ijro etilishini ta'minlashda, Konstitutsiyaviy sud hujjatlarining huquq manbalari tizimidagi rolini aniqlash muhimdir. K.V. Demchenkov haqli ravishda qayd etganidek, "Zamonaviy sharoitda Konstitutsiyaviy sudning Konstitutsiyani sharhlash bilan bog'liq qarorlarini, birinchi navbatda, davlat organlari tomonidan majburiy ijro etilishini ta'minlash zarur. Buning uchun, avvalo, ular uchun huquq manbasi sifatidagi maqomini qonun bilan mustahkamlash, shu orqali talqin qilinadigan normalarning yuridik kuchini berish zarur"¹²⁰.

Xususan, Germaniyada sharhlash Federal Konstitutsiyaviy sudning amaliyotiga ko'ra, qonun hujjatlarining mazmunini faqat Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonuni nuqtayi nazaridan ochib beradi. Shu bilan birga, sud tomonidan berilgan

¹¹⁹ Judicial Law-Making in European Constitutional Courts. Edited by Monika Florczak-Wtor. First published 2020 by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN. P. 273.

¹²⁰ К.В.Демченков. Юридическая природа актов Конституционного суда Российской Федерации : Дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.02 : Москва, 2001 190 с.

izoh boshqa organlar uchun ham majburiydir va qonun kuchiga ega¹²¹.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchining o'rinini bosa olmaydi, biroq sudning faoliyatida qonuniylikni hamda huquq normalarini talqin qilishda qonun chiqaruvchining vakolatlariga "daxl qilinmasligi"ni ta'minlash uchun sharhlash chegaralarini belgilash muhimdir. V.A. Kryajkov bunday cheklovchi qoidalar sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi¹²²:

1) sharhlash so'rovi predmeti bo'yicha sud tomonidan qonuniy kuchga ega sud qarori qabul qilingan bo'lsa;

2) sharhlash natijasida konstitutsiyaviy normalar haqiqiy emas deb topilgan hollarda;

3) ayni bir vaqtda bir predmetga ega bo'lmagan konstitutsiyaning turli qoidalarini sharhlash bo'yicha so'rov bo'lsa;

4) murojaat qiluvchining fikriga muvofiq, masalaning yechimi qonun qabul qilishni talab qilsa;

5) sharhlash orqali Federal Majlis palatasida muhokama qilinayotgan qonun loyihasining dastlabki nazorati amalga oshirilsa;

6) tegishli munosabat allaqachon qonun bilan tartibga solingan bo'lsa (boshqa hollarda bu qonunni tegishli tartib taomilda konstitutsiyaviylikni tekshirishni anglatgan bo'lar edi).

Bizningcha, bunday chegaralarni belgilash, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini to'liqroq tushunishga imkon beradi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunda sharhlash bilan bog'liq quyidagi masalalar aks ettirilishi lozim: *rasmiy sharhlashni amalga oshirish uchun asoslar* (masalan, Konstitutsiya va qonun hujjatlarini rasmiylashtirishdagi xatoliklar, ziddiyatlar, noaniqliklar bo'lgan hollarda, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarda umumiy mazmun

¹²¹ См.: Rainer A. The Decisions of the German Federal Constitutional Court and Their Binding Force for Ordinary Courts. URL: [www.constcourt.gov.az/en/download/.../9.../10.Rainer_Arnold_\(eng\).doc](http://www.constcourt.gov.az/en/download/.../9.../10.Rainer_Arnold_(eng).doc) (дата обращения: 04.11.2013). То же можно сказать и о Конституционном Суде РФ и об органах, осуществляющих конституционное правосудие во многих других государствах

¹²² Федеральный конституционный закон «О Конституционном Суде Российской Федерации»: комментарий. С. 320—322; Комментарий к Федеральному конституционному закону «О Конституционном Суде Российской Федерации» / под ред. Г. Л. Гаджиева. С. 252, 253; Кряжков В. Л. Толкование Конституции Российской Федерации Конституционным Судом Российской Федерации // Вестник Конституционного Суда. 1997. № 3. С. 3—7; Мазуров А. В. Указ. соч. С. 453,454.

kasb etuvchi normalar bo'lgan hollarda, huquqdagi bo'shliqlar bo'lgan hollarda, "va boshqalar, shuningdek kabi jumlar hamda boshqa atamalarni tushinishda noaniqliklar bo'lganda), *rasmii talqin qilish chegaralari*¹²³ (masalan, Sloveniya Konstitutsiyaviy sudi Konstitutsiyani, umumiy sudlar esa qonunlarni sharhlaydi, Konstitutsiya buzilgan hollar bundan mustasno. Agar sharhlash hujjatlaridan biri Konstitutsiyaga zid bo'lsa va Konstitutsiyaviy sudning sharhi, shubhasiz, majburiy bo'lgan hollarda Konstitutsiyaviy sud qonunlarni sharhlash huquqiga ega), *sharhlash prinsiplari, rasmii sharhlashga oid murojaatni rad etishga asoslar* (sharhlash talab etilayotgan konstitutsiyaviy norma o'zgartirgan taqdirda) *sharhlash hujjatining shakli hamda yuridik kuchi*.

Umuman olganda, Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy normalarning mazmunini ochib beruvchi va ularni sharhlash hujjatlari butun qonunchilik tizimini rivojlantirish yo'nalishini, shuningdek, qonunni talqin qilish va qo'llash jarayonini belgilaydi. Ana shunday pozitsiya Konstitutsiyaning ustunligi prinsipining amalda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Sud qarorlarining huquq manbasi deb e'tirof etilishi yuzasidan, M.A. Axmedshayeva "kelajakda mamlakatimiz uchun bunday istiqbolni inkor etib bo'lmaydi" deb qayd etadi¹²⁴. Hozirgi vaqtda sud amaliyotida namoyon bo'ladigan huquqni qo'llashdan tashqari pretsedent tamoyillari ham odil sudlovga xosdir¹²⁵".

Yuqorida keltirilgan fikrlar hamda Konstitutsiyaviy sudning qarorlari xususiyatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunida "Konstitutsiyaviy sudning normativ qarorlari" mazmunidagi moddani kiritish hamda unda Konstitutsiyaviy sudning O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston

¹²³ The Relations between the Constitutional Courts and the Other National Courts, Including the Interference in this Area of the Action of the European Courts // Report of the Constitutional Court of the Republic of Slovenia prepared for the XIIth Congress of the Conference of European Constitutional Courts. URL: <http://www.confcoconsteu.org/reports/Slovenia-EN>

¹²⁴ M.A.Ahmedshaeva. Some issues concerning sources of law., Review of Law Sciences 1 (2019) 6-13.

¹²⁵ Ф.Ф.Мухитдинова Становление и развитие судебной власти в Республике Узбекистан. Диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук.- Т., 2012. - С.23.

Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlashi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh berish to'g'risidagi, fuqarolar va yuridik shaxslarning shikoyatlari asosida konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan qonun yoki uning bir qismini Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi qarorlari normativ qarorlar sifatida qayd etish taklif etiladi.

Bizning fikrimizcha, qonunchilikka yuqoridagi o'zgartirishlarning kiritilishi Konstitutsiyaviy sudning qarorlarini ijro etish muammosini yechishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, umummajburiyligi, ommaviy e'lon qilinishi, darhol amal qilishi, qat'iyligi, O'zbekiston Respublikasi nomidan qabul qilinishi, davlat majburlovi bilan ta'minlanganligi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib, Konstitutsiyaviy sud qarorlarining huquqning alohida manbalari sifatida e'tirof etish joiz. Konstitutsiyaviy sud qarorlarni nafaqat konstitutsiyaviy huquq, balki huquqning boshqa tarmoqlari uchun ham muhim manba hisoblanadi.

IV BOB. XORIY MAMLAKATLARDA KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT MODELLARI VA MAMLAKATIMIZDA HUQUQIY DAVLATNI QURISH SHAROITIDA KONSTITUTSIYAVIY SUD FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

4.1. Konstitutsiyaviy nazoratning Amerika modelining o'ziga xos xususiyatlari (AQSh misolida)

Dunyoda konstitutsiyaviy nazorat modellari asosiy ikki guruhga bo'lib tasniflanadi¹²⁶. Mazkur paragrafda Amerika modelining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etamiz. Amerika modelining Yevropa modelidan asosiy farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: Amerika modeli aniq konstitutsiyaviy nazorat bo'lib, huquqiy hujjatning konstitutsiyaviyligini tekshirish muayyan ishda qo'llanishi bilan bog'liq holda amalga oshirilishini nazarda tutadi (O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq aniq nazorat konstitutsiyaviy shikoyatni ko'rib chiqishda amalga oshiriladi).

Yevropa modelida esa huquqiy hujjatning konstitutsiyaviyligini aniqlash muayyan ishda qo'llanishi bilan bog'liq bo'lishi shart emas. Ikkinchidan, Amerika modelida har qanday federal sudya ishni ko'rib chiqishi va qo'llanishi kerak bo'lgan qonunni qo'llamasligi yoki qo'llashdan bosh tortishi mumkin. Yevropa modelida esa huquqiy hujjat faqat konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan amalga oshiriladi. Amerika modelida xususiy shaxslar aniq konstitutsiyaviy nazoratning tashabbus subyektlari bo'lishi mumkin, Yevropa modelida esa asosan yuqori davlat tashkilotlari va muayyan holatlarda fuqarolar bo'lishi mumkin.

Amerika modelida sudyalar maqomi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Asosan bu modelda sudyalar umrbod muddatga tayinlanadi, markazlashgan modelda esa bu muddatda chegaralar mavjud. Beshinchidan, nomarkazlashgan modelda sud qonunni bekor qilmaydi, uni qo'llashdan bosh tortadi.

Yevropa modelida esa huquqiy hujjatni bekor qilish amaliyoti mavjud. oltinchidan, Yevropa modelida konstitutsiyaviy sudlar

¹²⁶ Ayrim adabiyotlarda konstitutsiyaviy nazoratning aralash, britanacha, Avstraliya, fransuz, arab davlatlari modeli kabi turlarga bo'lib tasniflanadi.

parlamentga qonunlar yuzasidan maslahatlar va takliflar berishi mumkin, Amerika modelida sud muayyan ishni ko'rish bilan cheklanadi. Shuningdek, Amerika modelida sud qarori faqat taraflar uchungina majburiy bo'ladi.

AQSH federal sud tizimi Oliy sud, apellyatsiya va okrug sudlari va maxsus sudlardan tashkil topgan. Federal sudlar tizimining boshida AQSh Oliy sudi turadi, u bir paytning o'zida davlat hokimiyati oliy organlari tizimida Prezident va AQSh Kongressi bilan baravar darajada muhim ahamiyatga ega.

Oliy sud sudyalarning soni to'qqizta, ya'ni Bosh sudya va sakkiz nafar yordamchi sudyalardan iborat. Barcha sudyalar Prezident tomonidan tayinlanib, Senat tomonidan lavozimga tasdiqlanadilar va ularning vakolat muddati umrining oxirigachadir.

Tahlil etilayotgan mamlakatda federal sudlar qonunning konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash, qonunni sharhlash va uni alohida hollarda qo'llash bo'yicha mutlaq vakolatga ega. Sudlar, Kongress kabi sudga chaqiruv qog'ozi orqali dalil va ko'rsatmalarni taqdim etishlarini talab qilishlari mumkin. Oliy sud qonunni sharhlagandan so'ng quyi sudlar Oliy sudning talqinini muayyan ish faktlariga nisbatan qo'llashlari kerak.

AQShda konstitutsiyaviy nazorat individual huquqlarni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, bu orqali konstitutsiyaning jonliligi ta'minlanadi.

Mazkur mamlakatdagi konstitutsiyaviy nazorat (judicial reviyew)ning muhim yo'nalishlaridan biri sharhlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shma Shtatlarda Konstitutsiyani talqin qilish yoki biron-bir hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqiladigan sud ish yurituvining alohida turi mavjud emas; ko'rsatilgan nizolar fuqarolik, jinoiy va boshqa turdagi sud ishlarini yuritish doirasida hal etiladi; Qo'shma Shtatlar Oliy sudi, boshqa barcha sudlar singari huquq va fakt masalalarini ko'rib chiqadi.

AQShda sharhlashning yakdil konstitutsiyaviy nazariyasi mavjud emas, biroq sharhlashga oid turli **doktrinalar va yondashuvlar** mavjud. Qonun hujjatlarida esa sharhlashning usul va vositalari yoritilmagan.

Germaniyada yurisprudensiya ilmiy tadqiqot bo'lib, u akademik dalillar orqali shakllanadi. Uslub ilmiy, obyektiv, rasmiy va qiyosiydir. Qoidalardan foydalanish muhim, bandlar umumiy va mavhum bo'lib, batafsil me'yorlardan ko'ra umumiy prinsiplarni topish ehtimoli ko'proq. Sudyalar analogiya holatlarini (qisqartirish yoki cheklash) izlaydilar, ular birinchi navbatda to'g'ridan to'g'ri ma'noni izohlaydilar, shu bilan birga, ular tizimli talqinni, obyektiv maqsadni va qoida tarixini ma'qullaydi. Konstitutsiyaviy sud institut sifatida ishlaydi, qarorlar shaxslar tomonidan emas, balki muassasa tomonidan chiqariladi. Sud faoliyati oqilona, konseptual va idealdir. Buni dialektik jarayon sifatida tavsiflash mumkin.

AQSh sudlari faoliyatida sud jarayoni tajribaga yo'naltirilgan yoki sog'lom fikrli dalillar bilan ko'proq amaliy jarayon sifatida tavsiflanishi mumkin. Uslub individual, hissiy, erkin yoki norasmiy bo'lib, fikrlar bilan shakllanadi. Qoidalarga nisbatan ixtiyoriylikdan foydalanish afzalroqdir. Nizomlar batafsil bayon etilgan; ularda aniq ta'riflar, aniq holatlar mavjud. Sudyalar birinchi navbatda aniq ma'noni va qonun chiqaruvchining niyatini izlaydilar. Analogiya yetishmaydi. Oliy sudning qarorlari shaxslar tomonidan chiqarilgan "fikrlar" sifatida e'lon qilinadi. Ikkala mamlakatda matnli, tarixiy, teleologik va tizimli, boshqa usullar qatori "manfaatlar muvozanati" kabi usullar qo'llanadi.

Umuman olganda AQShda va Germaniyada konstitutsiya va qonunlarni sharhlashni doktrinalari va konsepsiyalari ishlab chiqilgan. O'zbekistonda ham Konstitutsiyaviy sud tomonidan sharhlashning ilmiy-nazariy asoslari chuqur tadqiq qilinishi kerak.

AQShda sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar muayyan huquqiy nizoni hal qilishda Konstitutsiyani talqin qilish masalasini ko'tarishlari mumkin. Ya'ni sharhlashni so'rab fuqarolar ham murojaat qilishlari mumkin. Tahlil qilinayotgan davlatning mazkur tajribasi tahsinga loyiq. Har bir fuqaroga konstitutsiya va qonunlarni sharhlashni so'rab murojaat etish huquqi mavjudligi, huquqiy hujjatlarni bir xil va aniq tushunish imkonini beradi. Sharhlashga oid ishlar asosan Yevropa mamlakatlarida ham yozma tartibda ko'riladi va konstitutsiyaviy sudning ishlarni ko'rish tezkorligi va samaradorligiga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham soliq kodeksi, mehnat kodeksi va bir qator qonunlarda noaniqliklar

mavjud. Shu bois har bir fuqaroga sharhlashni so'rab murojaat qilish huquqini berish kerak.

Shu bilan birga AQShda konstitutsiyaviy nazorat obyekti juda keng, faqat qonunlar emas balki barcha normativ huquqiy hujjatlar sud qarorlari ham nazorat obyekti hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligida konstitutsiyaviy shikoyat faqatgina Konstitutsiyasiga muvofiq bo'lmagan qonunda buzilgan hollarda ko'rib chiqiladi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunning 4-moddasida Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo'llanishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqadi deb belgilangan. Sudlar tomonidan murojaat kiritilganda butun normativ-huquqiy hujjatlarni konstitutsiyaga muvofiqligini ko'radi deb qayd etilishi, demak konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy shikoyat bo'yicha ham barcha normativ-huquqiy hujjatlarni nazorat tartibida ko'rishga kuch va layoqati (resursi) yetishi mumkinligini anglashilmasmikan? Umuman olganda to'liq konstitutsiyaviy shikoyatni joriy etilishi, birinchidan, mamlakatda konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, ikkinchidan, huquqiy nizolarning mamlakat ichki tizimida hal qilish imkonini beradi.

Shu bois O'zbekistonda to'liq konstitutsiyaviy shikoyat institutining joriy etilishi samarali konstitutsiyaviy sudlovga erishishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy sudga faqat fuqarolar emas har bir shaxs konstitutsiyaviy shikoyat berish huquqiga ega bo'lishi kerak. (Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el fuqarolari)

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, konstitutsiyaviy shikoyat institutini to'liq tatbiq etmasdan konstitutsiya va qonun ustunligini tizimli ta'minlash mumkin emas. Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi "modomiki davlat hokimiyatining har qanday hujjati ustidan shikoyat qilish mumkin ekan, to'liq konstitutsiyaviy shikoyat shubhasiz, konstitutsiyaviy odil sudlovga keng qamrovli individual murojaat qilish imkonini berishi" da deb baholaydi¹²⁷.

¹²⁷ Ayrim adabiyotlarda konstitutsiyaviy nazoratning aralash, britancha, Avstraliya, fransuz, arab davlatlari modeli kabi turlarga bo'lib tasniflanadi.

AQShda sud ishlarini ko'rib chiqishda muhim institutlardan biri sud do'sti institutidir. "*Amicus curiae*" – bu ishda ishtirok etmaydigan, ishda bevosita manfaatdor bo'lmagan, ammo sud tomonidan ma'lumot olish va fikr bildirishga ruxsat berilgan shaxs yoki tashkilot. Ushbu institut fuqarolik jamiyati tomonidan amalga oshiriladigan tajriba ekanligini tushunish mumkin.

Sud do'sti-huquq sohasida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadigan har qanday tashkilot yoki ko'rib chiqilayotgan ish bo'yicha konstitutsiyaviy sudga tashabbuskor ekspert xulosalarini taqdim etadigan har qanday yuridik olim.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu institut professional shaxs yoki tashkilotning mustaqil tashabbusi bilan amalga oshiriladi, ammo bu sud buni hisobga olishga majbur degani emas. Ish materiallarini ko'rib chiqish paytida sud uchun xulosalar chiqarishda muhim bo'lishi mumkin. Italiya qonunchiligida sud do'sti Konstitutsiyaga oid savol bilan bog'liq jamoaviy yoki tarqoq manfaatlarni ifodalovchi "Konstitutsiyaviy sudga yozma fikr bildirishi mumkin" bo'lgan notijorat tashkilotlar va institutsional tashkilotlar bo'lishi mumkin. Sud do'stining tartibi, subyektlari va talablari Italiya Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tartibga soluvchi qonunda aniq ko'rsatilgan. AQShda esa sud do'sti bilan bog'liq qoidalar Oliy sudning statutlarida batafsil tahlil qilingan¹²⁸.

Sud do'stlari ikki xil tabiatda namoyon bo'ladi: birinchisiga ko'ra, "sud do'stlari" ma'lum bilim, malaka va vakolatlarga ega bo'lgan o'ziga xos ekspertlardir; ikkinchisiga ko'ra, ular jamoat manfaatlarini himoya qiluvchi va ifodalovchi advokatlardir. Mazkur institut ("sud do'sti") O'zbekistonda davlat organlari huzurida tashkil etiladigan, jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan ilmiy-maslahat kengashiga o'xshash funksiyani bajaradi¹²⁹.

O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda sud do'sti institutiga oid normalar uchramaydi, biroq

¹²⁸ О прямом доступе к конституционному правосудию: Исследование Венецианской комиссии N 538/2009. Принято на 85 пленарном заседании (Венеция, 17-18 декабря 2010 года). CDL-AD (2010) 039. С. 30.(<http://concourt.am/armenian/news/doc/CDL-AD-2010-039-ru.pdf>)

¹²⁹ Rules of the Supreme Court of the U.S. Adopted 12.01.2010. effective 16.02.2010 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.supremecourt.gov/ctrules/2010RulesoftheCourt.pdf> (дата обращения: 27.04.2025).

ilmiy maslahatlashuv kengashining ayrim jihatlari o'xshab ketadi. Ilmiy maslahatlashuv kengashining faoliyati Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. (Ilmiy maslahatlashuv kengashi sud do'sti instituti singari tashabbus asosida emas, tegishli nizom asosida, jalb etiladi.)

Sud muhokamasida "sud do'stlari"ning fikrlari sud muhokamasi uchun turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin: fakt yoki huquq masalalarini aniqlash, taqdim etilgan dalillarni huquqiy tahlil qilish, qarorning mumkin bo'lgan oqibatlarini aniqlash va tavsiflash, sud uchun muhim bo'lgan tafsilotlar va aniq holatlarga e'tiborni jalb qilish. "Masalan, ular taraflarning pozitsiyalarida topa olmagan dalillarni keltirishi yoki manbaga iqtibos keltirishi mumkin va bu materiallar ba'zan sud tomonidan chiqarilgan qarorni asoslashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Lord Salmon ushbu institutning rolini quyidagicha ta'riflagan: "men har doim amicus curiae sudyaga qonunni xolis talqin qilishda yordam berish yoki agar tomonlardan biri yo'q bo'lsa, sudyaga huquqiy asos shakllantirishda yordam berish uchun mo'ljallanganligini tan olganman"¹³⁰. Istiqbolda sud do'sti institutini konstitutsiyaviy sud faoliyatida ham bosqichma-bosqich tatbiq etish, Konstitutsiyaviy sud faoliyatida qarorlarini yanada sifatli bo'lishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, Amerika modelidagi konstitutsiyaviy nazorat amalga oshirilishi shakli amaliy va asosan bunda doktrinalar va konsepsiyalar pretsedentlarga murojaat qiladi.

4.2. Konstitutsiyaviy nazoratning Yevropa modelining o'ziga xos xususiyatlari (GFR misolida)

Markazlashgan konstitutsiyaviy nazorat alohida konstitutsiyaviy sudlar tashkil etishni hamda abstrakt konstitutsiyaviy nazorat amalga oshirishni taqozo etadi. Venetsiya komissiyasining a'zosi Jan Mazak quyidagilarni qayd etadi: Konstitutsiyaviy nazoratning markazlashgan modelining ikkita asosiy ustunligini ta'kidlash

¹³⁰ Гафуров А.Б. Ўзбекистонда конституциявий суд назоратининг шаклланиши ва ривожланиши: назария ва амалиёт масалалари. Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Т.:2023. Б.

zarur: huquqiy aniqlikni ta'minlash va demokratiya g'oyasini mustahkamlash. Konstitutsiyaviy nazoratning Yevropa modeli an'anaviy ravishda huquqiy aniqlikni ta'minlash sifatida qabul qilinadi, bu modelning boshidanoq yuqori baholanadi (Avstriyada konstitutsiyaviy nazorat modeli uchun asos sifatida ushbu tamoyilni birinchi bo'lib X. Kelzen taklif qilgan). Agar barcha oddiy sudlar nizomlar yoki oddiy qonunlarning ayrim qismlarini bekor qilish huquqiga ega bo'lsalar, ular o'rtasida ma'lum bir nizom yoki uning alohida qismining konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida turlicha qarorlar paydo bo'lar edi.

Konstitutsiyaviy nazoratning mavhumligi (abstraktligi) ham huquqiy aniqlik prinsipi bilan bog'liq. Agar konstitutsiyaviy sud muayyan ishda qo'llangan qonunni ko'rib chiqsa va qonun hujjatlarining bir qismini qo'llab bo'lmaydigan holatni topishi, sud o'ziga o'zi qarshi chiqishi mumkin. Pretsedent doktrinasi mavjud bo'lmagan taqdirda, sud bir ishda qonun hujjatlarining konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida bir xil, keyingi holatda esa boshqa xulosa berishi mumkin. Konstitutsiyaviy nazorat muayyan nizo yoki ish bilan bog'liq bo'lmasa, bunday qarama-qarshilik sezilarli darajada kamayadi¹³¹.

Yevropa modelidagi konstitutsiyaviy nazoratda konstitutsiyaviy ish yuritish uchun quyidagi turdagi murojaatlar mavjud:

Konstitutsiyaviy chaqiruvlar (constitutional challenges); bu jamoat yoki konstitutsiyaviy institutlar, asosan prezident, parlament a'zolari guruhi (parlamentning malakali ozchiligi), hukumat, bosh prokuror, ombudsman (jamoat himoyachisi) tomonidan taqdim etilgan taklif. Ularning e'tirozlari oddiy qonun hujjatlariga nisbatan mavhum hujumga olib keladi.

Konstitutsiyaviy masalalar (constituional question); Konstitutsiyaviy savol (dastlabki so'rov yoki aniq nazorat) oddiy sudyalarda muayyan ishni hal qilishlari kerak bo'lganda, qonunning konstitutsiyaga zidligi muammosini ko'tarish vositasidir. Agar ular tegishli nizom konstitutsiyaga to'g'ri kelmaydi deb hisoblasa, ular

¹³¹ Saha, Tushar Kanti. Textbook on Legal Methods, Legal Systems & Research Архивная копия от 18 февраля 2018 на Wayback Machine. — Universal Law Publishing, New Dehli, 2010. — P. 94. — ISBN 978-81-7534-893-6. Allen v. Sir Alfred McAlpine & Sons Ltd [1968] 2 QB 229 at p.266 F-G.

ishni (savolni) konstitutsiyaviy sudga yuborishlari mumkin yoki muayyan holatlarga ko'ra. Konstitutsiyaviy masalalarni ko'tarish imkoniyati, masalan, Avstriya, Germaniya, Sloveniya, Slovakiya, Chexiya, Belgiya, Ispaniya, Italiya va boshqalarda mavjud

Konstitutsiyaviy shikoyat (constituional complaint).

Germaniya Konstitutsiyaviy sudi amaliyoti va ilg'or tajribasi barcha mamlakatlar tomonidan o'rganib kelinayotgan sudlardan biridir.

2011-yilda Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi o'zining 60-yilligini katta maqtoqlar bilan nishonladi. Dunyodagi eng qudratli va eng hayratlanarli sudlardan biri sifatida tasvirlangan Germaniya Konstitutsiyaviy sudi haqidagi zamonaviy konsensusni qo'lga kiritdi. Asosiy qonun va sudning ko'plab huquqshunoslik innovatsiyalari xorijiy mamlakatlarda eksport modeliga aylandi. Ba'zi liberal amerikalik olimlar uchun Germaniya Konstitutsiyaviy sudi hatto AQSh Oliy sudiga ijobiy qarama-qarshi modeldir.¹³²

Germaniya Konstitutsiyaviy sudi sudyalari 16 nafar, u ikki senatdan iborat bo'lib, har bir senatda 8 nafardan sudya faoliyat yuritadi. Germaniya Federativ Respublikasi Federal Konstitutsiyaviy sudi Senatlari bir-birining qarorlarini nazorat qilish huquqiga ega emas. Agar bir Senat boshqasining huquqiy pozitsiyasiga rozi bo'lmasa, bu holda qaror Federal Konstitutsiyaviy sudning barcha sudyalardan iborat Plenum tomonidan qabul qilinadi. Plenumni chaqirish to'g'risidagi qaror faqat ushbu masala uchun birinchi navbatda mas'ul Senat tomonidan qabul qilinadi. Plenumning vakolatlariga, shuningdek, sudyalarini egallab turgan lavozimidan bo'shatish yoki iste'foga chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish, shuningdek, senatlardan biri tomonidan muayyan huquqiy masalani talqin qilish boshqasining fikridan farq qiladigan holatlarda ham kiradi.

Konstitutsiyaviy sud doimiy asosda faoliyat yuritadi. Odatda, har bir Senat har oyda ikki marta ikki yoki uch kun davomida qarorlarni muhokama qilish uchun yig'iladi. Aksariyat holatlar yozma ish tartibi asosida hal qilinadi. Senatdagi ommaviy eshituvlar kamdan-kam

¹³² Jan Mazak. The European model of constitutional review of legislation. https://www.venice.coe.int/sacjf/2006_02_venice_strasbourg/report_mazak.htm

uchraydi, bir yoki ikki kun davom etadi; ular ba'zan qonun bilan belgilangan, lekin konstitutsiyaviy shikoyatlarni ko'rib chiqishda ixtiyoriydir. Qonunni bekor qilish uchun Senat qarorlari mutlaq ko'pchilikni talab qiladi. Prezidentlar yoki Vitse-Prezidentning ovozi boshqa sudyalarning ovozidan kattaroq ahamiyatga ega emas.

Germaniya Konstitutsiyaviy sudi deyarli 250 nafar xodimga ega. Har bir sudya o'zi tanlashiga ko'ra to'rttagacha kotibni tadqiqotchi yordamchisi sifatida yollashi mumkin. Ularning aksariyati fuqarolik, jinoiy, ma'muriy, ijtimoiy, moliyaviy yoki mehnat sudlarining sudyalari yoki prokurorlaridir.

O'zbekistonda konstitutsiyaviy sudi xodimlari Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari va sudyalarni ham qo'shgan holda 22 kishidan iborat etib belgilangan.¹³³ Buguni islohotlarga hamohang bo'lishi va Konstitutsiyaviy sud oldida turgan vazifalarni to'laqonli bajarishda 22 nafar xodim kamlik qiladi. O'zbekistonda ham devon tuzilmasini takomillashtirish lozim.

Germaniyada konstitutsiyaviy shikoyat aniq hamda ayrim vaqtlarda abstakt (ya'ni muayyan ishda qo'llanmagan) holda ham ko'rib chiqilishi mumkin. Agar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga daxl qilishi mumkin bo'lgan normalar mavjud bo'lsa, fuqaroning konstitutsiyaviy shikoyati asosida (u muayyan ishda qo'llanmagan bo'lsa ham) ish ko'rib chiqiladi¹³⁴.

Federal Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy shikoyat bo'yicha qaror qabul qilishidan oldin, u birinchi navbatda uni ko'rib chiqish uchun qabul qilishi kerak. Qabul qilinishi mumkin bo'lgan odatiy shartlarga qo'shimcha ravishda (shikoyat qonunda belgilangan muddatdan kechiktirmay topshirilishi kerak (Federal Konstitutsiyaviy sud qonunining 93-moddasi 1-bandi 1-bandi bir oy ichida), barcha huquqiy himoya vositalari tugatilgan bo'lishi kerak, konstitutsiyaviy shikoyat yetarli darajada asosli bo'lishi kerak (shikoyatchi o'z huquqlari bevosita va hozirda buzilganligini da'vo qilishi kerak, ya'ni shikoyat boshqa shaxsning huquqiga nisbatan berilishi mumkin emas yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy huquqlarning buzilishi yuzasidan shikoyat qilinishi mumkin

¹³³ Rethinking the rise of the German Constitutional Court: From anti-Nazism to value formalism. <https://academic.oup.com/icon/article/12/3/626/763768>

¹³⁴ <https://lex.uz/docs/388018>

emas, shuningdek, konstitutsiyaviy huquqlarning buzilganlik holati bo'lishi kerak).

Shikoyat shuningdek:

asosiy konstitutsiyaviy-huquqiy ahamiyatga ega;

asosiy huquqlarni yoki asosiy huquqlarga teng huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lishi; Agar ishning mohiyati bo'yicha qaror qabul qilishdan bosh tortish shikoyat bergan shaxsga o'ta og'ir zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, bu ham bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy shikoyatni ko'rib chiqish uchun qabul qilish yoki qabul qilishni rad etish to'g'risidagi qaror odatda Federal Konstitutsiyaviy sudning (palataning) uchta sudyasi tomonidan qabul qilinadi. Agar konstitutsiyaviy shikoyatni ko'rib chiqish to'g'risidagi qaror har doim har birida sakkiz nafar sudyadan iborat bo'lgan ikki senatdan biri tomonidan qabul qilinsa, ko'p sonli konstitutsiyaviy shikoyatlarni ko'rib chiqishning iloji bo'lmas edi. Shu bilan birga, qonunlarning konstitutsiyaviyligi bo'yicha fundamental qarorlar qabul qilish Senatning mas'uliyati hisoblanadi.

Shu bois nemis tajribasiga muvofiq, O'zbekistonda konstitutsiyaviy shikoyatni berishning aniq tartib-taomillarini qonunda aks ettirish taklif etiladi. Shu bilan birga qonunga ishlarni tezkor va samaradorligini ta'minlash maqsadida uchta sudyadan iborat tarkibda murojaatlarni qabul qilish yoki rad etish masalasi hal etilishi maqsadga muvofiq mazmunidagi qoidani kiritishni taklif qilamiz. Chunki har bir murojaat bo'yicha to'liq tarkibni yig'ish ko'p vaqtni talab qilishi mumkin. Uchta sudyadan iborat tarkibda mazkur masalani hal qilinishi ishlarni tezkor ko'rishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Germaniyada konstitutsiyaviy shikoyat berish huquqiga har bir shaxs va yuridik shaxslardan tashqari, munitsipalitet va birlashmalar tomonidan ham berilishi mumkin. Mazkur amaliyot Rossiya Federatsiyasida ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, Bosh prokuror va Ombudsman (Rossiya Federatsiyasi) muayyan ishda qo'llangan va qo'llanayotgan masala yuzasidan konstitutsiyaviy shikoyat tartibida murojaat qilishi mumkinligi belgilangan. Milliy qonunchiligimizda ham istiqbolda konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga Bosh prokuror, Ombudsman va mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilishi taklif etiladi.

Fransiya Konstitutsiyaviy kengashi ham Yevropa modelidagi konstitutsiyaviy nazorat tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Konstitutsiyaviy Kengashi sud hokimiyati organi bo'lmasa ham, aslida konstitutsiyaviy sudlov funksiyalarini amalga oshiradi¹³⁵. Mazkur Kengash abstrakt nazoratni amalga oshiradi; konstitutsiyaviy masalalar (sudlar tomonidan) konstitutsiyaviy shikoyatlar ko'rib chiqilmaydi.

Fransiya Konstitutsiyasiga muvofiq, Kengash 9 nafar a'zodan iborat bo'lib, uch nafar a'zosi Prezident tomonidan, 3 nafar a'zosi Milliy Majlis tomonidan va uch a'zosi Senat tomonidan tayinlanadi.

Aksariyat mamlakatlarda konstitutsiyaviy sud sudyalari siyosiy vakillar tomonidan saylanadi, siyosiy lashtirish xavfini kamaytirish uchun turli mexanizmlar qo'llanadi. Germaniyada Federal Konstitutsiyaviy sud a'zolarining yarmi Bundestag tomonidan, qolgan yarmi Bundesrat tomonidan tayinlanadi. Avstriyada federal hukumat o'n to'rtta oddiy sudyadan sakkiz nafarini, jumladan, prezident va prezident o'rinbosarlarini, shuningdek, olti nafar sudya o'rinbosarlaridan uch nafarini, parlament quyi palatasi uchta sudya va ikkita sudya o'rinbosarini, yuqori palata esa uchta sudya va bir o'rinbosarni saylaydi. Polshada Konstitutsiyaviy tribunalning barcha a'zolari parlament a'zolari tomonidan saylanadi. Portugaliyada respublika parlamenti o'n uchta konstitutsiyaviy sud sudyasidan o'ntasini tayinlaydi.

Milliy qonunchiligimizda Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi tavsiya etgan mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanadi deb belgilangan. Ammo asosiy masala, Sudyalari oliy kengashi sudyalikka nomzodlarni qaysi mezonlarga ko'ra tavsiya etadi, ikkinchidan Senat bu borada Konstitutsiyaviy sud sudyaligiga nomzodlarni qanday mezonlar asosida saylaydi yoki rad etadi.

Fransiyada konstitutsiyaviy kengash a'zosini tayinlash vakolatli tegishli qo'mitaning xulosasi asosida har bir palata raisi

¹³⁵ Испания, Италия, Бельгия ҳам конституцивий судлар суд мақомида бўлса ҳам, суд ҳокимияти изимиға кирмайди.

tomonidan amalga oshiriladi. 2010-yil 23-iyulda qabul qilingan “Konstitutsiyaning 13-moddasi beshinchi qismini qo’llash to’g’risida”gi 2010-838-son Qonuniga ko’ra, parlamentning har bir palatasida doimiy qo’mita belgilanishi nazarda tutilgan bo’lib, ular lavozimga tayinlash imkoniyati to’g’risida xulosa berish huquqiga ega.

Mazkur xulosa doimiy komissiyalar tomonidan lavozimga tayinlash uchun ko’rsatilgan shaxs ishtirokida o’tkazilgan eshituvlar asosida tuziladi. Bu tayinlash uchun ko’rsatilgan shaxsning ismi e’lon qilingan kundan boshlab bir haftadan kechiktirmay amalga oshiriladi. Parlamentning har bir palatasida Konstitutsiyaviy qonunlar bo’yicha komissiya faoliyat yuritadi. U Konstitutsiyaning 56-moddasi birinchi bandiga muvofiq Konstitutsiyaviy Kengash a’zosini tayinlash to’g’risida xulosa chiqarish vakolatiga ega bo’lgan tegishli doimiy komissiya hisoblanadi.

Ushbu mamlakat tajribasini tahlil qilib shuni qay etish joizki, milliy qonunchiligimizda ham Konstitutsiyaviy sud sudyalarini uch nafarini qonunchilik palatasi, uch nafari senat tomonidan va uch nafari Respublika prezidenti tomonidan shakllantirish amaliyotini yo’lga qo’yish lozim. Konstitutsiyaviy sud sudyasini tayinlashda ikki palatada ham nomzod bilan eshituvlar o’tkazish va tegishli qo’mitada sudyalikka nomzodni o’rganish tavsiya etiladi. U amaliyot hokimiyatlar bo’linishi prinsipini ta’minlashni hamda tahlili etilayotgan organning siyosiy lashishini oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Fransiyada eng ahamiyatli jihatlardan biri, sudyalikka nomzodlarga ham bir qator qat’iy talablar mavjud. Magistratura maqomi to’g’risidagi organik qonunga muvofiq¹³⁶, sudyalikka nomzodlarga quyidagi talablar qo’llanadi: odil sudlovni amalga oshirish qobiliyati, bilim va huquqiy tajribaning mavjudligi va tanlovdan o’tish.

¹³⁶ Loi organique n°2001-539 du 25 juin 2001 relative au statut des magistrats et au Conseil supérieur de la magistrature; Ordonnance n°58-1270 du 22 décembre

1958 portant loi organique relative au statut de la magistrature. URL: <http://www.legifrance.gouv.fr/affichTexte.do?cidTexte=JORFTEXT000000223956&categorieLien=id> (дата обращения: 20.10.2015).

Konstitutsiyaviy kengash 2003-yil 20-fevraldagi “yondosh sudyalar haqida”gi qonunni tekshirish to’g’risidagi qarorida quyidagilarni qat’iy qayd etadi:

Nomzodni tayinlash chog’ida “sudyalik vazifalarini bajarishga va odil sudlov funksiyalarini amalga oshirishga qobiliyatli”ligini tekshirish zarur hamda “turli sohalarda... ma’muriy organlarda, aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari va boshqalarda tajribasi va amaliyoti, o’z-o’zidan, nomzodning qaysi fazilatlari bo’lishidan qat’i nazar, sudyalikka nomzodning yuridik bilim darajasidan dalolat bera olmasligini alohida ta’kidladi. Qonun chiqaruvchi nomzodlar ega bo’lishi shart bo’lgan yuridik bilim va odil sudlovni amalga oshirish qobiliyatini ko’rsatmay deklaratsiya talablarini ochiqdan ochiq buzgan deb topdi.

Tahlil qilinayotgan mamlakatning tajribasi e’tiborga loyiq bo’lib, mamlakatimizda ham Konstitutsiyaviy sud sudyalarini tayinlashda amalda yuridik bilim va ko’nikmalarga hamda odil sudlovni amalga oshirishga layoqati talab qilinishi hamda ishga qabul qilishda tanlov shaklini joriy etish maqsadga muvofiq. Konstitutsiyaviy sud mamlakatda oliy konstitutsiyaviy sudlovni amalga oshirishini hisobga olib, O’zbekistonda ham Konstitutsiyaviy sud sudyaligiga nomzodlar nafaqat yuridik tajribaga, bilim va sudlovni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo’lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik fanlar nomzodi A. Rahimovning ta’biri bilan aytganda, “Konstitutsiyaviy sud “hujjatlarni sud qilishi¹³⁷” qoidasidan kelib chiqib, Konstitutsiyaviy sud sudyalarini tavsiya etish uchun tanlab olishda yuqori darajadagi mezonlarga amal qilish kerak. Bu borada haqiqatdan ham Konstitutsiyaviy sud sudyalarini tayinlash shaffof bo’lishi lozim. Shu bilan birgalikda, Konstitutsiyaviy sudda bo’sh (vakant) sudyalik lavozimlarini to’ldirish tartibi, muddati, uning aniq yoritilishi lozim.

¹³⁷ A. Рахимов. Суд фаолиятида туб ўзгаришлар даври ёхуд «Конституциявий суд нима иш қилади?» [A period of radical change in the work of the judiciary or “what the Constitutional Court does] https://uza.uz/uz/posts/sud-faoliyatida-tub-ozgarishlar-davri-yoxud-konstituciaviy-sud-nima-ish-qiladi_278791.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini tashkiliy va ilmiy-tahliliy jihatdan ta'minlash samaradorligini oshirish masalalari

Konstitutsiyaviy sud faoliyati samaradorligini ta'minlashda Konstitutsiyaviy sudning ichki tuzilmaviy birliklarining roli ahamiyatlidir.

Yevropa Kengashining Venetsiya Komissiyasi tomonidan 2006-yildagi "Konstitutsiyaviy sudlar bosh kotiblarining maqomi va vazifalari" mavzusidagi tadqiqotida taklif etilgan yondashuvdan kelib chiqib, konstitutsiyaviy sud organlari boshqaruvining uchta modelini aniqlash mumkin. Dunyo tajribasida konstitutsiyaviy sudlov devonining markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan va mazkur ikki turni o'zida mujassamlashtirgan aralash modeli mavjud. Konstitutsiyaviy sud devonida markazlashtirish mavjud yoki mavjud emasligi uning qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari, funksiyalari bilan bir qatorda sudya, plenum va sud raisining boshqaruv vakolatlari amalda qanday taqsimlanganligiga ham bog'liq.

Markazlashtirilgan modelga misol sifatida Fransiya Konstitutsiyaviy kengashini keltirish mumkin. Bosh kotib (Devon rahbari) idora, kutubxona va hujjatlashtirish markazi, ma'muriy-moliyaviy bo'lim, xalqaro aloqalar bo'limi va eng muhimi: yuridik xizmat (u umumiy va ma'muriy sudlarning sudylaridan va Milliy Majlis raisi va universitet professorlaridan iborat)ga rahbarlikni amalga oshiradi. 1959-yil 13-noyabrda qabul qilingan 59-1293-sonli farmonga ko'ra, Bosh kotib Konstitutsiyaviy Kengash raisining taklifiga binoan Prezident tomonidan lavozimiga tayinlanadi¹³⁸. Markazlashtirilgan modelda sudning barcha intellektual ehtiyojlari, yuridik masalalar bir bo'lim qo'lida to'planadi. Venetsiya komissiyasi xulosalariga ko'ra, Fransiya Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy yurisdiksiyaning noyob organi bo'lib, unda Bosh kotibiyat maslahatchilar va ma'ruzachilar ishining borishi uchun to'liq javobgardir. Sloveniya-

¹³⁸ Décret N° 59-1293 du 13 novembre 1959 relatif à l'organisation du secrétariat général du Conseil constitutionnel // <http://www.legifrance.gouv.fr/affichTexte.do?cidTexte=JORFTEXT000000670250> (Дата обращения: 02.10.2015)

da ham Konstitutsiyaviy sud devonining markazlashtirilgan modeli amal qiladi. Sloveniya Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi qonunda Bosh kotibdan boshqa mansabdor shaxslar haqida hech qanday ma'lumot yo'q; 2007-yilgi Ish tartibi qoidalarida kotibiyat boshqa tashkiliy bo'linmalar qatorida Bosh kotib va uning yordamchilari tomonidan bevosita boshqariladigan Yuridik xizmatni (yuridik maslahatchilar idorasi) ham o'z ichiga olishini belgilab beradi. Ish yukining doimiy ortib borishi sababli "ilgari maslahatchilarga tegishli bo'lgan oddiy huquqiy vazifalarni bajarishga" majbur bo'lgan sudyalarning kotiblari faqat ma'lum bir ishni muvofiqlashtirish uchun javobgardir¹³⁹.

Nomarkazlashtirilgan model. Bu modelda alohida Konstitutsiyaviy sud devoni vakolatlarini bajaradigan bo'lim mavjud bo'lmaydi.

Germaniya Federativ Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi devoni faoliyati nomarkazlashtirilgan modelga muvofiq keladi. Sudda maslahatchilardan (Präsidentialrate) iborat maxsus kotibiyat (devon) mavjud bo'lib, ularning har biri birinchi yoki ikkinchi senatga birlashtirilgan va reqlamentga muvofiq tegishli senat raisiga ishlarni ko'rishda yordam berishi shart. Birinchi Senatga tegishli maslahatchi sud boshqaruvi boshlig'i – direktor hisoblanadi. Huquqiy maqomi bo'yicha KS direktori lavozimi taxminan Bundestag yoki Bundesratdagi shtab boshlig'ining yuqori lavozimiga mos keladi. Direktor huquq fanidan birinchi va ikkinchi davlat imtihonlarini topshirishi (sud xizmatiga qabul qilishning sharti hisoblanadi) va uzoq muddatli ma'muriy ish tajribasiga ega bo'lishi kerak. Direktor o'z faoliyatida to'g'ridan to'g'ri sud raisiga hisobot beradi. Reqlamentning 14-moddasi unga ma'muriy masalalarni hal qilish huquqini beradi. Oddiy xodimlar lavozimlarga Direktor tomonidan tanlanishi mumkin, yuqori lavozimli xodimlarni tayinlash esa raisning roziligini talab qiladi. Direktor protokoll boshqaruvi, kadrlar xizmati, moliya bo'limi, kutubxonaga mas'ul bo'lgan bo'limlar, elektron hujjatlashtirish

¹³⁹ Sovdat. J. The Organization of the Work of Legal Advisors in Support of the Decision Making of the Constitutional Court. Presentation and Experience of the Constitutional Court of the Republic of Slovenia // <http://www.us-rs.si/o-sodiscu/konference/3csg-bled29-30-september-2005/contributions-3406/paper-by-ms-jadranka-sovdat-constitutionalcourt-of-slovenia/> (Дата обращения: 02.10.2024)

tizimi kabi bir qator bo'limlarga rahbarlik qiladi. Direktor ixtiyorida uch yillik yuridik ta'limdan o'tgan va sud ishlarini yuritish bilan bog'liq individual sud funksiyalarini bajarishga qodir bo'lgan o'nga yaqin ro'yxatga olish organining mansabdor shaxslariga ega (Rechtspfleger), ular birgalikda murojaatlarni dastlabki ko'rib chiqish bo'limiga o'xshaydi. Ular bir yoki ikkita yuqori darajadagi advokatga hisobot beradi¹⁴⁰. Bugungi kunda har bir sudyaning ixtiyorida 4 nafar yordamchi – ilmiy yordamchi (wissenschaftlicher Mitarbeiter), raisda shaxsiy referenti ham bor; Binobarin, ularning umumiy soni ancha katta va odatda 65 kishini tashkil qiladi. Sudyaga yordamchini sudyaning roziligisiz tayinlash mumkin emasligi juda muhim (Reglamentining 2-bandi, 13-bandi), bu nafaqat sudyaning vakolati va mustaqilligini, balki uning xodimlarining ishini yanada izchil va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun Germaniya Konstitutsiyaviy sudi raisi sudga rahbarlik qilsa-da, sudyalari va ularning idoralari faoliyati ustidan rasmiy nazoratni amalga oshira olmaydi¹⁴¹; sudyalari boshqa xodimlarga faqat o'zlari ma'ruzachi bo'lgan ishni tayyorlashning bir qismida topshiriqlar berish huquqiga ega. AQShda Oliy sudagi klerklar va sudlar munosabatlari ham nomarkazlashtirilgan modelga muvofiq keladi.

Aralash model. Mazkur modelda Konstitutsiyaviy sud raisining ham hamda ayni vaqtda sudyalarning o'zini ham alohida maqomini nazarda tutadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi misolida keltirib o'tishimiz mumkin. Rossiya Federatsiyasining qonunchiligiga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud raisi devon ishiga rahbarlikni amalga oshirishi belgilangan. Biroq sud raisi Konstitutsiyaviy sudning davlat xizmatchilariga nisbatan ish beruvchi vakilining vakolatlarini amalga oshiradi, ammo bu har doim ham u har bir nomzod bo'yicha asosiy qarorni qabul qiladi degani emas; Kotibiyat rahbari, shuningdek, sud xodimlarini joylashtirish bilan shug'ullanmaydi, chunki ular, uning

¹⁴⁰ Barnstedt E.L. Administrative assistance in dealing with proceedings before the Federal Constitutional Court (Bundesverfassungsgericht), with particular reference to constitutional complaint proceedings // [http://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDLJU\(2004\)026-e](http://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDLJU(2004)026-e) (Дата обращения: 02.10.2015).

¹⁴¹ Меллингхофф Р. Задачи и статус Федерального конституционного суда Германии и его отношения с другими европейскими судами: пер с нем. Е. Ефимовой. // Сравнительное конституционное обозрение. 2007, № 4. С. 129

yurisdiksiyasiga kirmaydi. Bundan kelib chiqadiki, sudyaning o'zi apparat faoliyatini shakllantiradi va boshqaradi¹⁴².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2021-yil 31-maydagi KSQ-7-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining devoni to'g'risida nizomga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2021-yil 31-maydagi KSQ-9-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi devoni xodimlarining mansab yo'riqnomasiga muvofiq, devonning asosiy vazifasi Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tashkiliy-texnik, ilmiy-ekspert, axborot-ma'lumot va moliyaviy-xo'jalik jihatdan ta'minlash hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudning Devoni: Devon rahbari, Konstitutsiyaviy sud raisining yordamchisi, katta ekspertlar, ekspertlar, bosh hisobchi, xo'jalik mudiri, 1-toifali ish yurituvchi kotib, hisobchi-kassir, 1-toifali kotib-stenografistlardan iborat tarkibda faoliyat ko'rsatadi.

Konstitutsiyaviy sud devoni deganda ushbu organing tarkibiy qismini tashkil etuvchi, uning huquqiy, axborot-tahliliy, vakillik, iqtisodiy va boshqa ehtiyojlarini ta'minlaydigan barcha bo'linmalar va mansabdor shaxslar tizimi tushunilishi mumkin.

Adabiyotlarda devon turli xil nomlar bilan keltiriladi: xususan, kanselyariya, registrar (Chancellery, Registry). Bir qator davlatlarda konstitutsiyaviy sudlar apparati kotibiyat deb ataladi (Belarus, Moldova, Rossiya, Ukraina va boshqalar). Konstitutsiyaviy sudlarda apparat xodimlari ham turli hil nomlanadi: Ispaniyada "xizmat xodimlari", Avstriyada "ma'muriy xodimlar", Italiyada konstitutsiyaviy sudning xodimlari, xizmatchilari. Devon rahbarlari ham turlicha nomlanadi: eng keng tarqalgan atama – Bosh kotib (Secretary General), shu bilan birga, ma'muriyat boshlig'i, direktor, ofis boshlig'i, ma'mur (Head of administration, Chiyef of the Office, Registrar) kabi tushunchalar qo'llanadi.

Yuqoridagi modellar tahlilidan kelib chiqib qayd etish joizki, O'zbekistonda konstitutsiyaviy sud apparati faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qonunga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud raisi Konstitutsiyaviy sudga rahbarlik qiladi va uning faoliyatini tashkil etadi;

¹⁴² П.Д.Блохин. Роль аппарата органов конституционной юстиции в судебном процессе: сравнительно-правовой анализ. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. М.2015. 39 С.

Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib chiqishga qabul qilingan masalalarning tayyorlanishiga rahbarlik qiladi;

Konstitutsiyaviy sudning majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etilishini ta'minlaydi;

sud majlislarining qarorlarini va bayonnomalarini imzolaydi;

Konstitutsiyaviy sud devonining ishini tashkil etadi, uning xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

Konstitutsiyaviy sudni saqlash va uning faoliyatini ta'minlash uchun byudjet mablag'larini taqsimlaydi.

Konstitutsiyaviy sud raisi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud raisi Qonunchilik palatasi va Senat, ularning organlari majlislarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining majlislarida ishtirok etishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud raisi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Mazkur normalar mazmunidan konstitutsiyaviy sud raisining vakolatlari keng ekanligini ko'rish mumkin. MDHga a'zo davlatlarning sud-huquq tizimi va sudyalarning maqomi to'g'risidagi namunaviy kodeksi matniga (shuningdek, 2011-yilda qabul qilingan) ko'ra, konstitutsiyaviy sudning o'zi (rais taklifiga ko'ra) apparat va sudyalar tuzilmasini belgilaydi. Apparat va kotibiyat rahbarlarini tasdiqlaydi.

Ayni vaqtda esa Kotibiyat mudirining ham konstitutsiyaviy sud faoliyatida o'ziga xos markaziy o'ringa ega. Biroq Konstitutsiyaviy sud faoliyatida muhim rol o'ynovchi bu tuzilma, uning xodimlariga qo'yiladigan talablar na O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining devoni to'g'risida nizomda, na O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi devoni xodimlarining mansab yo'riqnomasida to'liq ma'lumot keltirilgan.

Venetsiya komissiyasining xulosalariga ko'ra ayrim mamlakatlar qonunchiligida Konstitutsiyaviy sud devoni rahbarini davlat

xizmatchisi yoki sud hokimiyatiga integratsiyalashgan davlat xizmatchisi ekanligi anglashiladi. Xususan, Bolgariya, Chexiya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Ukrainada devon rahbari davlat xizmatchisi sifatida; Argentina, Belgiya, Estoniya, Finlandiya (oliy sud) Devon rahbari sudya bo'lishi mumkin. Turkiyada devon rahbari ma'ruzachi sudyalor orasidan saylanadi.

Maqomi jihatdan esa Devon rahbari parlament bosh kotibiga (Andorra, Bolgariya, Fransiya, Shveysariya), vazir o'rinbosariga (Yaponiya), davlat kotibi (Polsha)ga tenglashtiriladi. Devon rahbari bo'lish uchun bir qator davlatlar o'ziga xos talablar belgilaydi. Xususan, huquqiy tayyorgarlik, diplom, kasbiy tajriba (Andorra, Belarus, Belgiya, Bolgariya, Estoniya, Germaniya, Yaponiya) nufuzli universitet malakasiga ega bo'lish (Chexiya, Litva, Slovakiya), ish tajribasiga ega bo'lish, 3 yillik (Ukraina) 10 yillik (Sloveniya) kabilar. Bosh kotibning faoliyat ko'rsatish muddati qonun bilan aniq belgilangan: nomuayyan muddatga (Germaniya, Litva), 2 yil (Janubiy Afrika) 5 yil (Avstriya).

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning amal qilishi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati devonlari xodimlarining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi a'zolarining, **sudyalarning va sud tizimi xodimlarining**, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi a'zolarining, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmatni o'tayotgan davlat xizmatchilarining, shu jumladan, harbiy xizmatchilarning; davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Mazkur qonun va sohaga tegishli qonunlar mazmunidan konstitutsiyaviy sud devoni rahbarining davlat fuqarolik xizmatchisi

masalasi, uning lavozimi, oylik maoshi to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq qoladi. (Qozog'istonda Konstitutsiyaviy sud devoni xodimlari davlat xizmatchilaridir deb aniq keltirilgan). Milliy qonunchiligimizga muvofiq, Devon rahbari bo'lish uchun alohida talablar qonun hujjatlari bilan belgilanmagan.

Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 19-fevraldagi 64-sonli qaroriga muvofiq Konstitutsiyaviy sudning shtatlari soni Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari va sudyalarni ham qo'shgan holda 22 kishidan iborat etib belgilangan.

Qonunchiligimizda Konstitutsiyaviy sud devoni rahbarligi nomzodiga qo'yiladigan talablar, uning huquqiy maqomi yoritishi lozim. Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud devon xodimlarini davlat xizmatchilaridir deb belgilash taklif etiladi.

Ayrim mamlakatlarda Konstitutsiyaviy sudlar huzurida huquqiy tadqiqot markazlari tashkil etiladi. Xususan, Polsha, Turkiya, Koreya Respublikasi, Ozarbayjon, Sloveniya kabi davlatlarda Konstitutsiyaviy sudlar huzurida tadqiqot markazlari mavjud. Polsha va Janubiy Afrikada shartnoma asosida tadqiqot instituti shakllantiriladi. Koreya Respublikasida Konstitutsiyaviy sud huzurida huquqiy tadqiqot markazi mavjud bo'lib, 55 nafar xodim xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy tadqiqot instituti Koreya Konstitutsiyasi va xalq ehtiyojlariga javob beradigan konstitutsiyaviy sud tizimini rivojlantirish uchun uzoq muddatli istiqbolga ega konstitutsiya va konstitutsiyaviy sudlov bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Shuningdek, u jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, davlat xizmatchilari va huquqshunoslar uchun konstitutsiyaviy ta'lim beradi. Ma'ruzachi sudyalari 10 yilga uzaytirilishi mumkin bo'lgan muddatlarda xizmat qilishlari mumkin va 60 yoshda nafaqaga chiqadilar.

Yangi tayinlangan ma'ruzachi sudya yordamchi lavozimida maxsus davlat mansabdor shaxsi sifatida uch yil davomida ma'ruzachi sudya etib tayinlangunga qadar xizmat qiladi. Ma'ruzachi sudyalari ikki guruhga bo'lib, ulardan biri sudyalarga birlashtirilgan va konstitutsiyaviy shikoyatlar, shuningdek, to'liq sudlov hay'atiga ajratilgan ishlarni dastlabki ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lganlardan iborat. Ikkinchisi esa adliya organlariga birlashtirilmagan

va ixtisoslashgan sohalarning kichik guruhlariga bo'linganlardan iborat.

Turkiya Respublikasida ham Konstitutsiyaviy sudlov bo'yicha tadqiqot markazi mavjud bo'lib, universitetlar va inson huquqlari institutlari bilan hamkorlikda konstitutsiyaviy huquq va amaliyot sohasida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida tashkil etilgan. Konstitutsiyaviy va inson huquqlari, shu jumladan xalqaro va qiyosiy mavzularda tadqiqot ishlarini olib boradi. Lyuksemburg va Irlandiya, Janubiy Afrika Konstitutsiyaviy sudlarida ham huquqiy tadqiqotlar markazi mavjud bo'lib, ular alohida tartibda boshqariladi. Bir qator davlatlarda huquqiy tadqiqot markazlariga shartnoma asosida tajribali olimlar, viloyat sudyalari, taniqli huquqshunoslar faoliyat yuritadilar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi ilmiy maslahatlashuv kengashi faoliyat yuritadi. Ilmiy maslahatlashuv kengashi huquq fani va konstitutsiyaviy nazorat amaliyoti masalalarida, shuningdek, chet el qonun hujjatlari yutuqlaridan mumkin qadar to'liq foydalanishda Konstitutsiyaviy sudga yordam berishga da'vat etilgandir. Ilmiy maslahatlashuv kengashi tarkibiga siyosat va huquq sohasidagi malakali mutaxassislar saylanadi. Fan va amaliyot boshqa tarmoqlarining kengashga a'zo bo'lmagan mutaxassislari ham Ilmiy maslahatlashuv kengashi ishiga jalb etilishi mumkin.

Ilmiy maslahatlashuv kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan maslahat organi hisoblanadi hamda uning qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy maslahatlashuv kengashi maqomini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Huquqiy tadqiqotlar markaziga o'zgartirish hamda mazkur markazda konstitutsiyaviy sudlov sohasida tadqiqotlar olib borish ishlarini tashkillashtirish, Konstitutsiyaviy sud Axborotnomasi jurnalini nufuzini oshirish hamda eng muhimi mazkur markazda jamoatchilik asosida emas, shartnoma asosida tajribali huquqshunoslarni jalb etish zarur.

Yana bir e'tiborga molik masalalardan biri bu devon xodimlarini ishini tashkil etishdir.

Venetsiya Komissiyasining xulosalari asosiy qayd etish mumkinki, Konstitutsiyaviy sudi apparatini ishini tashkil etishning uch xil turi mavjud. Birinchisi, mehnat shartnomasi asosida, ikkinchi guruhga apparat birinchi navbatda sudlar, boshqa davlat organlari va muassasalari xodimlarini asosiy xizmat joyini saqlab qolgan holda belgilangan muddatga (odatda bir necha yilga) ishga yuborish asosida tuziladi. Uchinchi toifa sud ixtiyoriga sudning asosiy xodimlaridan (shartnoma bo'yicha doimiy ishlaydigan yoki xizmat safariga jo'natilgan xodimlardan tashqari) qo'shimcha ravishda boshqa davlat organlarining ma'lum bir qismi qat'iy belgilangan vazifalarni bajarish davrida qisqa muddatga sud ixtiyoriga qo'yiladigan holatlar kiradi.

N.V.Vitruk Konstitutsiyaviy sud devoni xodimlarini ishini tashkil etishni soddalashtirib tasniflaydi: "yollanma, tanlov yo'li bilan, tayinlash va ishga yuborish orqali"¹⁴³ Mehnat shartnomasi asosida ishlarni tashkil etishga misol qilib, MDH mamlakatlari, jumladan Rossiya, Belarus, O'zbekiston va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchi turga Germaniya Konstitutsiyaviy sudini misol qilib keltirish mumkin. Germaniyada Konstitutsiyaviy sud sudyasi yordamchisini o'z shogirdlari orasidan o'zi tanlashi yoki Adliya vazirligi tavsiya etgan munosib nomzod masalan, kadrlar boshqaruviga tayanishi mumkin. Germaniya Konstitutsiyaviy sudida ilmiy yordamchilarning aksariyati asosiy faoliyati xususiyatiga ko'ra boshqa yurisdiksiya sudlari sudyalari yoki prokurorlari bo'lib, vazirlik xodimlari yoki ilmiy tadqiqotchilar kamroq uchraydi.

Qoida tariqasida, ularning barchasi oliy yuridik ma'lumotga, ko'p hollarda ilmiy daraja va unvonlarga ega. Tegishli davlat organlari va ilmiy muassasalar o'z xodimlarini asosiy ish joyini saqlab qolgan holda Konstitutsiyaviy sudga vaqtincha ishlashga yuboradilar. Bunday xizmat safari odatda ikki yildan to'rt yilgacha davom etadi. Sudya o'zi mas'ul bo'lgan huquq sohasi bilan professional ravishda shug'ullanadiganlar orasidan yordamchini tanlaydi, shuning uchun yordamchi davlat huquqi yoki konstitutsiyaviy sud ishlari bo'yicha

¹⁴³ Витрук Н.В. Конституционное правосудие: судебное конституционное право и процесс. С. 127. Н. В. Витрук. —3-е изд., перераб. и доп. — М.: Норма : ИНФРА-М, 2010. - 592 с.

mutaxassis bo'lishi shart emas. Federal Konstitutsiyaviy sudda ishlangan davr "o'ziga xos muhim malaka davri" deb hisoblanadi va uning ko'plab sobiq xodimlari boshqa sudlarda ishlagan holda, keyinchalik yuqori lavozimlarni egallaydilar¹⁴⁴. Mazkur institut Sloveniyada ham mavjud bo'lib, Sloveniyaning "Sud xizmati to'g'risida"¹⁴⁵gi qonunning 71-moddasiga ko'ra, quyi instansiya sudlari sudyasi Konstitutsiyaviy sudga, Oliy sudga, Kengash yoki Adliya vazirligi yuborilishi mumkin Sudyalar kengashining qarori bilan sudya Konstitutsiyaviy sudga yuridik maslahatchi sifatida 3-yildan ortiq bo'lmagan muddatga lavozimini saqlab qolgan holda yuborilishi mumkin.

Uchinchi turga Fransiya Konstitutsiyaviy Kengashi faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Fransiya Konstitutsiyaviy Kengashi referendumning o'tkazilishini hamda Prezident, deputatlar va senatorlar saylovi natijalarini nazorat qilish vakolatiga ega. Mazkur funksiyani bajarish uchun Kengash qat'iy belgilangan davlat organlarining vaqtinchalik xodimlarini teng darajada qat'iy belgilangan vazifalarni bajarish uchun qisqa va qat'iy belgilangan muddatga jalb etish vakolatiga ega.

Birinchi holatda (referendumda), Fransiyaning Konstitutsiyaviy Kengashi to'g'risidagi qonunida ta'kidlanganidek, Kengash tegishli vazirlik bilan kelishilgan holda barcha harakatlarni joyida kuzatish va ovoz berish jarayoni va ovozlarni sanab chiqish uchun umumiy va ma'muriy sudlarning sudyalarini jalb qiladi; ikkinchi holatda (saylovda) Davlat kengashi a'zolari Kengashga quyi bo'g'indagi xodimlar orasidan yetakchi lavozimiga ega va Hisob palatasi maslahatchilari tayinlanadi, ularning har biri sudya –yordamchisiga aylanadi va tergovni olib boruvchi Kengashning uchta sudyasidan iborat maxsus hay'atlar (bo'limlar) tarkibida ishlaydi¹⁴⁶.

Muayyan muddatga birlashtirilgan xodim rais–ma'ruzachi etib saylanishi mumkin (Konstitutsiyaviy Kengashning deputatlar va sena-

¹⁴⁴ Кюлинг Ю. Федеральный конституционный суд Германии // Вестник Конституционного суда Республики Узбекистан. 1999. Выпуск № 3. С. 75.

¹⁴⁵ Judicial Service Act // Official Gazette of the Republic of Slovenia, № 19/1994

¹⁴⁶ Règlement applicable à la procédure suivie devant le Conseil constitutionnel pour le contentieux de l'élection des députés et des sénateurs // <http://www.conseilconstitutionnel.fr/>
(Дата обращения: 06.11.2024)

torlar saylov nizolari bo'yicha Reglamentning 8-moddasi), bu esa uni protsessual roli bo'yicha sudya siymosiga yaqinlashtiradi. Bir tomondan, ushbu xodimlar ish bo'yicha maslahatchi-ma'ruzachilar bilan hamkorlikda ishlaydi va ularning buyruqlariga bo'ysunadi, boshqa tomondan, ularning ishini Bosh kotib (Devon rahbari) muvofiqlashtiradi. Boshqa hollarda mazkur xodim o'zi xizmat qilayotgan davlat organiga va huquq va majburiyatlariga sodiq qoladi.

O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud apparati xodimlarini shakllantirish masalasi asosan mehnat shartnomasi orqali tuzilishi nazarda tutiladi. Xizmat safari instituti orqali xodimlarni shakllantirish qonunchilikda nazarda tutilmagan. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida", "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi qonunlarda xizmat safari asosida ishlarni tashkil etishga oid normalar uchraydi. Hududlardagi sudyalardan, universitetdagi jamoadan xizmat safari orqali ishlar shakllantirilishi mumkin. O'zbekiston qonunligida ham istiqbolda xizmat safari orqali xodimlarni shakllantirish masalasini chuqur tadqiq qilish va tatbiq etish, ishlarni amalda, sifatli ko'rilishiga ko'maklashadi.

Konstitutsiyaviy sud faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy masalalardan biri Sudya yordamchisi institutidir. Sudya yordamchisi instituti turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi: sudya-ma'ruzachi (Turkiya), tadqiqot ishlari bo'yicha sudya (Janubiy Koreya), yordamchi-magistrat (Isroil, Latviya, Ruminiya, Rossiya Federatsiyasi), referendum (Belgiya), sudya yordamchisi (Italiya, Polsha, Litva, Assistent) yuridik maslahatchi (Avstriya, Kipr, Xorvatiya, Gruziya, Germaniya, Moldova, Portugaliya, Slovakiya, Vengriya), maslahatchi (Albaniya, Chexiya, Latviya, Portugaliya, Serbiya, Sloveniya), tadqiqot maslahatchisi (Ukraina).

Konstitutsiyaviy sudlar tajribasida sudya yordamchisini ishga qabul qilishning ikki turi mavjud: muddatli hamda muddatsiz shartnoma asosida.

Germaniyada bugungi kunda har bir sudyaning ixtiyorida 4 nafar yordamchi – ilmiy yordamchi (wissenschaftlicher Mitarbeiter) mavjud, raisning ham shaxsiy yordamchisi bor; Binobarin, ularning umumiy soni ancha katta va odatda 65 kishini tashkil qiladi¹⁴⁷.

¹⁴⁷ Dr. Fabian Scheffczyk, The role of legal advisers within the Federal Court of Germany

Nemis tajribasiga ko'ra sudyalari o'z yordamchilarini o'zlarini tanlaydilar va bu sudyalarning mustaqilligiga va ishlarni samarali ko'rishga xizmat qiladi. Bu borada S.A. Pashin sudya va uning xodimlari uning roziligisiz ishdan bo'shatilmasligi kerak deb hisoblaydi¹⁴⁸. Sudyalari ishga joylashish to'g'risida qaror qabul qiladilar va ular ko'pincha o'zlarining oldingi ish tajribasiga ko'ra tanish bo'lgan yuridik amaliyotchilarni tanlaydilar. Ishga qabul qilishning asosiy usuli shtat adliya vazirlari, oliy sudlar yoki kadrlar bo'limi raislari yoki ushbu muassasalar xodimlarining rahbarlari bilan bog'lanish bo'lib, ular Konstitutsiyaviy sudning yuridik maslahatchisi lavozimiga o'zlari munosib deb bilgan bir yoki bir nechta shaxsni tavsiya qiladilar. Sudya yordamchiligiga nomzod ushbu sud sudyasining vakolati sohasidagi mutaxassis bo'lishi kerak. Tanlov sudya bilan suhbat asosida amalga oshiriladi. Aksariyat sudya yordamchilari sudyalari, prokurorlar va ba'zan sudga topshirilgan davlat amaldorlaridir.

Vengriya, Turkiyada sudya yordamchisi lavozimini egallash uchun nomzod oddiy yoki ma'muriy sudda sudya, prokuror, Hisob sudi auditori, bosh auditor yoki mutaxassis-auditor bo'lishi kerak, u kamida besh yil muvaffaqiyatli ishlagan yoki o'qishni tugatgan oliy ta'lim muassasalarida huquq, iqtisod yoki siyosatshunoslik bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy xodim bo'lgan bo'lishi kerak, u kamida besh yil davomida dotsent yoki doktoranturada o'qishni davom ettirgan bo'lishi kerak. (stajirovka muddati bundan mustasno.)

Kasb-hunarga qabul qilish Prezident devoniga taqdim etilgan so'rov asosida amalga oshiriladi va uning ijobiy fikriga ko'ra nomzodga u ishlayotgan muassasa tomonidan vakolat beriladi. Belgiyada refrend – sudya yordamchilari ikki bosqichda: yozma imtihon (konstitutsiyaviy huquq masalasi bo'yicha nazariy test) va amaliy test (qaror loyihasini tayyorlash) bo'yicha tanlovdan so'ng noma'lum muddatga tayinlanadi. Aralash tizimlarga kelsak, Sloveniyani eslatib o'tishimiz kerak, u erda noma'lum muddatga tanlov orqali ishlaydigan yuridik maslahatchilar bilan bir qatorda, sudyalari tomonidan tanlangan institute personae bo'lgan tashqi

¹⁴⁸ Пашин С.А. Портрет Конституционного Суда // Конституционное право: восточноевропейское обозрение. 1993. N 2/3. С. 28-35

hamkorlar ham ishlaydi. Tashqi yuridik maslahatchilar ishlarni tayyorlash bilan bog'liq vazifalarni bajara olmaydilar, shuning uchun ular sudyalari yoki yordamchilar bilan hamkorlik qiladilar. Maslahatchilar faqat sud qarorlarini ishlab chiqish yoki sudga ko'rilgan ishlar bo'yicha o'zlarining maxsus fikrlarini bildirish bilan cheklangan. Xuddi shunday, Italiyada ma'lum muddatga ishlaydigan sudya yordamchilaridan tashqari, "konsigliyeri" (sudning yuqori mansabdor shaxslari) idorasi ham mavjud. Ular ommaviy tanlov asosida, doimiy ravishda ishga qabul qilingan xodimlar tarkibiga kiradi, sud apparatida oliy martabaga ega bo'lib, sud faoliyatini tashkil etish, ma'muriy boshqarish va umumiy ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni bajaradi. Ispaniyada yordamchilarning ikkita toifasi mavjud: doimiy organga tegishli bo'lganlar (tanlov orqali ishga olinadi) va vaqtinchalik (ishonch asosida saylanganlar).

Moldova Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida sudyalari yordamchilari (sudya –assistentlari) instituti mavjud. Ularning soni sudyalari soni bilan bir xil – olti nafar, ular rais va sudyalarga yordam beradi. Moldovada sudya yordamchisi oliy yuridik ma'lumotga va yuridik mutaxassislik yoki oliy yuridik sohasida kamida 10-yil ish stajiga ega bo'lishi kerak. U tanlov orqali ishga olinadi. Sudya yordamchilari Apellatsiya palatasi sudyalariga tenglashtiriladi va boshqa sudlar sudyalari bilan bir xil maqomga ega.

Ayrim mamlakatlarda sudya yordamchilarining asosiy vazifasi ishlarni o'rganish va tayyorlashga to'g'ri keladi, boshqalarida esa qarorlar loyihasini ishlab chiqishdir. Ba'zi shtatlarda yordamchilar/maslahatchilar va hokozalar bevosita sudyalari bilan ishlaydi, ularning ko'rsatmalariga amal qiladi. Germaniyada maslahatchi tegishli faktlarni, muallifning dalillarini, huquqiy konstitutsiyaviy qoidalarni ko'rsatgan holda ish bo'yicha bayonnoma tuzadi va ularni qo'llab-quvvatlovchi dalillarni keltirgan holda yechim taklif qiladi.

Avstriyada maslahatchilarning asosiy vazifasi sudyalarga hal qilinishi kerak bo'lgan ishlar bo'yicha ma'lumot va g'oyalarni taqdim etishdan iborat (tegishli qonunlar, sud amaliyoti, milliy sudlar pretsedenti, maxsus adabiyotlar). Belgiyada referendning vazifasi arizani dastlabki ko'rib chiqish, qaror loyihasini, zarur hisobotlarni va huquqiy tadqiqotlarni tayyorlashdan iborat. Gruziya, Isroil, Litva

hisobotlarida tadqiqot faoliyati, ishlarni tayyorlash va tayinlangan ishlar bo'yicha sudyaning yordami bilan bir xil ishtirok etishi aniqlangan. Ruminiyada sudya-ma'ruzachiga tayinlangan yordamchi sudya unga yakuniy shakl va imzolash uchun taqdim etilishi kerak bo'lgan hisobot loyihasini tuzadi, majlisni tayyorlaydi, ommaviy va muhokama majlislarida qatnashadi va loyihani tuzadi.

Chexiya Respublikasida yordamchilar va yuridik maslahatchilarning vazifalari alohida belgilanadi. Shunday qilib, yordamchilar faoliyatining o'ziga xos mazmuni va tabiati deyarli faqat sudyaning ko'rsatmalariga bog'liq. Maslahatchilarning vazifalarini ikkiga bo'lish mumkin: birinchidan, sudyaning so'roviga bog'liq bo'lmagan "doimiy vazifalar" (sud qarorlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasini boshqarish, doimiy tadqiqotlar, xorijiy konstitutsiyaviy sudlarning xulosalari va yangilangan amaliyoti va boshqalar. Ikkinchidan, "reaktiv" (sudya yoki sud Plenumining talabiga binoan ayrim huquqiy masalalar bo'yicha tahlillarni tayyorlash). Maslahatchilar, yordamchilardan farqli o'laroq, odatda qaror qabul qilishda ishtirok etmaydilar, lekin vaqti-vaqti bilan (odatda ma'lum bir maslahatchi muayyan ish bo'yicha tahlil tayyorlaganda), qarorning ishlab chiqilishi uchun qisman javobgar bo'lishi mumkin. Moldovada sudya yordamchilari (assistant judges) (sudyalarga bevosita yordam beradigan) va sudya yordamchilari (judicial assistants) (davlat xizmatchisi maqomiga ega va Bosh kotibiyatga bo'ysunuvchi) instituti mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2021-yil "31" maydagi KSQ-9-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi devoni xodimlarining mansab yo'riqnomasida Konstitutsiyaviy sud raisi yordamchisi, Konstitutsiyaviy sud raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi vazifasini bajaruvchi katta ekspert, Konstitutsiyaviy sud raisining matbuot kotibi vazifasini bajaruvchi katta ekspert, Xalqaro aloqalarni amalga oshiruvchi katta ekspert (jami uch nafar katta ekspert) va ekspertlar (yo'riqnomada ekspert, Qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiyalash bilan shug'ullanuvchi ekspert, kanselyariya ishlarini yurituvchi ekspert)

haqida so'z yuritilgan. O'z navbatida, ekspertning vazifalari sifatida quyidagilar keltirilgan:

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligini hamda muayyan ishda qo'llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini fuqarolar hamda yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlarni o'rganadi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini o'rganib boradi va bu boradagi fikrlarini sud rahbariyatiga taqdim etadi;

konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot tayyorlashda ishtirok etadi;

fuqarolarni qabul qiladi, ularning murojaatlarini ko'rib chiqadi, umumlashtiradi, hisobga olib boradi va tahlil etadi;

devon rahbarining topshirig'iga binoan Konstitutsiyaviy sud va Ilmiy maslahatlashuv kengashi majlislarini tashkiliy-texnik jihatdan tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etadi;

zarurat bo'lganda, Konstitutsiyaviy sud majlisiga kiritiladigan masalalar yuzasidan xolis va ilmiy asoslangan xulosa beradi;

Konstitutsiyaviy sud va Ilmiy maslahatlashuv kengashi majlislarida qatnashadi;

Konstitutsiyaviy sudning o'z nazoratida turgan qarorlarining ijro etilishi bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi;

o'ziga tegishli hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtiradi va arxiv uchun tayyorlab, devon rahbariga devon rahbariga topshiradi;

Konstitutsiyaviy sud rahbariyatining boshqa topshiriqlarini bajaradi.

O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudida ham nazariy jihatdan sudya yordamchisi va sud ishiga ko'maklashuvchi yordamchilar sifatida tasnif yuritilishi mumkin. Ta'kidlab o'tish joizki, sudya yordamchisi institutiga Konstitutsiyaviy suddagi ekspertning vakolatlari xorijiy mamlakatlardagi advisers/assistants institutiga ko'proq to'g'ri keladi. Ekspert xolis va ilmiy asoslangan xulosa berishi, Konstitutsiyaviy sud majlislarida ishtiroki, Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan masalalarni o'rganishi kabi masalalar sudya yordamchisi institutiga yaqinligini ko'rsatadi. Yo'riqnomada keltirilgan boshqa lavozimlar Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga bevosita ko'maklashishga qaratilgan.

Ammo Konstitutsiyaviy sudning yo'riqnomasida mazkur lavozimlarni egallamoqchi bo'lgan nomzodlarga talablar aks ettirilmagan.

Yuqoridagi tahlillar asosida qayd etish joizki, sudya yordamchilariga doir bir qator davlatlarda alohida malaka talablari qo'yilgan. Bejiz Germaniya Konstitutsiyaviy sudida sudya yordamchilarini ilmiy va mahalliy nashrlarda "Uchinchi Senat" deb nomlanmaydi. Sudyalar va ularning yordamchilari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq masalalar yuzasidan Venetsiya Konferensiyasidagi komissiyasining xulosalarida, quyidagi tavsiyalar ta'kidlangan: sudyalarga malakali xodimlar yordam berishi kerak, ularning soni sudga kiritilgan ishlar soniga qarab belgilanadi¹⁴⁹; sudga taalluqli emasligi to'g'risidagi ma'lumot sudya yordamchilari tomonidan tayyorlanishi mumkin, ammo haqiqiy qarorlar sudyalarning o'zlari tomonidan chiqarilishi kerak¹⁵⁰.

Sudya yordamchisi deganda texnik ishlarni bajaruvchi, sudyaga faqatgina rasmiylashtirish ishlarida yordam beradigan shaxs emas, sudning vakolatiga doir masalalarda asoslantirilgan ilmiy amaliy xulosalari bilan ko'mak bera oladigan malakali shaxs nazarda tutilishi

¹⁴⁹ CDL-AD (2008)030 - Opinion on the bill regarding the Constitutional Court of Montenegro.

¹⁵⁰ CDL-STD (1995)015 - The protection of fundamental rights by the Constitutional Court, Science and Technique of Democracy.

kerak. Venetsiya komissiyasi xulosalarida ta’kidlanganidek, sudya yordamchilari ko’rinmas yozuvchilardir¹⁵¹”.

Sudya yordamchilariga qo’yiladigan talablar ularning faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Belgiya va Portugaliyada ikki nafar sobiq maslahatchilar bugungi kunda Konstitutsiyaviy sud sudyalari sifatida faoliyat yuritmoqdalar.

Mamlakatimiz Konstitutsiyaviy sudi faoliyatida ham sudya yordamchilari ekspertlarga qo’yiladigan talablarni qonunchilikda aniq yoritish va bu talablarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

¹⁵¹ Tudorel Toader_Marieta_Safta_Judges_and_assistant_magistrates_within_Constitutional_Courts.pdf National Report of of the Constitutional Court of Romania, Part I – The Constitutional Court’s relationship to Parliament and Government, General Report of the Conference, Part I – The Constitutional Court’s relationship to Parliament and Government, authors Professor PhD Tudorel Toader, Lecturer PhD Marieta Safta – <https://www.ccr.ro/uploads/congres/raportgeneralro.pdf>.

XULOSA

Davlat hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sudning huquqiy maqomi hamda rolini konstitutsiyaviy huquq fani nuqtayi nazaridan tadqiq etish hamda tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish natijalari quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni ilgari surishga xizmat qildi:

Birinchi, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda unda Konstitutsiyaviy sud organining roli o'rganildi. Unga ko'ra, davlat hokimiyati tizimida konstitutsiyaviy sudlovni rivojlantirish islohotlari Konstitutsiyaviy nazorat organi vakolatlarini kengaytirish va nazorat samaradorligini oshirishga qaratildi. Ushbu jarayonda Konstitutsiyaviy sudning huquqiy maqomi, o'zaro munosabatlari huquqiy asoslari yaratildi.

Ikkinchi, Konstitutsiyaviy sudlov tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: konstitutsiyaviy sudlov – qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarini konstitutsiyaga muvofiqligi nuqtayi nazaridan amalga oshiriladigan konstitutsiyaviy nazoratning shakli.

Uchinchi, O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy sudlov huquqiy asoslarini shakllanishi tarixiy, konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tahlili konstitutsiyaviy sudlovni rivojlanishini to'liq tavsif etgan holda, shartli ravishda, to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkinligi haqida xulosaga kelindi: birinchi bosqich 1990-1995-yillar, 1995-2017 ikkinchi bosqich, 2017-2021-yil uchinchi bosqich hamda 2023-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr to'rtinchi bosqichlardan iborat.

To'rtinchi, Xorijiy mamlakatlar ilmiy manbalarida Konstitutsiyaviy sudlarni ijobiy va salbiy qonun chiqaruvchi sifatida tavsiflovchi yondashuvlarni tahlil qilib, bugungi kunda huquqdagi bo'shliqlar, qonunlarning yo'qligi yoki qonun chiqaruvchining mutlaq yoki nisbiy kamchiliklari, konstitutsiyaviy sud qarorlarini ijro etilishini samarali mexanizmi yo'lga qo'yilmasligi, ko'p hollarda Konstitutsiyaviy sudlarning qonun chiqaruvchi yordamchisi rolini o'z zimmasiga olishiga olib kelishi mumkin degan xulosaga kelingan.

Beshinchi, Konstitutsiyaviy sud ish yurituv bosqichlari yuzasidan olimlarning fikrlari tahlil qilingan holda, konstitutsiyaviy sud ish yurituv bosqichlari Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish va ularni dastlabki o'rganish; ishni ko'rib chiqish uchun tayinlash va tayyorlash; sud muhokamasi; yakuniy qaror qabul qilish; qarorning e'lon qilinishi va kuchga kirishi; qarorni ijro etishidan iborat ekanligi asoslantirildi.

Oltinchi, Konstitutsiyaviy sud qarorlari – umummajburiyligi, ommaviy e'lon qilinishi, darhol amal qilishi, qat'iyligi, O'zbekiston Respublikasi nomidan qabul qilinishi, davlat majburlovi bilan ta'minlanganligi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib, huquq manbasidir hamda normativ ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar hamda chora-tadbirlar ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan asoslantirildi:

- Konstitutsiyaviy sudni shakllantirishda ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga rioya qilish va Konstitutsiyaviy sud sudyalarini mustaqilligini ta'minlash;

- Konstitutsiyaviy sud ish yurituvini alohida qonun bilan tartibga solish;

- Konstitutsiyaviy sud qarorlarini yuridik tabiatini tadqiq etish hamda uning maqomini belgilash;

- Konstitutsiyaviy sud devoni faoliyatini takomillashtirish.

Ushbu monografiya xulosalari asosida quyidagi normativ-huquqiy bazani, amaliyotni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 92-moddasiga Konstitutsiyaviy sud sudyalarining moddiy va ijtimoiy ta'minotiga oid kafolatlar: Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy kafolatlari aniq keltirilishi lozim. Ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan Konstitutsiyaviy sud sudyalariga beriladigan imtiyozlar, iste'fodagi faxriy Konstitutsiyaviy sud sudyalariga beriladigan ta'minot, Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilganda beriladigan bir martalik to'lovlar, ularning oila

a'zolariga beriladigan imtiyozlar qonun darajasida aniq keltirilishi lozimligi taklif etiladi.

2. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 4-moddasiga "O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Oliy sud Plenumining qarorlarini Konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan aniqlaydi" deb belgilash taklif etiladi.

3. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuning 5-moddasida "o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar" jumlasini qonunda aniq yoritish taklif etiladi.

4. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 50-moddasi uchinchi qismiga "Sud majlisini axborot-telekommunikatsiya tarmog'i - internetda to'g'ridan to'g'ri efirga uzatish Konstitutsiyaviy sudning tashabbusi yoki sud majlisi ishtirokchilarining iltimosnomasiga muvofiq raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi" mazmunidagi qoidani kiritish lozim. Konstitutsiyaviy sudning ochiq majlislari onlayn efirga uzatilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz.

5. Fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat qilmoqchi bo'lganlarida ular uchun tushunarli va sodda yo'riqnoma bo'lishi va unda konstitutsiyaviy shikoyat talablari to'liq va aniq yoritilishi lozim. Fuqarolarga qulay bo'lishi uchun Konstitutsiyaviy sud tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy shikoyatlarini ko'rib chiqishi bo'yicha alohida yo'riqnoma ishlab chiqish taklif etiladi. Unda, asosiy savollarga javob bo'ladigan masalalar aks etishi kerak. Xususan, konstitutsiyaviy shikoyat nima, berish tartibi, asoslantirish tartibi, sudda himoya qilining barcha vositalari tushunchalari, uzrli sabab bo'lganda muddatlar tiklanishi masalasi va shu bilan bog'liq asosiy masalar aks etgan hujjat bo'lishi kerak.

6. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunda bir nechta talabni alohida ish yuritishga ajratish masalasi yoritilmaganligi, Konstitutsiyaviy sudning sudyasini ishni ko'rishda ishtirok etishdan chetlashtirishda, xabar berish tartibi, muddati kabi masalalar yoritilmagan. Shuningdek, eks-

pert, mutaxassis, tarjimonning *ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligi va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qarindoshi bo'lsa* va boshqa asoslarga ko'ra chetlashtirish (rad etish) masalasi ochiq qoldirilganligi bois mazkur masalalarni qonunda aniq yoritish taklif etilgan.

7. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunda konstitutsiyaviy sud ish yuritishni to'xtatib turish majburiyati, to'xtatib turishning oqibatlari keltirilganligi sababli mazkur masalaga oid masalalar qat'iy, aniq yoritilishi lozimligi taklif etilgan.

8. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 53¹-moddasi kiritish hamda unda og'zaki eshituvlar o'tkazmasdan ish yuritish tartibi (yozma ish yuritish)ni aniq yoritish, yozma ish yuritishda sudyaning harakatlari, muddati, tegishli materiallarni berish uchun yozishmalar olib borish tartibi va boshqa qoidalari to'liq yoritilmagan. Konstitutsiyaviy qonunda yozma ish yuritish tartib-taomillarini aniq yoritish va boshqa masalalar bo'yicha ham (faqat mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining normalariga rasmiy sharh berishdan tashqari) konstitutsiyaviy sud ish yurituvining boshqa turlarida ham qo'llanishi mumkinligini qonunda aks etirish taklif etiladi.

9. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunda protsessual muddatlar bilan bog'liq barcha munosabatlarni to'liq qamrab olmaganligi tufayli, 79¹-modda kiritishni hamda unda protsessual muddatlarni o'tkazib yuborish, uning huquqiy oqibatlari, protsessual muddatlar o'tkazib yuborilganda sud tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar tavsifi, protsessual muddatlarni to'xtatib turish, uzaytirish va tiklash masalasi, agar protsessual harakat sudda amalga oshirilishi kerak bo'lsa bunday holatlarda protsessual muddatni belgilash masalasi, konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilingan qarorlarni ijro etish bilan bog'liq muddatlar xususida to'liq yoritish taklif etiladi.

10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha davlat organlarini faoliyatini o'rganish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari asosida qabul qilingan qarorlarda belgilangan vazifalarni bajarilganligini monitoringini olib borish maqsadida Konstitutsiyaviy sud tarkibida Konstitutsiyaviy sud qarorlarini ijrosini ta'minlash ustidan nazorat bo'limini tashkil etish taklif etiladi.

11. Konstitutsiyaviy sud ish yurituvida bir qator protsessual masalalar huquqiy asosining to'liq belgilanmaganligi Konstitutsiyaviy sud ish yurituviga to'g'risidagi alohida qonun qabul qilish zaruriyatini vujudga keltirayotganligi bois, Konstitutsiyaviy sud ish yurituviga to'g'risidagi qonunni qabul qilish hamda unda protsessual masalalarni aks ettirish taklif etilgan.

12. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Ilmiy maslahatlashuv kengashi maqomini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi Huquqiy tadqiqotlar markaziga o'zgartirish hamda mazkur markazda konstitutsiyaviy sudlov sohasida tadqiqotlar olib borish ishlarini tashkillashtirish, Konstitutsiyaviy sud Axborotnomasi jurnalini nufuzini oshirish hamda eng muhimi mazkur markazda jamoatchilik asosida emas, shartnoma asosida tajribali huquqshunoslarni jalb etish taklif etiladi.

13. Konstitutsiyaviy sudga devon faoliyatini qayta ko'rib chiqish, qonunda uning huquqiy maqomini aniq belgilash hamda Konstitutsiyaviy sud sudyasi ish faoliyatiga bevosita yordam beruvchi shaxslar, sudya yordamchilari, ekspert lavozimiga aniq talablarni yoritish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1.1. Sh.M. Mirziyoyev Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 2019-yil 8-dekabr) Xalq so'zi, 2019-yil 8-dekabr, №254 (7484).

1.2. Sh.M. Mirziyoyev “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir”. <https://president.uz/uz/lists/view/3119>

1.3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”. 2021, 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – <https://constitution.uz/uz>

2.2. O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi”, 2001-yil, 1-2-son, 10-modda.

2.3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi O'RQ-687-sonli Konstitutsiyaviy Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son.

2.4. O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar.// <https://lex.uz/docs/5841063>

2.6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2024-yilda mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati

to'g'risidagi axboroti. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori, 06.12.2024-yildagi KSQ-4-son.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida»gi qarorining (ilovasi bilan) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi ish yuzasidan Konstitutsiyaviy sud qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.03.2023-y., 12/23/4/0142-son.

